TOSHKENT IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY - METODIK JURNALI

PEDAGOGIKA, IQTISODIYOT, FILOLOGIYA

№1 2024-yil

O’ZBEKISTON RESPUBLIKSI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

TOSHKENT IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY-METODIK JURNALI

№ 1 (2024)

SCIENTIFIC-METODICAL JOURNAL OF TASHKENT ECONOMIC AND PEDAGOGICAL UNIVERSITY

№ 1 (2024)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligining № 335218-sonli guvohnomasi bilan ro‘yxatga olingan.

Toshkent - 2024

TOSHKENT IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

ILMIY-METODIK JURNALI

TAHRIRIYAT KENGASHI

Tahririyat kengashi raisi — Janikulov Shakarboy, Rektor, texnika fanlari nomzodi, professor

Tahririyat kengashi mas'ul kotibi — Dustmurodov Ma'rufjon Mansur o'g'li, Ilmiy bo'lim boshlig'i, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Tahririyat a'zolari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlari

Jabborov Eliboy Jabborovich	iqtisod fanlari doktori, professor
Yakushenko Kseniya Valentinovna	iqtisod fanlari doktori, professor (Belorusiya)
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	iqtisod fanlari nomzodi, professor
Jill J.McCluskey	iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor (AQSh)
Kusharov Zoxid Keldiyorovich	iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Dusbayev Iso Ramazanovich	qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

10.00.00 – Filologiya fanlari

Selami Fedakar	filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Dadaboyev Hamidulla Aripovich	filologiya fanlari doktori, professor
Enver Kapağan	filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Yuldashev Ma'rufjon Muhammadjonovich	filologiya fanlari doktori, professor
Ibrahimov Elchin Ali o'g'li	filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon)
Daniyarov Baxtiyor Xudoyberdiyevich	filologiya fanlari doktori, professor
Jumayev Farxod Akmamatovich	filologiya fanlari nomzodi, dotsent

13.00.00 – Pedagogika fanlari

Jamilova Nargiza Nuritdinovna	pedagogika fanlari doktori, professor
Varnikova Olga Vasilyevna	pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Novoselov Sergey Arkadevich	pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Saparova Gulnaz Kalbayevna	pedagogika fanlari nomzodi, professor
Xalikova Shaxodat Tuxtayevna	psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

KIRISH

Shakarboy Janikulov
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti rektori,
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Mana Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti ilmiy rivoji yo‘lida yana bir muhim voqea – Institut ilmiy ilmiy jurnalining ilk soni e’lon qilinmoqda! Avvalo, Siz, aziz Institutimiz jamoasini, jurnal tahririyati a’zoligidagi nufuzli xalqaro universitetlar vakillari, shuningdek, ushbu ilk sonda o‘z maqolasini chop etayotgan professorlar, mutaxassislar, mustaqil ilmiy izlanuvchilarni yuksak hurmat-ehtirom va samimiy minnatdorchilik bilan muborakbod etish menga katta mamnuniyat bag‘ishlaydi.

Bugungi jadal odimlayotgan globallashuv davrida o‘zining mustaqil fikriga ega, milliy qadriyatlar ruhida kamol topgan, ma’nan boy, intellektual salohiyatli yosh avlodni tarbiyalash davlatimiz va jamiyatimizda turgan muhim vazifa hisoblanadi. Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Bugun biz yashayotgan internet va yuksak texnologiyalar asrida adabiyot va san’at, madaniyatimizning o‘rni va ta’sirini nafaqat saqlab qolish, balki qanday qilib uni kuchaytirish mumkin, degan to‘g‘ri va odilona savollar barchamizni, birinchi navbatda, xalqimizning eng ilg‘or vakillari bo‘lgan ijod ahlini o‘ylantirish zarur”[1].

Fikrim dastavvalida Haqning kalomi bo‘lmish ilm haqida ikki og‘iz so‘z. Ilm har qanday davlatni rivojlanishiga asosiy kuch hisoblanadi. Olimlari ko‘p davlat esa hamma vaqt, har sohada rivojlanadi, ravnaq topadi. Shu sababli ham go‘zal diyorimizdagi ilm-fan taraqqiyoti jahon arenalarida tutgan o‘rni yuksak bahoga egadir. Ana shu sababli qomusimiz bo‘lgan Konstitutsiyamizda davlat jamiyatning ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qilish bejiz qayd etilmagan. O‘zbekiston ziyolilar o‘lkasidir. Necha-necha asrlar avval yashab o‘tgan Al Buxoriy, Al Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Muso Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Marvoziy, Javhariy, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Abu Iso Muhammad at-Termiziy kabi bobokalonlarimiz aynan bizning diyorimizda yashab, ilm-fanning rivojlanishiga va butun dunyo tan olishiga o‘z hissalarini qo‘shgan. Biz ana shunday buyuklar avlodimiz. Tomirimizda jahon tan olgan olimlarning qoni oqmoqdadir. Ma’lumki, uzoq o‘tmishga ega O‘rta Osiyo xalqlari taraqqiyoti tarixi o‘z boshidan turli voqealarni, yuksalish va ilm-fanning orqaga ketishini boshdan kechirdi.Ammo, IX-XII asrlarda “Bayt ul-hikma” (“Donishmandlar uyi”) bo‘lgan Ma’mun akademiyasiga asos solindi. Bu maskanda

[1] Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasidan. Toshkent, 2017-yil 4-avgust.

ulug‘ allomalar, olimlar, ijod qildilar. Buyuk bobokalonimiz Imom al Buxoriy ta’kidlaganidek, “dunyoda ilmdan boshqa najot yoq va bo‘lmag‘ay”. Statistikaga ko‘ra bugungi kunda mustaqil o‘lkamizda 40 mingdan ziyod shaxs ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanadi, ularning 35 mingdan ortig‘i oliy ma’lumotga ega. Har yili O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining bir qismi ta’lim va ilm fanga sarflanadi. 2021-yilda innovatsion rivojlanish va novatorlik g‘oyalarini qo‘llab quvvatlash, loyihalashtirish, qurish va qayta rekonstruksiya qilish uchun qariyb 230 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ ajratildi. 2022-yilga kelib esa bu ko‘rsatkich 671 milliard so‘mdan ortig‘i, yoki davlat budjetining 0,39 foizini tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son Farmoni bilan tasdiqlangan Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish borasidagi 19 ta muammo alohida belgilandi. Bu muammolarni hal etish yo‘lida talay chora-tadbirlar olib borilmoqda. Dunyo miqyosida keskin tus olayotgan shiddatli raqobatga faqatgina zamonaviy ilm-fan, yuqori texnologiyalar va innovatsion yutuqlar orqali munosib javob berishimiz darkor. Butun dunyodagi har tomonlama rivojlangan davlatlar faqatgina mahsulotning eksporti yoki importini ko‘paytiribgina qolmay, balki bilimga e’tibor yo‘lida ilmiy yutuqlarga ega innovatsion iqtisodiyotga o‘tish vazifasini qo‘ymoqda. Ana shu asnoda mamlakatimizda uch yuzdan ortiq ilmiy tadqiqot muassasalari, oliy o‘quv yurtlari, tajriba konstruktorlik tashkilotlari, ilmiy ishlab chiqarish korxonalari, kichik innovatsion markazlar va boshqa ilmiy texnikaviy bazalar faoliyat olib bormoqda.

Ishonchim komilki, ushbu ilmiy jurnal sifatli ta’lim berish yo‘lida xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar eshigi ochadi. Muhtaram Prezidentimizning ilm-fan vakillari bilan uchrashuvida olimlarni qo‘llab quvvatlash davlatning ustuvor vazifalaridan biri ekanligini ta’kidlagan edilar. Davlatimizda 2016-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademiklari faoliyatini takomillashtirish va rag‘batlantirish to‘g‘risidagi farmonida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ilm fanning o‘rnini yanada mustahkamlash, bu borada akademiklar faoliyatini takomillashtirish va rag‘batlantirish to‘g‘risidagi farmonida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ilm-fanning o‘rnini yanada mustahkamlash, akademiklar faoliyatini har tomonlama qo‘llab quvvatlash, yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlash sifatini oshirishni rag‘batlantirish maqsadida bir qator muhim chora-tadbirlar belgilangan edi. Shu o‘rinda Shavkat Mirziyoyev tomonidan “Harakatlar strategiyasidan taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili asosida keyinga besh yillikda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma’rifiy asoslarini yaratib berishga qaratilgan. Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-

yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi ham davlatimizni har tomonlama yuksaltirish uchun xizmat qilmoqda.

Institutimizda tashkil etilgan yetuk olimlar, ilmiy izlanuvchilarni o‘zida birlashtirgan “Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti ilmiy-metdik jurnali” ham xalqimizning eng ilg‘or qismini kamol toptirish yo‘lida xizmat qiladi deb ishonaman. Quvonarlisi, ushbu sonda nafaqat turdosh oliy o‘quv yurtlari, balki qator mamlakatlar olim-tadqiqotchi ham o‘z ilmiy ishlari bilan ishtirok etishmoqda. Kurrayi zaminimizda sodir bo‘layotgan notinchlik davrida mana shu ilm-fan, ziyo maqsadida Osiyo qit’asining millatlari ilmiy ishlarining mana shu yerda to‘planishidan beixtiyor xursandman. Bunday mas’uliyati vazifani o‘z bo‘yniga olgan, millat taqdiriga befarq bo‘lmagan, Institutimiz orqali diyorimizni dunyoga tanitmoqni maqsad qilgan bo‘lajak olim va olimalarimizga, jurnal ta’sischilariga ilm sari tashlagan yana bir qadamingiz qutlug‘ bo‘lsin deymiz!

ЖОЗИБАЛИ ДАРС – ҲАМ ҚАРЗ, ҲАМ ФАРЗ (ЗАМОНАВИЙ ДАРС ЎТИШНИНГ АЙРИМ ТУТУМ ВА УСЛУБЛАРИ ХУСУСИДА)

Б.Х. Данияров
Тошкент иқтисодиёт ва педагогика институти профессори, филология фанлари доктори

https://doi.org/10.5281/zenodo.13767273

АННОТАЦИЯ

XXI асрда ахборот технологиялари шиддат билан ривожланмоқда ва бу, айниқса, таълим-тарбия соҳасида ўзини кўрсатмоқда. Замонавий компьютерлар, ноутбуклар ва смартфонлар таълим сифати ва самарадорлигини оширишда муҳим роль ўйнамоқда. Ушбу мақолада замонавий ахборот технологияларининг таълим-тарбия жараёнига олиб келган ўзгаришлар, шу жумладан, смартфонлар орқали дарс материалларини таъминлашнинг афзалликлари муҳокама қилинган. Смартфонларнинг таълим жараёнидаги аҳамияти, яъни замонавий фанлар ва методика талабларига мос равишда маълумотларни тизимлаштириш ва тақдим этиш имкониятлари таҳлил қилинган. Бундан ташқари, замонавий таълим-тарбиядаги янги фанлар, масалан, "Медиасаводхонлик ва ахборот маданияти" ва "Академик ёзув" каби фанларнинг ўқитиш усулларининг ривожланиш зарурияти ва муаммоларига эътибор қаратилган. Хусусан, янги фанларнинг илмий ёки ўқув-методик адабиётлар билан таъминланиши, жумладан, нофилологик йўналишдаги талабалар учунги қийинчиликлар кўриб чиқилган.

КАЛИТ СЎЗЛАР

Ахборот технологиялари, смартфонлар, таълим-тарбия, замонавий методика, медиасаводхонлик, академик ёзув, компьютер технологиялари, олий таълим, нофилологик фанлар, услубий тарқатма материаллар

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
В XXI веке информационные технологии развиваются стремительно, и это особенно заметно в области образования. Современные компьютеры, ноутбуки и смартфоны играют важную роль в повышении качества и эффективности образования. В данной статье рассматриваются изменения, внесенные современными информационными технологиями в образовательный процесс, включая преимущества предоставления учебных материалов через смартфоны. Анализируется значимость смартфонов в образовательном процессе, а именно их способность организовывать и представлять информацию в соответствии с требованиями современных предметов и методик. Также уделяется внимание необходимости развития и проблемам методов преподавания новых предметов, таких как "Медиаграмотность и информационная культура" и "Академическое письмо". Особое внимание уделяется обеспечению новых предметов научной или учебно-методической литературой, включая трудности, с которыми сталкиваются студенты в нефилологических областях.	*информационные технологии, смартфоны образование и оспитание, современная методика, медийная грамотность, академическое письмо, компьютерные технологии, высшее образование, нефилологические науки, методические распределительные материалы*

ABSTRACT	KEY WORDS
In the 21st century, information technologies are developing rapidly, and this is particularly evident in the field of education. Modern computers, laptops, and smartphones play a crucial role in enhancing the quality and effectiveness of education. This article discusses the changes brought about by modern information technologies in the educational process, including the advantages of providing instructional materials through smartphones. The significance of	*information technologies, smartphones, education and training, modern methodology, media literacy, academic writing, computer technologies, higher education, non-*

smartphones in the educational process is analyzed, focusing on their ability to organize and present information according to the demands of modern subjects and methodologies. Additionally, the article highlights the need for the development and challenges associated with teaching methods for new subjects such as "Media Literacy and Information Culture" and "Academic Writing." Special attention is given to the provision of these new subjects with scientific or educational-methodological literature, including the difficulties faced by students in non-philological fields.

philological sciences, methodological distribution materials.

XXI асрда ахборот технологиялари мислсиз даражада шиддат билан билан ривожланмоқда. Таълим-тарбия соҳасида ахборот технологиялари (IT), хусусан, ушбу технологиялар асосида яратилган, замонавий компьютер, ноутбук, смартфонлар, биринчи навбатда таълим-тарбия сифати ва самарадорлигини ошириш билан билан бирга, таълим-тарбия жараёнининг жозибадорлигини ҳамда вақтдан унумли ва самарали фойдаланишни ҳам таъминлаши лозим. Зеро, гуманитар-ижтимоий ва филологик фанларнинг сифатли ўтилишини таъминлашнинг энг яхши омилларидан бири – бу талаба ёшларнинг таълим ва тарбияси учун дарс ва машғулотларни мароқли тарзда замонавий технологиялар ва анъанавий миллий қадриятларни ўзида қамраб олган комплекс методика асосида оқилона ҳамда мақсадли ташкил этишдир.

Масалан, бундан 25 йил олдин сенсорли смартфон – “ақлли” телефонларни тасаввур ҳам қилмаганмиз. Бугун эса ҳаётимизни бундай телефонларсиз тасаввур қилишимиз қийин. Жамият тараққиёти билан бирга фанлар мазмуни ҳам янгиланиб бормоқда. Янги фанлар, жумладан, “Медиасаводхонлик ва ахборот маданияти”, “Академик ёзув”, “Ўзбек тилини соҳада қўллаш” каби фанлар, ўз навбатида, ахборот технологиялари тараққиёти даврида ўқитишнинг янги, замонавий усул ва услубларини талаб қилади. Айти (IT) технологиялари асосида яратилган замонавий смартфонлар ҳам таълим сифати ва самарадорлигини ошириш билан билан бирга, ўрганилаётган фаннинг жозибадорлигини ҳамда вақтдан унумли ва самарали фойдаланишни ҳам таъминлаши лозим [3: 89].

Масалан, канцелярия жиҳозларидан (А4 форматли қоғоз, дафтар, чизғич, елим ва ҳоказо) фойдаланган ҳолда ўқув режадаги мавзуларга мос равишда услубий тарқатма материалларни тайёрлаш даври аллақачон ўтиб

бўлганлигига қарамасадан, ҳанузга қадар айрим таълим муассасаларида профессор-ўқитувчилардан тарқатма материалларни шундай эски услубда тайёрлаб ташкил қилишни талаб қилишади. Ваҳоланки, эски услубда ўқув-методик тарқатма материалларни тайёрлаш ўқитувчилар вақтининг самарасиз ўтишига олиб келиб, педагогларда норозилик кайфиятини ҳам келиб чиқишига сабаб бўлиши мумкин.

Бундай ҳолатларда, яъни олий таълим муассасаларида барча дарсларнинг, жумладан, “Медиасаводхонлик ва ахборот маданияти”, “Академик ёзув” фанларидан машғулотларнинг сермазмун ва қизиқарли ташкил қилинишида компьютер, ноутбукларнинг, айниқса, бугунги кунда таълим иштирокчиларининг деярли ҳаммасида “ақлли” телефонлар - “ақлтеллар”нинг борлиги инобатга олинадиган бўлса, смартфонларнинг ўрни беқиёс эканлиги, хусусан, бу қурилмалар (смартфонлар) воситасида интернетдан режага киритилган мавзулар бўйича дарс жараёни, семинар, амалий машғулотлар ва мустақил ишлар учун зарур бўлган ҳар қандай материалларни, шу жумладан, ранг-баранг ва турли хил кўринишдаги электрон тарқатма материалларни тайёр ҳолда бир зумда ташкил қилиш, ҳар қандай қизиқтирган маълумотларни топиш, сақлаш, қайта ишлаш (таҳлил қилиш, қиёслаш, янги билимларга эга бўлиш, борини мустаҳкамлаш ва ҳоказо) мумкин [4: 135].

Смартфонларнинг соҳани ўрганиш бўйича имкониятлари жуда кенг ва хилма-хил, масалан, деворлари дид билан яхши таъмирланган, лекин бўм-бўш, яъни ўқув кўрсатма воситалари, жадваллар ва расмлар ва ҳоказолар билан безатилмаган, фақат парта-стол-стуллардан иборат аудиторияда ҳам “ақлли” телефонлар воситасида бу “бўшлиқни”, самарали тўлдириш мумкин: Навоий даврини акс эттирувчи миниатюралар дейсизми, Амир Темур бобомизнинг хиёбондаги забардаст отни эгарлаган улуғвор ҳайкалими, соҳага оид мазвзуларга ранг-баранг иллюстрацияларми, тегишли тестлар, масалалар, энг замонавий компьютерлар, автомобиллар...қўйингки, ҳамма нарсани бир зумда электрон аниқ кўринишда муҳайё қилиш мумкин.

Янги жорий этилган “Медиасаводхонлик ва ахборот маданияти”, “Академик ёзув” фанига оид алоҳида китоб кўринишига эга илмий ёки ўқув-методик адабиётлар, жумладан, монография, дарслик, ўқув қўлланмалар жуда кам. Борлари ҳам барча йўналишлар учун, шу жумладан, нофилологик ва ногуманитар соҳаларни танлаган талаблар учун ҳам тилшунос олимлар томонидангина умумий тарзда ёзилган адабиётлардир (чунки ушбу фанни олий маълумотли филология соҳасида камида магистр даражасидаги зарур

билим, кўникма ва малакаларга эга мутахассислар ўқитиши керакли тегишли ҳужжатлар билан белгилаб қўйилган).

Бу ҳолат эса нофилологик йўналишдаги соҳа ва мутахассисликларни эгаллашни азм қилган талабалар, жумладан, Тошкент иқтисодиёт ва педагогика институтиниг иқтисодиёт ёки компьютер инжиниринг ва ахборот технологиялари йўналишларида таҳсил олаётган талабалари учун ушбу фанларни ўрганиш жараёнида муайян муаммо ва қийинчиликлар туғдириши мумкин.

Масалан, баъзи бир тилшуносликка оид илмий ишларда *термин* (атама) сўзи қуйидагича таърифланган:

“Терминологияга бағишланган ишларнинг барчасида у ёки бу соҳанинг муайян тушунчаларини англатадиган, асосан, номинатив функцияни бажарадиган бирликлар термин ҳисобланади деб қаралади. Ҳозирги вақтда теринология масаласининг ўсиб бориши, бир томондан илм-фан, қишлоқ хўжалиги, иқтисодиётнинг динамик ривожланиши туфайли янги тушунчаларнинг кўпайиб бориши деб қаралса, иккинчи томондан, терминларнинг шаклланиш жараёни ривожланиши ва функцияси каби масалаларни чуқурроқ ўрганилиши зарурлиги билан изоҳланади” [8: 426].

Матн, *нутқ* ва уларнинг турлари каби тушунчалар эса мавжуд адабиётлар ва ўқув-методик мажмуаларда қуйидагича ёритилган:

“Матнлар тарихан шаклланган адабий тилнинг турли кўринишлари бўлиб, улар фикрни ифода этиш жараёнида нутқ тузилишининг ўзига хослиги билан фарқланади. Матнлар тараққиётини адабий жанрлар тараққиётидан ажратган ҳолда қарамаслик керак. Чунки нутқий воситалар таркиби ва уларни қўллаш меъёрлари асар жанри билан алоқадордир. Бадиий матн жанрлар принципи асосида тавсиф қилинади ва улар асарнинг жанр хусусиятига кўра фарқланади” [7: 6].

Тасаввур қилинг-а, ушбу институтнинг, масалан, ахборот технологиялари соҳасини эгалламоқчи бўлган талаба *атама*, *матн* ҳақидаги бу билимларни эшитиб, ёки ўқиб қай аҳволга тушиши мумкин. Зеро, *атама* (термин), *матн* ҳақидаги бундай таърифлар замонавий компьютер технологияларига оид билимларни ёки мактабгача таълим соҳасини эгалламоқчи бўлган талабалар учун эмас, балким тилшунослик соҳасининг етук мутахассиси бўлишни мақсад қилган ёшлар учун мўлжалланган.

Айрим филологларда эътироз пайдо бўлиши мумкин. Она тили ва адабиёти домлалари ахборот технологияларига оид фанлардан махсус билимларга эга эмаслар-ку!

Ана шу ерда “Медиасаводхонлик ва ахборот маданияти”, “Академик ёзув” каби фанларни ўқитаётган домлалар учун ахборот технилогиялари, интернет, шу жумладан, смартфонлар асқотади. Ушбу фанни ўтаётган домла матнларни, ўқув-методик мажмуаларини талабаларнинг эгалламоқчи бўлган соҳа йўналишлари бўйича тайёрлашлари, топшириқларни ҳам шунга монанд талабалар учун тушунарли, содда ва равон, илмий асосланган, лекин оммабоп услубда етказишлари зарур. Жумладан, ушбу мақола муаллифи – камина томонидан ишлаб чиқилган қуйидаги қофияли қоидалар услубида:

Оддий содда ва равон// Тушунарли ва осон.
Мантиқий изчил ихчам// Қизиқарли таъсирчан [5: 15].

Масалан,ўзбек тили ва адабиёти фани домласи нофилологик йўналишда таълим олаётган талабаларга синонимлар тушунчасини қуйидагича тарзда етказишга уринмаслиги керак:

“Тадқиқот натижалари асосида ўзбек тили лексик синонимларини асосий денотатив маъноси бўйича мос, лекин коннотатив маъно компонентлари хусусиятлари ва қўлланиши (функционал имкониятлари)нинг ўзига хослиги билан фарқланадиган синонимлар деб тавсифлаш мақсадга мувофиқ. Синонимлар лексик ва контекст бирикуви ҳамда деривациявий хусусиятлари ва имкониятлари билан ҳам фарқланади” [1: 175].

Зеро, синонимларнинг бундай таърифи иқтисодиёт, педагогика, ахборот технологиялари, мактабгача таълим каби соҳа йўналишларини танлаган ва бу ихтисосликларни замонавий технологиялар асосида ўрганмоқчи бўлган талабалар учун мураккаб бўлиб, улар учун мўлжалланмаган. Лексик синонимларнинг бу илмий таърифи ўзбек тилшунослиги соҳасида қалам тебраётган олимлар, соҳа мутахассислари учун тушунарлидир .

Юқорида санаб ўтилган соҳа ва йўналишларни эгаллаб етук мутахассис бўлишни ният қилган илму толибларга домлалари синонимлар таърифини содда ва тушунарли, улар учун жозибали тарзда етказмоғи лозим, жумладан қуйидагича:

“Синонимлар асосий маъносига кўра бир хил сўзлар, масалан, *юз, бет, чеҳра, афт, турқ, башара* каби. Синонимлар маъно нозикликлари билан фарқланади, масалан, *очиқ чеҳра* деб айтиш мумкин, лекин *очиқ башара* деб айтиб бўлмайди; *ой юзли* зебо, деб айтиш мумкин, лекин *ой турқли* зебо деб айтиб бўлмайди”, ёки “синонимлар маъноси жуда яқин бўлган сўзлар”, ёки яна ҳам соддароқ қилиб “синонимлар – бу маънодош сўзлар”, деб оддий ва лўнда қилиб айта қолишлари мақсадга мувофиқ [2: 131].

Номутахассислик фанларнинг жозибадорлигини таъминлаш мақсадида машғулотларни талабалар танлаган соҳаларга йўналтирган ҳолда оригинал қизиқарли методика асосида олиб бориш мақсадга мувофиқдир, жумладан, “Академик ёзув” фанини ўтишда талабаларга ахборот технологиялари соҳасига оид сўз ва атамаларни ўзбек адабий тилининг оғзаки (сўзлашув) ва ёзма нутқида тўғри, асосли қўллаб, содда ва равон жумлалар, гаплар тузиб, фикр ва ғояларини адабий тил меъёрларига мувофиқ аниқ ифода этишни ўргатишдир.

Талабаларга ушбу фаннинг ўқув дастурига киритилган янги фан эканлигигини, унинг аҳамиятини, мазмун-моҳияти, вазифаларини аниқ ва лўнда қилиб тушунтириш; аввалари “Ўзбек тили” фани ўтилганлиги, унда кўпдан-кўп тилшунослик соҳасига оид атамалар, мураккаб тушунчалар ўрганилганлиги, талабаларга уларнинг кўп вақтини оладиган мажбурий ёзма топшириқлар берилганлиги бу эса бошқа соҳа вакиллари, масалан, иқтисодиёт, ахборот тизимлари ва технологиялари ва шу каби филология соҳасига бевосита алоқаси бўлмаган йўналишларни танлаган талабалар учун муайян қийинчиликлар туғдирганлиги, ҳатто, баъзи ҳолатларда, ўзлари танлаган касбларга оид мутахассислик фанларини чуқур ўрганишга халақит берганлигини инобатга олиб, эндиликда ушбу фаннинг мутахасссислари машғулотларнинг сифати ва жозибадорлигини оширишга янгича ёндашишлари зарур.

Академик ёзув, ўзбек тили (нофилологик гуруҳлар учун) фанлариининг асосий *вазифаси* талабаларнинг нафақат ўзбек тили ҳақидаги билимларини оширишга, балким, биринчи навбатда, уларда ўзбек тилининг кенг имкониятларини соҳада қўллай олиш кўникмаларини шакллантирган ҳолда ўзлари танлаган соҳа йўналишларини чуқур ўрганишга иштиёқ ва рағбат ўйғотиш ҳамдир.

Бунинг учун талабаларга дарс берувчи домла нафақат ўзининг фанини пухта билиши керак, шунингдек у талабаларга, масалан, Тошкент иқтисодиёт ва педагогика институтига ўқишга кирган толиби илмларга ўзбек тилини улар танлаган соҳаларга йўналтирган ҳолда қандай ўқитиш кераклигини ҳам жуда яхши билиши керак.

Яна бир муҳим томони, ўқитувчи аудитория, дарсхонада қайси соҳа вакиллари, кимлар ўтирганлигини, бу илми толиблар таълимнинг қайси шакллини (кундузги, сиртқи, кечки ва ҳ.) танлаганликларини бир дақиқа ҳам унутмай, шундан келиб чиққан ҳолда ўз нутқини уларга тушунарли ва мароқли тарзда ташкил қилиши керак [6: 111]. Бу муҳим хусусиятларни билмаган

домла талабаларининг ўтилаётган фанларга бўлган қизиқиши, иштиёқини сўндириб қўйиши мумкин.

Мавзу бўйича талабаларга мўлжалланган ҳар бир саволни ҳам ўқитувчи пухта ўйлаб, талабларга манзур тарзда – "*мантиқий изчил, ихчам/ қизиқарли таъсирчан*" услубда бериши айни муддаодир. Масалан, қуйидагича:

Принцип сўзининг ўзбекчасини ким айтади? Деярли ҳамма талабалар бир овоздан "*тамойил*", дейишади. "*Нотўғри!*" – деб, домла талабаларга принцип сўзининг ўзбекчаси ҳақида содда ва лўнда, далил ва исботлар билан мароқли тарзда маълумот беради:

Жамият қанчалик ривожланиб борса, унинг тилга онгли равишда муносабати ҳам шунчалик кучайиб боради. Аммо, айтиб ўтиш жоизки, оммавий ахборот воситаларида, ижтимоий тармоқларда айрим ҳолларда сўз ва атамалар ҳар доим ҳам тўғри қўлланмайди. Масалан, *принцип* сўзи ўрнида *тамойил* сўзининг қўлланишини у қадар асосли деб бўлмайди. *Принцип* атамасининг ўзбекчаси *тамойил* эмас. *Тамойил* араб тилидан ўзбек тилига XIY-XY асрларда ўзлашган бўлиб, рус тилидан ўтган асрда ўзлашган *тенденция* сўзининг маъносини англатиб келган.

Ҳатто собиқ совет тузумида чоп этилган "Ўзбекча – русча луғат" (қисқача: ЎРЛ)да тамойил сўзига қуйидагича изоҳ берилган:

"ТАМОЙИЛ ***направление, тенденция***." [ЎРЛ, 417].

Кўринадики, *тамойил* сўзининг луғавий маъноси принцип сўзидан тубдан фарқ қилиб, айнан *тенденция* сўзи англатадиган тушунчага яқин.

Принцип сўзини *тамойил* билан алмаштиришга бўлган "ўжар" ҳаракатлар рус тилидан ўзлашганлиги яққол сезилиб турган *тенденциянинг* ўзбек нутқида яна ғализ, нотабиий тарзда фаол қўлланишига олиб келмоқда, айрим матнларда эса тамойилнинг қайси маънода (*принцип* маъносидами ёки *тенденция*?) қўлланганлиги ноаниқ бўлиб қолмоқда:

"Ли Куан Юни айрим экспертлар " У фақат ўз мамлакатини ўзгартирди", деб айтса, баъзилари "Осиёни", учинчи одамлар эса "Бутун дунёни ўзгартирган", дейди... Бинобарин у яратган ***тенденция*** ноёб ҳодиса, феномен ҳисобланиб, "Сингапур мўжизаси" деб аталади ва башарият ривожига ўзига хос таъсир ўтказган. Умуман олганда, Ли Куан Ю буларнинг барчасини бирлаштирган ҳолда Сингапурнинг ютуғини ушбу *тамойиллар* асосида амалга оширди: уни яшаш ва ишлаш учун энг хавфсиз ҳудудга айлантирди."

Газетадан олинган ушбу матнда *тамойил принцип* маъносини англатаяптими ёки *тенденция* маъносиними ноаниқ бўлиб қолган.

Тамойил принцип маъносини айнан англата олмаслиги сабабли ҳам Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва бошқа амалдаги қонун

ҳужжатларида *принцип* атамаси қолдирилган, *тамойил* билан алмаштирилмаган. Масалан: Ўзбекистон Республикаси давлат ҳокимиятининг тизими – ҳокимиятнинг қонун чиқарувчи, ижро этувчи ва суд ҳокимиятига бўлиниши **принципига** асосланади (11-модда).

Принцип сўзи асосида ясалган бир қатор сўзларни *тамойил* сўзи орқали ифодалаб бўлмайди.

Масалан, принципиал, принципиаллик, принципли, принципсиз сўзлар англаётган маъно ва маъно нозикларини бугунги кунда тамойил сўзи билан ифодалаб бўлмайди. Қиёсланг: *Принципиал рақиб, принципиал масала.*

Гап ўзбек тилида мазкур тушунчани айнан ифодалай оладиган бирлик йўқлигида эмас, тилимизда *принцип* маъносида бемалол қўллаш мумкин бўлган сўзлар бир қатор, масалан тутум, тутруқ (тутуруқ), субут, бурд кабилар. Бу сўзлар принцип ўрнида оммавий ахборот воситаларида тамойил каби кўп қўлланилганда уларнинг ҳар бири тамойил сўзига нисбатан *принцип* атамасининг маъносини қулайроқ ва тўлароқ ифода этган бўлар эди.

Принцип сўзи ўзбек тилига тўлиқ, табиий равишда, ўзбек тили қонун-қоидаларига мувофиқ ўзлашган эмас. Унинг “бегоналиги”га ўзбек тили учун хос бўлмаган, аниқроғи тилимиз учун бутунлай ёт бўлган “ц” – ҳарф(товуш)и ҳам “шама” қилиб турибди. “Ц” ҳарфи собиқ мустабид совет тузумининг руслаштириш сиёсати ўлароқ ўзбек тилига рус-кирил алифбосининг қабул қилдирилиши муносабати билан ўтган асрнинг 1940 йилида киритилган эди.

Соф ўзбекча *тутум* сўзи принцип атамасининг маъносини тўлиқ англата олади, лекин русча *принцип* ҳам, арабча тамойил ҳам *тутум* маъносини жуда кўп ҳолларда ифода эта олмайди. Масалан, қиёсланг:

Эй, дўст!// Ҳар битта оила – жамият ўзи,// Ҳар битта оила – бир давлат ўзи.// Оила ичида не *тутуминг* бор,// Ташда шу аслият – табиат ўзи. (Азим Суюн. Эй, дўст)

Тутумларинг ор-номус, таълим, миллат, субутлар// Кўрмасин сени ожиз миллат қурти – манқуртлар (Бахтиёр Дониёров. Интил халққа тилаб ҳақ)

“Шайбонихон кўп жиҳатлардан Амир Темур *тутумига* ихлос ва риоя билан қарар, жумладан, саройга олим ва шоирларни, санъат аҳлини тўплаб, ижодга тарғиб-ташвиқ этар эди” [9: 17].

Келтирилган мисолларда *тутум* ўрнида *принцип* ёки *тамойил* сўзларини қўллаб бўлмайди. *Тутумни принципга* ёки *тамойилга* алмаштириш ушбу матнлар умумий маъносининг бузилишига, ифода ғализлигига олиб келади.

Бу ҳолат тамойил сўзининг тутум ва принцип сўзларининг маъносини аниқ англата олмаслигини, *принцип* сўзи эса ўзбек тилига тўлиқ

ўзлашмаганлигини, унинг асосан термин сифатида денотатни фақат битта - ўз маъносида, ҳеч қандай маъно нозикликларисиз, услубий бўёқсиз, “қуруқ” ифода эта олишидан далолат бериб турибди.

Тутум атамаси соф ўзбекча (қадим туркий) сўз бўлиб, у арабча *тамойил*, русча-байналминал *принципдан* талаффузи, ёзилишининг қулайлиги, қўлланиш имкониятининг кенглиги билан ажралиб туради. *Принцип* ўрнида ўзбекча *тутум* бўла туриб, *тамойилни* маҳкам қўллаш ўтган асрнинг 90-йилларида район ўрнида қадим ўзбек(туркий) туман сўзи борлигини била туриб, “Атамақўм қарори вожиб!” деб (атамақўм қарори тил қонуниятлари, жумладан, унинг системавийлиги, ривожланиши, сўз ўзлашиши қонун-қоидалари, *тутумларига* зид равишда қабул қилинган бўлсада), *ноҳияга* ёпишиб қолган тилшуносларнинг илмий етарлича асосланмаган субъектив қарашларини эслатади.

Дарсни жозибали ўтиш усулларига кўп мисоллар келтириш мумкин. Яна биттаси билан кифояланамиз:

Минг ёшдан улуғ ёзув маданиятига эга миллатмиз... Унда нега ручка деймиз? Бу савол ўз ечимини тўлиқ топмагунича ўзбек тилшунослиги учун долзарб бўлиб қолаверади. Ушбу соф русча сўз – ручка ўзбек тилига рус тилидан ўзлашганлиги маълум. Рус адабий тилида мазкур сўз (ручка) кўп маъноли бўлиб, жумладан, қўлча, тутқич (масалан, эшик тутқичи), ёзув қуроли тушунчаларини англатади. Ёзув қуролини англатувчи атама сифатида рус адабий тилида ручка XIX асрнинг иккинчи ярмидан қўллана бошланган. Унгача руслар қўлда бармоқлар билан тутиб, сиёҳ воситасида ҳарфлар, сўзлар, фикрларни қоғозга туширадиган ёзув қуролини перо (“пат”) деб атаганлар. Ўзбек тилига рус тилидан ушбу атама мустабид совет тузумининг сиёсати ўлароқ фақат битта - “сиёҳ билан ёзишга мўлжалланган ёзув қуроли номи” - маъносида қабул қилинган.

Ўша даврлар мафкураси ва сиёсатига кўра минг йиллик ёзувига эга бўлган халқимиз онгига саводхонлик, жумладан, ёзув қуроли юртимизга руслар билан кириб келган деган ҳақиқатга зид тушунча сингдириб келинган. Ҳозиргача аксарият ўзбеклар ёзув қуролини русча – “ручка”, деб аташади. Ваҳоланки, Муҳаммад Ал-Хоразмий (IX аср), Маҳмуд Қошғарий, Юсуф Хос Ҳожиб (XI аср), Аҳмад Яссавий (XII аср) Алишер Навоий (1441-1501) даврларидан то XX асрнинг 30 йилларига қадар қадимдан ёзма адабий тилига эга бўлган ота-боболаримиз ёзув қуролини номлашда бир қатор сўзлардан фойдаланиб келишган: битигу(битги), қалам, хома, килк кабилар:

Ҳазрат Навоийнинг назмий асарларида *қалам, хома, килк* сўзлари турфа хил маъноларни англатиб, бетакрор ташбиҳ даражасига кўтарилган:

Ҳажр дудидин қаро бўлған кўнгул ичра ўқунг,

Шарҳи ҳолим ёзғали бўлмиш ***қалам*** бирла **давот.** (Наводир уш-шабоб, 74-ғазал).

Хома *рафторим неча сурсам неча,*

Қирқ-эллик байт ҳар ярим кеча.

Сафҳага ёзмай қарорим йўқ эди,

Бу рақамда ихтиёрим йўқ эди. (Лисон ут-тайр).

Неча ***килки тахайюл*** *бирла бир* ***суврат*** *нигор айлай,*

Анга ошиқ ясаб, кўнглумни амдо беқарор айлай. (Наводир уш-шабоб, 615- ғазал).

Килк сўзи ҳозир умумистеъмолда учрамайди, бироқ замонавий ўзбек адабиётида китобхон кўз олдида тарихий бўёқни аниқ ва образли ифодалаш мақсадида таниқли ўзбек шоири Э.Воҳидовнинг “Алишер Навоий кемаси” шеърида қўлланган:

Улуғвор бастида ўйчан бир шукуҳ,

Килкидан *тўқилган ғазалдек боқий.*

Беш аср сўнгида кема бўлган руҳ,

Беш қитъа оралаб кезар Навоий.

Кўринадики, Алишер Навоий асарларида “ёзув, чизув қуроли” денотатини англатиш учун қалам, килк ва хома сўзларидан юксак маҳорат билан фойдаланилган, қалам сўзидан фарқли ўлароқ, бугунги кунда хома, килк сўзлари умумистеъмолда қўлланилмайди. Ушбу синонимлар, айниқса, қалам XX асрниг 30-йилларига қадар ўзбек тилида ёзув қуролининг номини англатувчи атама сифатида ҳукмрон мавқега эга бўлиб, кенг истеъмолда бўлган, ушбу синоним сўзларни русча ручка сўзига алмаштиришга лисоний ва нутқий ҳеч эҳтиёж бўлмаган.

Бугунги кунда смартфонга эга бўлмаган талабалар йўқлигини инобатга олган ҳолда мустақил иш топшириқлари ҳам талабаларда катта қизиқиш ўйғотадиган тарзда берилса, ижтимоий-гуманитар фанларнинг, шу жумладан, ўзбек тили ва адабиёти фанининг жозибадорлиги талабалар наздида анча ошади, уларнинг ушбу фанга (ўз соҳасига оид фанларга ҳам) бўлган қизиқишлари ортади, билимлари мустаҳкамланади. Чунки танлаган соҳаларини пухта эгаллашни мақсад қилган замонавий ёшлар қўлида *битги* (ручка) билан ёзиш-чизишни, мулойимроқ қилиб айтганда, унчалик хушламайдилар.

Масалан, фаол талабалар томонидан “Ўзбек тилим менинг соҳамда”, “Мен нима учун педагогика соҳасини танладим?”, “Медиасаводхонлик ва ахборот маданияти нима?”, “Ахборот технологиялари соҳасида ахборот

тушунчаси”, “Мен орзу қилган лаптоп (ноутбук)”, “Замонавий технологиялар менинг соҳамда”, “Смартфонларнинг сўнгги авлодлари”, “Мен нима учун мактабгача таълим соҳасини танладим?” “Педагогика соҳасида инновацион техника ва технологияларни қўллаш?”, “Дарсларнинг жозибадорлигини оширишда рақамли технологияларнинг аҳамияти”, мавзуларида смартфонлар ёки ноутбуклар асосида катта иштиёқ билан электрон шаклида тайёрланган *конспект*, *эссе*, *реферат*, *курс ишлари* ва тақдимотлар толиби илмларда зўр қизиқиш ўйғотиб, ушбу фандан кучли таассурот билан олган билимлари хотираларида мустаҳкам ва бир умрга ўрнашиб қолади.

АДАБИЁТЛАР

1. Данияров Б. Х. Ўзбек тили лексик синонимларининг лисоний ва нутқий муносабати, лексикографик тадқиқи. Монография.- Тошкент: “Сано стандарт”, 2019. – 200 б.
2. Данияров Б.Х. Комплексный анализ семантической структуры и функционирования лексических синонимов. Монография / Б. Х. Данияров. – Ташкент: Издательство Bookmany print, 2022. – 156 с. – С. 120-121.
3. Daniyarov B.X. Gumanitar fanlarni o‘qitishda “Aqlli” telefonlardan samarali foydalanishning ilmiy-amaliy ahamiyati//Til va adabiyot.uz/Ilmiy metodik electron jurnal.- 2023, №7, Б. 89.
4. Данияров Б.Х. Академик ёзув дарсларида замонавий смартфонлардан самарали фойдаланиш.- Компьютер лингвистикасининг замоновий технологиялари. Вазирлик миқёсидаги илмий-назарий анжумани илмий мақолалари ва тезислари тўплами (2023-yil 14 апрель). –Т.: ЎзМУ, 2023. – 135- бет.
5. Данияров Б.Х. Методика инновационного обучения говорению на русском языке узбекоязычных студентов технических вузов/ Традиции и новации в профессиональной подготовке и деятельности педагога: сб.науч.тр. IV Междунар. Науч. –практ.конф. / под редакцией И.Д. Лельчицкого. – Тверь: Твер. гос. ун-т, 2022. – Вып. 20. С. 15.
6. Данияров Б.Х. Dars sifati va jozibadorligini oshirishga zamonaviy yondashuvlar UDK 37.02Ilm-fan, ta‟lim-tarbiya, innovatsiya: zamonaviy vazifalari va istiqbollari” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman (2024-yil 3-may)/ O’zR OTFIV,Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti, O’zR FA Yosh olimlar kengashi. –Toshkent: TIPI, 2024. -301 b. Б. 111.
7. Ж.Лапасов. Бадиий матн ва лисоний таҳлил.- Тошкент: “Ўқитувчи”, 1995. - Б. 6.

EKOLOGIK TA’LIM VA TARBIYANING AHAMIYATI

Saparova Gulnaz Kalbayevna
TIPI “Pedagogika” fakulteti professor v.b., ped.f.n.
Baxtiyorova Iroda
TIPI “Pedagogika” fakulteti
Pedagogika yo‘nalishi 22/1-guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.13767725

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ekologik ta’limning dolzarbligi mamlakatimiz tabiati, ekotizimlari, atrof-muhitni borqarorlik va izdan chiqishdan asrash, aholining ekologik madaniyatini oshirish, ushbu o‘ta jiddiy, hayotiy masalalarga aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlar hissa qo‘shishi zarurligining foydali tomonlari keltirilgan.

KALIT SO‘ZLAR

ekologik muammolar, biologik xilma-xillik, iqlim o‘zgarishi, tabiatga munosabat, ekologik xavfsizlik

АННОТАЦИЯ

Сапарова Г. К. В статье на тему “Значение экологического образования и воспитания” актуальность экологического образования заключается в необходимости сохранения природы, экосистем, окружающей среды нашей страны от деградации и деградации, повышения экологической культуры населения, содействия всем слоям населения, особенно молодежи, в решении этих очень серьезных, жизненно важных вопросов - говорится в статье.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

экологические проблемы, биоразнообразие, изменение климата, отношение к природе, экологическая безопасность

ABSTRACT

Saparova G. K. In the article on the topic "The importance of environmental education and upbringing", the relevance of environmental education lies in the need to preserve the nature, ecosystems, and environment of our country from degradation and degradation, to improve the environmental culture of the population, to assist all segments of the population,

KEY WORDS

ecological problems, biodiversity, climate change, attitude towards nature, environmental safety

especially young people, in solving these very serious, vital issues, the article says.

Hozirgi kunda ekologik muammolardan biri biologik xilma-xillikning kamayib ketishi, iqlim o‘zgarish sabablari, atrof-muhitda turli xil ifloslanishlar kuzatilmoqda. “Bularning hammasi – tabiatga”, degan aholining dunyoqarashiga bog‘liqdir. Sababi insonlarning tabiatga va umuman ekologiyaga munosabati, umuman aytganda, bu g‘oyani yosh avlodlar ongiga yoshligidan singdirib borish, ta’lim dasturlariga ekologik ta’lim-tarbiyani kiritish, ya’ni ekologik ta’lim va madaniyatni rivojlantirish asosiy omillar biridir.

Ekologik ta’lim-tarbiya tizimli va uzluksiz jarayon bo‘lib, uning maqsadi nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat. Yoshlarning xulq-atvorini, shu jumladan, atrof-muhitga, tabiatdan oqilona foydalanishga va umuman tabiatga degan munosabatni yaxshilashdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi 434-sonli “O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida da Oliy ta’lim tizimida ekologik ta’limni takomillashtirish va rivojlantirish zarurligiga alohida e’tibor qaratilgan, barcha turdagi Oliy ta’lim muassasalarida ekologik ta’limning majburiyligi qayd etilgan. Ekologik ta’limning asosiy maqsadi aholida biosferaning barcha qatlamlarida atrof-muhitni muhofaza qilish muammolariga ongli munosabatni shakllantirish ko‘zda tutilgan.

Har bir yosh avlod uchun ekologik bilim va ko‘nikmalarni egallash, mas’uliyatni his etish, tabiatni muhofaza qilish va atrof-muhitni sog‘lomlashtirish, ekologik muammolarni hal qilish va atrof-muhitdan oqilona foydalanishda ta’limning roli juda muhim. Ekologik bilimlarni targ‘ib qilishda ommaviy axborot vositalaridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega.

Ekologik ta’limning asosiy maqsadi atrof-muhitning murakkabligi, aholining dunyo mamlakatlari iqtisodiy, siyosiy va ekologik jihatdan o‘zaro bog‘liqligidan xabardor bo‘lishiga yordam berishidan iborat. Bu global ekologik muammolarni, xususan, havoning ifloslanishi, daryo va dengizlarning qurishi bilan bog‘liq muammolarni hal qilishning zaruriy shartidir.

Ekologik ta’limda muayyan muammolarning ekologik, ijtimoiy, madaniy va boshqa jihatlarini o‘z ichiga olgan yaxlit yondashuvni qo‘llashimiz zarur, shuning uchun ham bu fanlararo uyg‘unlikni talab qilishi, ekologik ta’lim talabalarni ekologik muammolarni hal qilishda ishtirok etishga o‘rgatishi lozimdir. Olimlardan T. Raximova ekologik ta’limning maqsadlari, vazifalari va tamoyillari, J. Tursunov,

O. Mavlonov, E. Turdiqulov, N. Bozorova, B Ziyomuxamedovlar “Ekologiya va ma’naviyat”, Ismoilov A, Ahadov R. kabi olimlarimiz ekologik ta’lim-tarbiya va O‘zbekiston Respublikasi umumta’lim maktablarida ekologiya bo‘yicha yoshlarning tabiatga munosabatini yaxshilash omillari va pedagogik kadrlar tayyorlashda ekologik ta’lim masalalari xususida ilmiy izlanish olib borishgan.

Mazkur konsepsiyaga ko‘ra ta’lim tizimida zudlik bilan zarur chora-tadbirlar ko‘rishni taqozo etuvchi bir qator muammolar belgilandi. (Qaysi konsepsiya? Mavzudan og‘ib ketgan)

Xususan, aholining barcha qatlamlarining bevosita ishtiroki, ekotizimni saqlash va atrof-muhit barqarorligini qo‘llab-quvvatlash muammolariga yoshlarning kuch va e’tiborini jalb etish talab qilinadi. Biroq bugungi ta’lim tizimi, shuningdek, ekologiya bo‘yicha o‘quv dasturlari zamonaviy talablarga javob bermaydi. Malaka oshirish, ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish, ular asosida ekologik madaniyatni shakllantirishning aniq parametrlarini ishlab chiqish zarur.

Ta’lim muassasalarida ekologiya muammolarini tushuntirishning bugungi holati qoniqarsiz darajada bo‘lib, alohida e’tibor talab etadi.

Umuman olganda, aholining tabiatdan foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish mas’uliyati va ekologik faoliyatga qiziqishini shakllantirish ham faol marketing strategiyasini va agressiv reklamani talab qiladi. Ijtimoiy roliklarni namoyish qiluvchi shahar bilbordlari va reklama vositalaridan foydalanish, mahsulotlar uchun ekologik sumkalarni ishlatish madaniyatini joriy etish, ekologik toza tovarlar va xizmatlar uchun trend va moda yaratish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi yoshlar ijtimoiy tarmoqlardagi trendlar ta’siriga juda moyil. Internet resurslaridan ommaviy axborot vositasi sifatida foydalanish zarur, ular orqali ekologik muammolar yoritiladi va internetdan foydalanuvchilarning ongiga yetkaziladi Ekologik bilimdon avlodni tarbiyalash, o‘z navbatida, ekologik madaniyatning tendensiyalari va modasini yaratadi, ishlab chiqaruvchilarni ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishga undaydi.

Insoniyat atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatadi. Bu ta’sir texnologik taraqqiyot, aholi soni va ishlab chiqarish ko‘payishi bilan muntazam ravishda kuchayib boradi. Tabiiy resurslardan o‘ylamasdan foydalanish, ularni muhofaza qilish va tiklash choralarining yetishmasligi, atrof-muhitning kuchli ifloslanishi halokatli iqlim o‘zgarishiga olib keladi. Oqibatda atrof-muhit o‘zgarib, hayvonlar va o‘simliklarning ko‘p turlarining yashash sharoiti buzilyapti, kasalliklar ko‘paymoqda, umuman olganda, odamlarning turmushi va salomatligi yomonlashyapti. Shu munosabat bilan ekologik xavfsizlikni ta’minlash insoniyat uchun nihoyatda muhim vazifa ekanligini anglab yetish zarur.

Ushbu muammoni hal qilish uchun insonlarning tabiatga munosabatini o‘zgartirish, ekologik ongi va mas’uliyatini yoshligidan shakllantirish kerak. Ona yurtning, sayyoramizning ertasini o‘ylamaslik, ekologik muammolarni yuzaki tushunish ekologik bilimlarning pastligi yoki ularning butkul yo‘qligi bilan bog‘liq. Shu munosabat bilan tabiat va insonni birgalikda rivojlantirishga asoslangan yangicha tafakkur va mafkurani shakllantirishni chuqur ekologik ta’lim va tarbiyasiz amalga oshirib bo‘lmaydi.

Xulosa qilib aytganimizda, ekologik ta’limning dolzarbligi mamlakatimiz tabiati, ekotizimlari, atrof-muhitni beqarorlik va izdan chiqishdan asrash, aholining ekologik madaniyatini oshirish, ushbu o‘ta jiddiy, hayotiy masalalarga aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlar hissa qo‘shishi zarurligi bilan belgilanadi. Biroq ekologik ta’limni amalga oshirish jarayonining tizimli tahlili ekologik ta’limni tashkil etishda bu boradagi islohotlarni to‘liq ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qiluvchi jiddiy muammo va kamchiliklar saqlanib qolayotganligini ko‘rsatmoqda (O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta’limni rivojlantirish Konsepsiyasi, 2019).

Yoshlarga ekologik ta’lim va tarbiya berishda, birinchi navbatda, xalqimizning tarixan tarkib topgan ekologik-madaniy merosini o‘rganish zarur hamda uning asosida jamiyat hayotidagi hozirgi o‘zgarishlarni hisobga olgan holda atrof-muhitni muhofaza qilish va resurslarning barcha turlaridan oqilona foydalanish qoidasining qat’iy tizimini yaratish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi 434-sonli qarori. “O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta’limni rivojlantirish Konsepsiyasi” T.: 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. T.:”Sharq”, 1997.
3. O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. T.: “Sharq”, 1997.
4. Ziyomuxamedov B. “Ekologiya va ma’naviyat”. T.: 1997.
5. Ismoilov A., Ahadov R. Ekologik ta’lim-tarbiya. T.: 1997.

QUALITY AND SKILL-BASED ASSESSMENT IN HIGHER EDUCATION

Iskandarova Gulnara Gurban
Azerbaijan University of Languages

https://doi.org/10.5281/zenodo.13767839

ABSTRACT

One of the most important components of instructional programs is evaluation, which indicates an actual dedication to the execution and involvement of the educational system. As an educational assessment tool, we must keep in mind that various assessments are appropriate for different learning requirements and student capacities. No evaluation is without restrictions, and its advantages include validity, reliability, and objectivity. It is the result of the pupils' performance and accomplishments. Students' work performance varies according on their excitement, motivation, competence, and ability. The selection of assessment is critical for increasing the desire of learners to finish the task and for teachers to decide if it previously represented their goals or not. Instructors must be creative, attractive, and creative in managing student assessments. Educators must be creative, engaging, and inventive in managing assessment tasks so that students are excited and interested in undertaking all sorts of exams, including traditional ones. Whatever form of evaluation is used, the purpose of implementation is to deliver direct benefit to students. All kinds of assessments, including projects, portfolios, and others, serve to fulfill the fundamental objective of evaluating and triggering student achievement and making visible progress.

KEY WORDS

assessment, development, progress, achievement, instruction, competence, acquire

"The ability to understand the different purposes and types of assessment in order to select the most appropriate type of assessment is to meet a specific purpose".

Larry Ainsworth

Introduction

Since assessment is a vital component of the educational process, it has a long history. According to research, the first assessment was used in China. The evaluation was known as the "Chinese Imperial Examinations" when it first took place in this country in 587. It was essential to pass an exam in order to work here as a state servant. These oral and then written examinations were held in China until 1905. They pondered about ways to test pupils' knowledge and experimented with various approaches since the early days of education in Europe. Exams were previously administered orally.

Students responded to the questions in Latin, and the teacher graded them. The first written exams were given at Cambridge University in 1792.

The evaluation history is divided into many stages by pedagogical researchers. Prior to the First World War, students' knowledge was tested by exams, with a focus on understanding the substance of the disciplines.

As the growth tendencies in the area of education increased in the early twentieth century, new concepts surrounding the assessment of student achievements emerged. The "idea of progressive education" was born in the United States during this time period and eventually expanded to other nations.

The essence of the "idea of progressive education" was that education was aimed at developing life skills that corresponded to the directions of growth of industry and technology rather than scientific knowledge. Such fresh perspectives on educational material gradually altered the method to evaluation. Assessment was now more focused on applying knowledge and relating it to real-world scenarios.

However, by the 1950s and 1960s of the twentieth century, this concept had lost its importance.

Since the dawn of the space era, the educational requirements of the major countries have shifted, and approaches to student evaluation have begun to evolve in a new direction. For example, the United States was concerned by the Soviet Union's advances in science (conquest of space, etc.) and focused on the teaching of exact sciences and their more effective assessment. In the following decades, stronger evaluation standards were established in conformity with the nature of education. As a result, students were required to answer various levels of questions within a certain time constraint in order to exhibit their problem-solving abilities. These sorts of questions can be used to assess a student's specific knowledge and abilities, as well as their mastery. Later, specialists began to consider specific programs that would allow these comparisons across schools, regions, and states by removing them from the classroom level. This demonstrates that testing and enhancing assessment processes continue to be ongoing and permanent.

Main Part

Assessment is an inevitable and crucial part of teaching and learning, generally education system, therefore it defines whether or not education goals are met and it is the way to measure learners' success. It has effects on decisions about grades, placement, needs, curriculum, and, in some cases, it shapes the future. During the process of gathering the data for effective planning, evidence and instruction some words like measurement, assessment and evaluation are irreplaceable simultaneously are used interchangeable while having crucially different meanings.

Measurement does not have any other meaning as it applies in education and it simply means defining, determining the characteristics, attributes and dimensions of the focused skill, field of science, knowledge or any other object. Consequently, measurement of knowledge can give reliable results when used properly, precisely for collecting data. They might be standard scores or percentages.

Assessment can be accepted one of the basic and significant measurement tools in education. Educators collect data by conducting interviews, surveys, monitoring and observing behavior and at the same time by giving tests and questionnaires. It should be reliable and valid to be used in measuring the learner's knowledge. In evaluation creating or making valid and reliable assessments, tests or exams is critical to precisely measuring educational data. Evaluating the data collected however, is equally significant to the affordable use of the information for instruction. In education, evaluation is the process of using the information gathered in the assessments. Teachers use this information to judge the relationship between what was intended by the instruction and what was learned. It is crucial to evaluate the information gathered to define what learners know and understand, how far they have progressed and how fast, and how their scores and progress compare to those of other students. Therefore, assessments should be chosen attentively and precisely which make them quality assessments.

Quality assessment assists to determine the student success and make a map of learning journey which leads to achievements and get outstanding results. It focuses on the targeted areas of subjects with complete precision. Assessment in education in order to be a quality assessment should have several criteria and characteristics such as:

- Content validity: The exam should be accurately and highly organized and ready to measure and assess learning.
- Reliability: the test should be referenced.
- Generating interest by the student: The reason why assessments should be objective in nature is gaining the student's interest. Subjectively long tests in

nature do not even gain the learner's attention, therefore it is waste of time and boring to be done. Due to the fact that they should be explicit, creative, attention-grabbing which does not give any sense of boredom to the candidates.

- Consequential relevance: Conducting an exam, test or assessment requires much time, dedication, and plenty of resources; nobody would want that much of complicated and hard work to go in vain and the result of the assessment should be so exact so that it can be used as a tool or as an evidence to compare, measure and analyze the data for next reference of the student's performance.

The idea that evaluations must be carried out in a limited setting and require paper-based testing has existed for decades in our society. However, on the path of advancement technology has advanced to the point that it is currently influencing every industry, including education. The idea that education is obsolete can be dispelled with the use of modern online evaluation technologies.

Now, let's delve deeply into how online evaluations are categorized:

- Regardless of the location or time, you can give the test to a lot of people.

An internet-based test is not restricted by logistics or infrastructure. Depending on the amount of time available, you may carry out it on as many applicants as you like, who are going to be attending from their own locations.

- Using unpredictability in both the questions and the answers is the best approach to prevent cheating.

The characteristic of randomizing is mainly found throughout the online quiz creator program. This function creates a unique quiz for each candidate by selecting questions at unique and organizing their specific answers in an order determined by chance. This assures cheat protection.

- No requirement for an assessor.

Although tests taken online are virtual in nature, they are carried out through technology and don't need to be supervised.

- Instant utilization of records

Throughout the testing of the applicants, the system records the data in an organized manner that is readily available for later use. There is no shortage of online quiz creator software accessible in the digital education industry.

Quality evaluation techniques are widely accessible due to the significant advancements in the field of education. Whichever option you choose now will depend on your needs and preferences. It is now your turn to take advantage of the plethora of assessment options available in the educational online market, which can meet everyone's needs.

It is a good idea to use the Bloom's Taxonomy system to create assessments in the classroom that help students improve their critical thinking abilities.

Benjamin Bloom led a team of educational psychologists who discovered in 1956 that over 95% of test questions only asked students to recall facts. In response, Bloom created a classification system for critical thinking behaviors in education. These six stages begin with fact recall and progress to evaluation via progressively more intricate and abstract levels. A fresh group of cognitive psychologists led by former Bloom student Lorin Anderson revised the taxonomy in the 1990s to reflect 21st century work.

A well-crafted question will flow between all levels. These are what really bloom skill-based education:

Recalling: The ability to retrieve or retain knowledge

Understanding: To elucidate notions or principles

Applying: Making new use of previously acquired information, a guideline, or a **technique**

Analyzing: Dividing data into constituent parts in order to investigate connections and understandings

Assessing: Determining the worth of information or concepts in order to support a stance, viewpoint, or choice.

Creating: To combine concepts in novel ways to produce a new good or viewpoint.

All online or in-person assessments adhere to the concepts of Bloom's taxonomy.

Bloom's Taxonomy	Methods of online assessment
Knowledge	Multiple-choice, true/false, gap filling and games
Perception	Simulations and animations
Application	Case method, essay, and short responses
Analyze, synthesize, and evaluate	Essays, projects, presentations, portfolios, virtual labs, and so on.

The following areas, according to K. Morgan and O. Reilly, can be examined online.

1. Critical thinking skills (essay, review)
2. Problem resolution (through video conferencing)
3. Creativity (video project, portfolio)
4. Interaction (discussion, role-playing games)
5. Collaboration and group work (email, listserv, debate, conference discussions)

6. Knowledge demonstration (multiple choice task, true/false work, short answer exam, matching task)

7. Self-administration (journal, biography, portfolio, and so forth) (K.F. Hew, Sh. Liu, 2004).

There is an association between instruction and assessment. Building a quality assessment framework requires starting with a foundation that emphasizes the process of education and gives students plenty of chances to show what they have learned (2). A well-designed performance-based task that requires learners to exhibit academic capabilities along with studying in a variety of ways is essential to effective assessment. Performance levels are then determined by using performance scales or rubrics that highlight significant accomplishment components and various achievement levels.

According to some researchers the primary objectives of successful educational assessments are to give students constructive criticism, encourage discussion about their work, and allow them to complete the task without constantly worrying about their mark. Furthermore, they can:

■ Offer immediate feedback, enabling customization and modification.

■ Foster a relationship with students by communicating with them and showing them that their teachers genuinely worry about their education.

■ Enhance learning and performance by involving learners and allowing them to assume ownership of their education.

The most effective tool available to teachers for delving deeper into their students' knowledge, needs, and progress toward mastering the necessary content and skills is an excellent in quality classroom assessment.

Furthermore, the assessment as empowerment and learning approach views evaluation assignments as the centerpiece of an entire range of variables that define the broader assessment process. Since the this will largely determine the self-regulation of learners and therefore, their integration of learning beyond initial tasks, decisions will be made regarding significant elements including learner involvement with the process of assessment or how the data obtained from the assessment the procedure will be used when designing assessment tasks.

The process of quality assessment entails gathering data to support assessments of the caliber of learning attained by students. Assessments of students' work are based on data gathered over time from a variety and variety of tasks to guarantee they are justifiable and comparable.

It ought to demonstrate that pupils' present comprehension serves as a good foundation for their future education.

Skill-based evaluation ought to be a continuous procedure with progress tracking over time. It ought to be diverse in nature, offer multiple opportunities for pupils to exhibit the depth and scope of their knowledge, cover various topics and balance, guided by content descriptions and modes of assessment (such as multimodal presentations, written, spoken, and signed).

Strategies for assessment suitable for the assessment conditions (e.g., supervised, open) along with the educational area.

The study discovered that while evaluating the effectiveness and productivity of individual educational and professional growth providers is the primary goal of assessment, a more comprehensive evaluation of the institution in its entirety is as important. Developing an organization for learning of some kind that is in charge of more than just evaluating current providers is an established pattern in all the processes that this research looked at. These groups facilitate stakeholder contact and provide a direct connection between the system's core goals and professional development for education. This connection is referred to by corporate learning organizations as "becoming a strategic partner" within the company. This kind of organization acts as a conduit between suppliers and consumers, gathers data about workforce requirements and ongoing initiatives, and promotes communication among significant individuals.

We use the term evaluation to mean to the multistep process of assessing the productivity and quality of educational and professional growth activities, after the thorough study of the research on higher education assessment in Palomba and Banta (1 999).

The phase in the assessment procedure where productivity and quality metrics are compared to a performance standard is called an evaluation. Furthermore, according to Epstein (1992), productivity refers to the quantity and caliber of services produced with a specific set of resources. It is equivalent to efficiency in this sense. The productivity of the education provider has increased if it can deliver the same amount of services in a better quality or quantity. Efficacy and quality are interchangeable terms. There is no universally accepted definition of quality; instead, it varies depending on the individual. The definition of quality usually becomes clear throughout the procedure of determining the assessment's objectives. The performance standards set by various stakeholders, such as employers, parents, accreditors, and students, including the state, influence the performance or quality of an educational system (McGuinness, 1997).

Regardless of the method used to evaluate providers, our analysis of the research and case studies revealed that there are essentially three steps involved,

each with crucial prerequisites (for a thorough description of the evaluation procedure in higher education, refer to Palomba and Banta, 1933):

- ♦ Determine the objectives of professional or educational growth.
- ♦ Evaluate the performance: Determine and put into practice performance metrics.
- ♦ Assess the degree to which the professional development and education objectives are met by the performance indicators.

Result and Conclusion

In evaluations, the initial step-identifying goals-is frequently disregarded.

Assessors risk committing to evaluating outcomes that are not directly related to the aims of the educational system when they jump straight into the second process, which is creating performance measures, without first identifying goals. They could create superfluous measurements or ignore measures that represent the main goals of the system. Time will be lost in the first place gathering and examining pointless data. In the second case, people won't be aware of if the system is accomplishing significant goals.

Four parameters are included in this framework to ensure the level of teaching performance:

• establishes and adheres to procedures for hiring employees and establishing terms of employment that are equitable, transparent, and understand the value of teaching;

• provides chances for and encourages teaching staff members' professional growth;

• promotes academic endeavors to fortify the connection between research and teaching;

• promotes the use of cutting-edge technology and innovative teaching strategies (Palomba and Banta, 1999).

Elken and Stensaker (2018) offer another viewpoint on improving quality; they include the idea of quality work, which adopts a focused-on-practice approach and focuses on the various actors, formal and informal processes, and ongoing shaping of daily practice to improve quality in higher education (Elken & Stensaker, 2018).

The assessment approach should, to the greatest degree feasible, maximize domain coverage for general, higher-order abilities, particularly with regard to valued skills. The evaluation should, in particular, have a "high ceiling" to prevent unnecessarily restricting measurable advances that exceed expectations. Similarly,

disciplines with a widely accepted body of information and an attainable agreement regarding competence should be prioritized when it comes to discipline-specific abilities. It will be necessary to use a variety of item types in both scenarios, including open-ended and constructed-response item variations. Keep in mind that the ability of expert systems to automatically assess certain answer forms has an impact on the validity/feasibility trade-off (Elken & Stensaker, 2018).

REFERENCES

1. Assessment In ODL (Handouts). (n.d.). https://wikieducator.org/images/3/36/Handouts_for_Assessment_in_ODL.pdf
2. Add comments and feedback to books | Book Creator Help Center. (n.d.). Intercom.help. Retrieved July 30, 2023
3. Elken, M. & Stensaker, B., 2018, 'Conceptualising 'quality work' in higher education', Quality in Higher Education, 24(3), pp. 189-202.
4. Epstein, I. (1992). Measuring the performance of public services. In M. Holzer (Ed.), Public productivity handbook. New York: Marcel Dekker.
5. https://elearningindustry.com/quality-assessment-in-the-education-system-significance
6. https://intercom.help/bookcreator/en/articles/6459601-add-comments-and-feedback-to-books
7. K.F. Hew, Sh. Liu, R. Martinez, C. Bonk, Ji. Y. Lee. "Online Education Evaluation: What Should We Evaluate?", 2004
8. Liu, O. L. (2008). Measuring learning outcomes in higher education using the Measure of Academic Proficiency and Progress (MAPP™) (ETS Research Report Series RR-08-047). Princeton, NJ: Educational Testing Service.
9. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2008). Measuring improvements in learning outcomes: Best practices to assess the value-added of schools. Paris: OECD.
10. https://online.stu.edu/degrees/education/ms-ed-leadership/educational-measurement-assessment-evaluation/
11. Palomba, C. A., and Banta, T. W. (1999). Assessment essentials: Planning, implementing, and improving assessment in higher education. San Francisco: Jossey-Bass.
12. M.Merdanov "Qiymetlendirme" Azerbaijan Ministry of Science and Education.
13. M. Həsənov, N. Cəfərova, C. Bəhmənova. İbtidai sinif müəllimləri üçün kurikulumun məzmunu və həyata keçirilməsi yolları (metodik vəsait), Bakı-2014.

14. McGuinness, A. C., J. (1 997). The finctions and evaluations of state coordination and governance in postsecondary education. Denver: National Center for Postsecondary Management Systems.

SUZISH BILAN SHUG‘ULLANUVCHI 5-7 YOSHDAGI BOLALARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH VOSITASIDA SINXRON SUZISH MASHQLARI

Urazimbetova Mardjina
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali o‘qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.13767885

ANNOTATSIYA

Maqolada suzish mashg‘ulotlarida sinxron suzish mashqlarining ayrim elementlaridan foydalanib, maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish yoritilgan.

KALIT SO‘ZLAR

sinxron suzish, mashg‘ulot, jismoniy sifat, jismoniy fazilat, sinxron suzish mashqlarining ayrim elementlari

АННОТАЦИЯ

В статье описано развитие физических качеств у детей дошкольного возраста с использованием некоторых элементов из упражнений синхронного плавания на занятиях по плаванию.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

синхронное плавание, тренировочный процесс, физические особенности, физические качества, некоторых элементы из упражнений синхронного плавания

ABSTRACT

The article describes the development of physical qualities in preschool children using some elements from synchronized swimming exercises in swimming lessons

KEY WORDS

synchronized swimming, training process, physical qualities, some elements of synchronized swimming exercises.

Kirish. Bolada maktabgacha yosh bu ularning salomatligi, jismoniy rivojlanishi va harakat madaniyatining poydevori qo‘yilgan davr hisoblanadi. Jismoniy sifatlar tezkorlik, epchillik (chaqqonlik), kuch, chidamkorlik, egiluvchanlik hisoblanadi. Har qanday mashqni bajarishda barcha jismoniy sifatlar u yoki bu darajada namoyon bo‘ladi. Jismoniy sifatlarni rivojlantirish jismoniy tarbiyaning muhim jihati hisoblanadi, ya’ni aniq faoliyatlarda ko‘rinadi: yurish, yugurish, sakrash, sport o‘yinlari va suzish.

5-7 yoshda suzish darslari bolaning chaqqonlik, chidamkorlik hamda jismoniy fazilatlarni rivojlantirishga alohida hissa qo‘shadi. Suv sport turlariga kiruvchi sinxron suzish ham kuch, nafosat uyg‘unligi, insonning jismoniy va estetik madaniyatini oshirish imkoniyatlarini ko‘rsatib beradi.

Dolzarblik. Maktabgacha yoshdagi bolaning to‘liq jismoniy rivojlanishi bu, birinchi navbatda, harakat qobiliyatlarini o‘z vaqtida shakllantirish, bolada mavjud bo‘lgan turli xil harakatlarga qiziqishni rivojlantirish, ijobiy, axloqiy va irodaviy xususiyatlarni tarbiyalashdir. Aynan shu yoshdagi bolalarni jismonan tarbiyalash jarayonida, ya’ni vosita ko‘nikmalari va qobiliyatlarini shakllantirish, harakat va jismoniy fazilatlarni rivojlantirish, to‘g‘ri gavda, gigiyena ko‘nikmalarini shakllantirish va maxsus bilimlarni rivojlantirish muammolarini yechish lozim bo‘ladi.

Tadqiqot maqsadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning suzish mashg‘ulotlarida jismoniy sifat va jismoniy fazilatlarini rivojlantirish.

Tadqiqot vazifasi. Suzish mashg‘ulotlarida sinxron suzish mashqlarining ayrim elementlarini qo‘llash.

Tadqiqotni tashkil etish, natijalar va ularni tahlil qilish. Tadqiqotda 16 ta maktabgacha yoshdagi 6 yoshlik bolalar qatnashdi. Sportchilar teng ikki guruhga (tajriba va nazorat) bo‘linib, har bir guruh 8 ta qatnashchidan iborat bo‘ldi. Nazorat va tajriba guruhlari haftasiga 3 marta (akademik soat – 45 daqiqa) suvda mashg‘ulot qilishgan. Suzish sport turining hozirgi zamonaviy bosqichidagi rivojlanishi dolzarb masalalardan biri bo‘lib, bu suzuvchilarni chidamliligini takomillashtirish uslubiyatiga bo‘lgan diqqat e’tiborni yanada oshganligini ko‘rsatadi. Unga bo‘lgan juda katta qiziqish shundan iboratki, hattoki uzoq masofalarga ixtisoslangan suzuvchilarda ham yuqori natijalarga erishishda chidamlilik qobiliyatlarini namoyon etish sezilarli ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, muskul ishi faoliyatida jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish davomida charchoqqa qarshilik ko‘rsatish darajasi chidamlilik sifati deb ataladi. Jismoniy mehnat (sport faoliyati) bajarayotgan kishi sekin-asta o‘z faoliyatni davom ettirishi qiyinlashayotganligini sezadi. Ter quyilib oqa boshlaydi, yuzida qizillik kuchayadi, rangi o‘zgaradi, muskullarida horg‘inlik sezadi, harakat koordinatsiyasi, harakat

texnikasi tarkibidagi elementlarning bajarish ketma-ketligi buziladi, nafas olish ritmi chuqurligi o‘zgaradi. Bajarayotgan harakati tarkibida qo‘shimcha keraksiz harakatlar paydo bo‘ladi, qo‘shilib qoladi. Bunga asosan, organizmda kechayotgan fiziologik, biokimyoviy va biomexanik o‘zgarishlar sabab bo‘ladi. Faoliyatni davom ettirish esa ruhiy, irodaviy va boshqa sifatlar evaziga bajariladi. Suzish sport turida deyarli barcha muskullar harakat faoliyatida ishtirok etadi. Shuning uchun charchoq ayrim muskullar guruhida hamda organizmning barcha muskullarida bo‘lishi chidamlilikning maxsus va umumiyligini keltirib chiqaradi va shakl jihatdan bir xil bo‘lgan mashqlarni turli intensivlikda bajarish imkonini yaratadi. Bunda chidamlilik ham turlicha namoyon bo‘ladi. Shuning uchun jismoniy mashqlarni bajarishda organizmning charchoqqa nisbatan talabi turlicha bo‘ladi. Chidamlilikni tarbiyalashda yuklamaning kriteriyasi va komponentlari muhim ahamiyat kasb etadi. Chidamlilik mashg‘ulotlar davomida sportchini biroz bo‘lsa-da charchashni his qilishi orqali rivojlanishiga e’tibor bersak, yuklamadan so‘ng tiklanish juda oz vaqt ichida sodir bo‘lsa, chidamlilik rivojlanmasligi ma’lum bo‘ladi. Ish hajmi katta bo‘lib charchoq his qilish bilan bajarilsa, organizm yuklamaga moslasha boshlaydi va qator mashg‘ulotlardan so‘ng chidamlilikning ortib borayotganligi ko‘zga tashlanadi. Tadqiqotdan oldin qabul qilingan test natijalari 1-jadvalda qayd etilgan.

Suzish bilan shug‘ullanuvchi maktabgacha yoshdagilarning tadqiqotdan oldingi test natijalari

1-jadval

№	Test nomi	1 ball		2 ball		3 ball	
		NG	TG	NG	TG	NG	TG
1	Suv tubida nafas ushlab turish (bola soni)	7	***7***	1	-	-	***1***
2	Po‘kakchadan yulduzcha bo‘lib ochilish (bola soni)	7	***6***	1	***1***	-	***1***
3	Chalqancha holatda tekis yotish, qo‘l va oyoqlar harakatlanmaydi (bola soni)	6	***5***	1	***2***	1	***1***
4	Ko‘krakda krol usulida suzganda oldinga umbaloq oshish (bola soni)	6	***6***	2	***1***	-	***1***
5	Suvda guruh bo‘lib, musiqa bilan “aylana” harakatini bajarish (bola soni)	8	***8***	-	-	-	-

Tadqiqotdan oldin qabul qilingan testda ko‘rinib turganidek, bolalar murabbiy yordamisiz topshiriqlarni bajarishmagan. Bundan dalolat beradiki, bolalarda jismoniy sifatlar, ya’ni chidamkorlik, chaqqonlik va ayrim jismoniy fazilatlar to‘liq rivojlanmagan.

Ikki guruhda ham 45 daqiqa davomida suzish topshiriqlarini bir xil qo‘llagan holda mashqlardan foydalandi. Nazorat guruhi namunaviy dastur

bo‘yicha tajriba guruhi taklif qilgan sinxron suzish mashqlar to‘plamini joriy etish bilan mashg‘ulotlar olib bordi. Aynan tajriba guruhida egiluvchanlik, chaqqonlik jismoniy sifatlarini hamda merganlik jismoniy fazilatlarini rivojlantirish uchun 15-20 daqiqa sinxron suzishda qo‘llaniluvchi mashqlardan foydalanildi. Sinxron suzish sportining mashg‘ulotlari maktabgacha yoshdagi bolalar uchun juda murakkabdir, shuning uchun faqat uning ayrim elementlaridan foydalanildi:

Egiluvchanlikni rivojlantirish uchun:

- quruqlikda to‘liq o‘tirgan holda oldinga bukilish;
- quruqlikda gimnastik zinaning yonida tizzadan ko‘prik holatiga egilish;
- suvda chalqancha holatda, oyoq uchini basseyn chetiga qo‘yib, suv tubiga, orqaga egilish;
- suvda po‘kakcha holatini bajarish.

Chaqqonlik (epchillik)ni rivojlanitrish uchun:

- quruqlikda yurish, yugurish, sakrash;
- quruqlikda saf mashqlari;
- suvda musiqa ritmida o‘tirib-turishlar;
- suvda ketma-ket basseyn chetidan itarilib ko‘krakda sirg‘alish.

Tadqiqot natijalari. Maktabgacha yoshdagi bolalarning suzish mashg‘ulotlarida jismoniy sifatlarni rivojlantirish maqsadida qo‘llanilgan sinxron suzish mashqlarining ayrim elementlaridan foydalanilgandan so‘ng qabul qilingan test natijalari 2-jadvalda qayd etilgan.

Suzish bilan shug‘ullanuvchi maktabgacha yoshdagilarning tadqiqotdan so‘ng test natijalari

2-jadval

№	Test nomi	1 ball		2 ball		3 ball	
		NG	TG	NG	TG	NG	TG
1	Suv tubida nafas ushlab turish (bola soni)	4	***1***	3	***1***	1	***6***
2	Po‘kakchadan yulduzcha bo‘lib ochilish (bola soni)	4	***1***	3	***1***	1	***6***
3	Chalqancha holatda tekis yotish, qo‘l va oyoqlar harakatlanmaydi (bola soni)	5	***1***	2	***1***	1	***6***
4	Ko‘krakda krol usulida suzganda oldinga umbaloq oshish (bola soni)	5	***2***	3	***1***	-	***5***
5	Suvda guruh bo‘lib, musiqa bilan “aylana” harakatini bajarish (bola soni)	6	***3***	2	***1***	-	***4***

Shu o‘rinda, tajriba guruhida ijobiy natijalar qayd etildi, ya’ni suv tubida nafas ushlab turish, yulduzcha bo‘lib ochilish, chalqancha holatda tekis yotish testlarini murabbiy yordamisiz bajargan bolalar soni oshdi.

Nazorat va tajriba guruhlarni taqqoslash natijalari 3-jadvalda keltirilgan. Nazorat guruhida tadqiqotdan so‘ng olingan test natijalarida ham o‘zgarish kuzatildi. Lekin murabbiy yordamisiz testlarni bajargan bolalar soni ko‘krakda krol usulida suzganda oldinga umbaloq oshish testini bajargan bola soni umuman bo‘lmadi. Suvda “aylana” harakatini murabbiy yordamisiz bajargan bola soni ham o‘zgarmadi.

Tadqiqotdan oldin va tadqiqotdan so‘ng kuzatilgan o‘zgarishlarning nazorat va tajriba guruhining taqsimoti 3-jadvalda qayd etilgan.

Tajriba va nazorat guruhlarini taqqoslash natijalari

3-jadval

Test №	**Nazorat guruhi**						**Tajriba guruhi**					
	Tadqiqotdan oldin			Tadqiqotdan keyin			Tadqiqotdan oldin			Tadqiqotdan keyin		
	1 ball	2 ball	3 ball	1 ball	2 ball	3 ball	1 ball	2 ball	3 ball	1 ball	2 ball	3 ball
1	7	1	-	4	3	1	*7*	-	*1*	*1*	*1*	*6*
2	7	1	-	4	3	1	*6*	*1*	*1*	*1*	*1*	*6*
3	6	1	1	5	2	1	*5*	*2*	*1*	*1*	*1*	*6*
4	6	2	-	5	3	-	*6*	*1*	*1*	*2*	*1*	*5*
5	8	-	-	6	2	-	*8*	-	-	*3*	*1*	*4*

Shunday qilib, nazorat va tajriba guruhlarining taqqoslash natijalariga qaraganda, aynan tajriba guruhida test nazoratlarini murabbiy yordamisiz bajargan bolalar soni ancha kattaga o‘zgargani kuzatildi.

Xulosa. Suzish bo‘yicha maktabgacha yoshdagi guruhlarda bolalarning to‘liq jismoniy rivojlanishini ta’minlash masalasi optimal oshirildi. Maktabgacha yoshdagi suzishni biladigan bolalar bilan sinxron suzish mashqlarining ayrim elementlarini qo‘llash harakat tasavvuri, harakat ritmini rivojlantirishga yordam beradi va bolalarning faoliyatga qiziqishni sezilarli darajada oshirib, suzish malakalarini egallashga katta hissa qo‘shdi.

Maktabgacha yoshdagilarga suzishni o‘zlashtirishda sinxron suzish mashqlarining ayrim elementlaridan tizimli foydalanish ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Aynan shu natijalarga asoslanib, bolalarga aniq sport turini tanlash imkonini berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Zoitova G.M. Modulnaya struktura obucheniya stilyam plavaniya detey doshkolnogo vozrasta: dissertatsiya PhD, Chirchiq. 2022 yil.

2. Bulgakova N.J., Poznakomtes – plavaniye/M.: “Izdatelstvo Astrel”, 2002. – 160s.

3. Khasanov, A. T., & Azimov, A. M. (2023). Development of physical fitness of students based on new pedagogical technologies. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 17, 57-62.

4. Tursinovich, K. A., & Melikuzievich, A. A. (2022). PEDAGOGICAL TECHNOLOGY IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF" MILITARY EDUCATION BEFORE THE DRAFT". Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 7, 30-35.

5. Хасанов, А. Т., & Икромов, И. И. (2022). ҲАРБИЙ ТАЪЛИМ ФАКУЛЬТЕТЛАРИ 1-4 БОСҚИЧ ТАЛАБАЛАР ЖИСМОНИЙ СТАТУС КЎРСАТКИЧЛАРИНИНГ ЎЗАРО БОҒЛИҚЛИК ХУСУСИЯТЛАРИ. Fan-Sportga, (2), 53-56.

FIKRLASH MADANIYATINING RIVOJLANISHIDA PSIXOLOGIYA VA FIZIOLOGIYA FANLARINING TUTGAN O‘RNI

Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna
Ajiniyoz nomidagi NDPI, tayanch doktorant

https://doi.org/10.5281/zenodo.13767895

ANNOTATSIYA

Bu maqolada asosan tafakkur, ya’ni fikrlash jarayonining turli-tuman fanlar tomonidan o‘rganilishi, ayniqsa, fiziologiya fani tomonidan chuqur o‘rganilishi bo‘yicha batafsil ma’lumotlar keltirilgan. Fikrlash madaniyatining yuqori darajada rivojlanganligi o‘qituvchilar faoliyatida o‘z o‘rniga ega ekanligi aytib o‘tilgan.

KALIT SO‘ZLAR

fikrlash, tafakkur, mantiqiy fikrlash, mantiq, nutq markazi, prefrontal korteks.

АННОТАЦИЯ

В этой статье в основном даются подробные сведения о мышлении, то есть изучении процесса мышления различными науками, особенно углубленным изучением науки физиологии. Было отмечено, что в работе учителей имеет свое место высокоразвитая культура мышления.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

мышление, мышление, логическое мышление, логика, речевой центр, префронтальная кора

ABSTRACT

This article mainly provides detailed information on thinking, that is, the study of the thinking process by various sciences, especially the in-depth study of the science of physiology. It was mentioned that the highly developed culture of thinking has its place in the work of teachers.

KEY WORDS

thinking, thinking, logical thinking, logic, speech center, prefrontal cortex

Fikrlash madaniyatining asoslarini boshlang‘ich maktab yoshidayoq boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi qo‘yishi kerak. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun xos bo‘lgan narsa shundaki, u o‘rta maktab fan o‘qituvchisiga nisbatan eng rivojlangan kasbiy, fan va shaxsiy xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak. Bu, birinchi navbatda, kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga

olish zarurati bilan bog‘liq, chunki bu bolalik davrida shaxs rivojlanishining markaziga aylangan fikrlash, ikkinchidan, kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarida mavjud bilimlardan yangi bilimlarni olish qobiliyatini shakllantirishni ongli va maqsadli boshqarishga tayyorgarlikning maxsus tashkil etilgan jarayoni zaruratidir. Fikrlash madaniyati ijodkor, faol, tashabbuskor, cheksiz fikrlaydigan va nafaqat mavjud, doimiy ravishda yangilanib turadigan professional o‘quv materialini tahlil qilish va umumlashtirishga qodir bo‘lgan har bir zamonaviy o‘qituvchi uchun zarurdir, bu esa o‘z navbatida olingan ma’lumotlar hajmini oshirish va o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash madaniyatini shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tafakkur madaniyatini shakllantirish, ayniqsa. uning mantiqiy tomoni, bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining intellektual rivojlanishi uchun asos bo‘lgan tafakkurda mantiqiy xususiyatga ega bo‘lgan ayrim tarkibiy qismlarni rivojlantirish jarayoni sifatida qaraladi. Mantiqiy fikrlash madaniyatini shakllantirish muammosining murakkabligi tafakkurning ko‘p qirraliligi, bog‘lanish va xususiyatlarning ko‘pligi bilan tavsiflanadi. Shunga ko‘ra, mantiqiy fikrlash madaniyatini shakllantirish umuman tafakkurning rivojlanish qonuniyatlari asosida tabiiy ravishda amalga oshiriladi.

Kelib chiqishiga ko‘ra arabcha bo‘lgan “mantiq” (grekcha “logos”) atamasi “fikr”, “so‘z”, “aql”, “qonuniyat” kabi ma’nolarga ega. Xususan, mantiq so‘zi, birinchidan, obyektiv olam qonuniyatlarini (masalan, “obyektiv mantiq”, “narsalar mantig‘i” kabi iboralarda), ikkinchidan, tafakkurning mavjud bo‘lish shakllari va taraqqiyotini, shu jumladan, fikrlar o‘rtasidagi aloqadorlikni xarakterlaydigan qonun-qoidalar yig‘indisini (masalan, “subyektiv mantiq” iborasida) va uchinchidan, tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganuvchi fanni ifoda etishda ishlatiladi. “Tafakkur” arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilidagi “fikrlash”, “aqliy mushohada” so‘zlarining sinonimi sifatida qo‘llaniladi [1].

Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Tafakkur orqali biz sezgi a’zolarimiz bilan bevosita aks ettirib bo‘lmaydigan narsa va hodisalarni ongimizda aks ettiramiz. Umuman olganda, tashqi muhitdagi narsa va hodisalar o‘rtasida ko‘z bilan ko‘rib, quloq bilan eshitib bo‘lmaydigan ichki munosabatlar hamda qonuniyatlar mavjud. Ana shu ichki bog‘lanish hamda qonuniyatlarni biz tafakkur orqali bilib olamiz. Demak, *tafakkur* deb, narsa va hodisalar o‘rtasidagi eng muhim bog‘lanishlar va munosabatlarning ongimizda aks ettirilishiga aytiladi[2]. (ushbu gap ikki marta takrorlanganligi uchun bittasi o‘chirib yuborildi) Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Tafakkur orqali biz sezgi a’zolarimiz bilan bevosita aks ettirib bo‘lmaydigan narsa va hodisalarni ongimizda aks ettiramiz.

Tafakkur murakkab hodisa bo‘lib, uni turli-tuman fanlar o‘rganadi: fiziologiya, kibernetika, mantiq, psixologiya, pedagogika, falsafa va boshqalar.

Falsafa – inson o‘z tafakkuri bilan olamni qay darajada bila olishi mumkinligi muammosiga o‘z diqqatini qaratadi, tafakkurni insonning olamga faol munosabati ifodasi sifatida tahlil qiladi. *Fiziologiya* – tafakkurning moddiy, tabiiy asosi – inson miyasi faoliyatini o‘rganadi. Uni tafakkurning nerv sistemasi va bosh miya oliy nerv faoliyati bilan bog‘liqligi hamda qanday vujudga kelishi masalasi qiziqtiradi. *Kibernetika* – inson miyasi faoliyatining ayrim funksiyalarini modellashtirish imkoniyatlari to‘g‘risida bahs yuritadi. *Pedagogika* fani fikrlashni falsafiy, fiziologik, psixologik jarayon ekanligini e’tirof etgan holda uni shakllantirishning shakl, metod va vositalarini o‘rganadi va amaliyotga tatbiq etadi. *Mantiq* – boshqa fanlardan farqli o‘laroq tafakkur shakllarini o‘rganadi.

Psixologiya – tafakkurga xos psixik ruhiy jarayonlar, individual tafakkurni o‘rganadi. U fikrlashni jarayon sifatida olib qaraydi, fikrlashning inson ruhiy holati bilan aloqadorligi to‘g‘risida bahs yuritadi [3].

Mantiq va psixologiya o‘rtasidagi munosabatlar masalasi J.Piajening tadqiqotini tahlil qilishga bag‘ishlangan P.Ya.Galperin va D.B.Elkoninlarning maqolasida aytilgan[4]. Ular mantiqning predmeti – fikrlash jarayonida vujudga keladigan kognitiv natijalar, mahsulotlar o‘rtasidagi munosabatdir, deb hisoblaydilar.

Psixologiya – fikrlash jarayonining qonuniyatlarini o‘rganadi, bu mantiqiy talablarni qondiradigan kognitiv natijalarga olib keladi. Shunday qilib, mantiq va psixologiya bir xil kognitiv faoliyatni o‘rganadi, lekin turli tomonlardan. Shuning uchun biz mantiq va psixologiya bir-biri bilan chambarchas bog‘liq degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Tafakkurning *fiziologik* tarafdan rivojlanishiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, bu, avvalo, miya faoliyati bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq jarayon ekanligini bilishga bo‘ladi.

Inson tafakkuri yagona jarayon bo‘lib, ikkala yarimshar bir vaqtning o‘zida ishtirok etadi. Miyaning funksional assimetriyasi uchun zaruriy shartlar genetik jihatdan uzatiladi, ammo u nutq bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganidek, faqat ijtimoiy muloqotda shakllanadi. Shu bilan birga, muayyan sharoitlarga qarab, chap yoki o‘ng yarimsharning fikrlashdagi nisbiy ustunligi rivojlanishi mumkin.

Nutq markazi chap yarimsharda joylashgan bo‘lib, nutqning paydo bo‘lishi tushunchalarni shakllantirmasdan mumkin emas. Shuning uchun konseptual fikrlash, o‘qish va hisoblash chap yarimsharning funksiyalari bilan chambarchas bog‘liq. Chap yarimsharning fikrlashi diskret va analitikdir, chunki u obyektlar va hodisalarni ma’lum belgilar soniga ko‘ra mantiqiy izchil tahlil qilishni ta’minlaydi. Buning yordamida dunyoning ichki izchil modeli shakllanadi, uni so‘zlar (og‘zaki) va boshqa shartli belgilar yordamida ifodalash mumkin.

O‘ng yarim shardagi atrofdagi dunyoning yaxlit hissiy tasvirlari paydo bo‘ladi. U vizual va majoziy fikrlash uchun ko‘proq javobgardir. O‘ng yarimshardagi tasvirlar va ular bilan bog‘liq harakatlar to‘g‘ridan to‘g‘ri og‘zaki ifodani topmaydi. Lekin u bir vaqtning o‘zida obyektning ko‘plab xususiyatlarini “ushlash” imkoniyati tufayli boshqa obyektlar bilan munosabatlarni ijodiy faoliyat uchun muhim bo‘lgan idrokning noaniqligini ta’minlaydi. Orzular, sezgi, tushuncha, faraz va she’riy tasvir o‘ng yarimsharning mahsulotidir[5].

Tafakkur faoliyati muayyan maqsadga qaratilgan alohida ongli jarayon tariqasida sodir bo‘ladi. Bosh miyaning biror uchastkasidagi faoliyat emas, balki butun bosh miya po‘stining faoliyati mana shu jarayonning fiziologik asosidir. Tafakkur faoliyati uchun, avvalo, analizatorlarning miyadagi uchlari o‘rtasida vujudga keladigan murakkab bog‘lanishlar muhim ahamiyatga egadir. Analizatorlarning bosh miya po‘stidagi uchastkalari bir-biridan keskin ajralgan holda emas, balki bir-biriga tutashib, bir-biri bilan chambarchas bog‘lanib ketganligi sababli mazkur bog‘lanishlarning vujudga kelishi yuqorida aytib o‘tilganidek, tafakkurning maxsus nerv-fiziologik mexanizmlaridir[6].

G‘arb psixologlari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda miyaning tuzilishi odamning intellektlilik darajasiga bog‘liqligi, ya’ni “ziyoli” yoki “intelligent” odamlarda bosh miya po‘stidagi analizatorlarning uchlari juda ham zich joylashgan bo‘lib, ularda o‘tkazilgan tafakkur darajasini aniqlash kabi testlarda ma’lumotlarni tez anglab olish va uning mohiyatini tushunish boshqalarga nisbatan tezroq va samaraliroq bo‘lishi aniqlangan[2]. Bundan ko‘rishimiz mumkinki, intellektual faoliyatda yuqori darajada bo‘lgan shaxslar, odatda, neyronlarning yuqori zichligi va ular orasidagi faol aloqa tufayli ma’lumotlarni samarali qayta ishlashga qodir.

Miyaning strukturasida ba’zi hududlar, masalan, prefrontal korteks, intellektual funksiyalarni bajarishda muhim rol o‘ynaydi. Prefrontal korteks (PFC) miya po‘stining (korteks) old qismida joylashgan bo‘lib, murakkab kognitiv, emotsional va xulq-atvorli vazifalarni boshqaradigan miya sohasidir. Bu hudud insonning intellektual va ijodiy faoliyatida muhim rol o‘ynaydi. Prefrontal korteks ko‘plab yuqori darajadagi kognitiv funksiyalarni boshqaradi. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- murakkab vazifalarni rejalashtirish va bajarish qobiliyatini rivojlantiradi;
- ma’lumotlarni tahlil qilib, to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga yordam beradi;
- yangi va kutilmagan vaziyatlarda yechimlarni topishga yordam beradi;
- prefrontal korteks ma'lumotlarni qisqa muddatli saqlash va qayta ishlashni ta’minlaydi. Bu funksiya matematik masalalarni hal qilishda yoki ko‘rsatmalarni eslab qolishda muhim rol o‘ynaydi;

- biror vazifaga e’tibor qaratish va diqqatni boshqarish imkoniyatini beradi;
- chalg‘ituvchi omillardan chalg‘imasdan ishlashni ta’minlaydi;
- emotsiyalarni tushunish, nazorat qilish va ularga mos munosabat bildirishga yordam beradi;
- stress va tashvishlarni boshqarishda yordam beradi;
- prefrontal korteks ijtimoiy vaziyatlarda munosib xulq-atvorni tanlashni boshqaradi;
- boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunishga va mos keladigan ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi;
- qiziqish va istaklarni nazorat qilish, uzoq muddatli maqsadlar uchun qisqa muddatli istaklardan voz kechishga yordam beradi.

Bosh miya po‘stidagi analizatorlar, ya’ni neyronlarning joylashuvi va aloqalari kognitiv qobiliyatlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Zichroq neyron tarmoqlarining mavjudligi axborotni tezroq qayta ishlash va aniqlikni oshirishi mumkin. Demak, intellektual darajasi yuqori bo‘lgan odamlar axborotni tezroq anglab, uning mohiyatini yaxshi tushunadilar. Bu ularning neyron tarmoqlarining samarali ishlashi bilan bog‘liq.

Tafakkur faoliyati muayyan maqsadga qaratilgan alohida ongli jarayon tariqasida sodir bo‘ladi. Bosh miyaning biror uchastkasidagi faoliyat emas, balki butun bosh miya po‘stining faoliyati mana shu jarayonning fiziologik asosidir. Tafakkur faoliyati uchun, avvalo, analizatorlarning miyadagi uchlari o‘rtasida vujudga keladigan murakkab bog‘lanishlar muhim ahamiyatga egadir. Analizatorlarning bosh miya po‘stidagi uchastkalari bir-biridan keskin ajralgan holda emas, balki bir-biriga tutashib, bir-biri bilan chambarchas bog‘lanib ketganligi sababli mazkur bog‘lanishlarning vujudga kelishi yuqorida aytib o‘tilganidek, tafakkurning maxsus nerv-fiziologik mexanizmlaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sharipov M., Fayzixo'jayeva D. Mantiq tarixi va nazariyasi. Darslik. -T. “Universitet”, 2019.-424 b.
2. David G. Mayers. Psychology. © 2010 by Worth Publishers, 425 p.
3. Valiyeva S.I., Bobotaev A.P. Mantiq (Uslubiy qo’llanma) .-T.: 2017.-108 b.
4. Гальперин П.Я. Управление процессом учения //Новые исследования в педагогических науках. - М . : Просвещение, 1965. - т . 4 . - С . 15-21.
5. Реверчук, И.В. Психофизиология и патопсихология мышления: уч.пособие/ Ижевск, 2016. – 56 с

FANLARARO ALOQALAR VA UNI MAKTAB FIZIKA KURSIDA YORUG‘LIK HODISALARIGA DOIR MAVZULARNI O‘QITISHDA QO‘LLASH

Boyturayeva Gulbaxor Kamoliddin qizi
Namangan davlat universiteti doktoranti

https://doi.org/10.5281/zenodo.13767915

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada fanlarni fanlararo o‘qitish, uning maqsadi va vazifalari, maktab fizika kursining yorug‘lik hodisalariga doir mavzularini o‘qitishdagi ahamiyati bayon etilgan. Fanlararo bog‘lanishlarni amalga oshirishni umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi fizika kursida yorug‘lik hodisalarga oid mavzularini tabiiy fanlar fani asosida fanlararo bog‘lanishlar olib borish ko‘rsatib berilgan.

KALIT SO‘ZLAR

fanlararo o‘qitish, fizika kursi, fizika fani vazifalari, fizik olimlar, o‘qitish jarayoni, ko‘nikmalarning shakllanishi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье описывается значение междисциплинарного преподавания предметов, его цели и задачи, а также значение преподавания предметов школьного курса физики по световым явлениям. Установление межпредметных связей в курсе физики 7 класса общеобразовательной школы показывает темы, связанные со световыми явлениями, установление межпредметных связей на основе естественнонаучного знания.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

междисциплинарное обучение, курс физики, задачи по физике, физики, учебный процесс, формирование навыков

ABSTRACT

In this article, the importance of interdisciplinary teaching of subjects, its goals and tasks, and the importance of teaching subjects of the school physics course on light phenomena are described. Making interdisciplinary connections in the physics course of the 7th grade of general

KEY WORDS

interdisciplinary teaching, physics course, physics tasks, physicists, teaching process, skill formation

secondary schools shows the topics related to light phenomena, making interdisciplinary connections based on the science of natural sciences.

Kirish. Juda ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda fanlarni fanlararo o‘qitish, unga aloqador fanlarni (fanga tegishli mavzularni) zamonaviy ta’lim metodlaridan samarali foydalanishni asosiy masalalardan biri sifatida qaragan holda ko‘plab pedagogik tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqdalar va uni ta’lim jarayonida qo‘llab ijobiy natijalarga erishish orqali ta’lim samaradorligini oshirmoqdalar. Jumladan, fizika kursini fanlararo o‘qitishda o‘quvchilar dunyoqarashini rivojlantirish, bir biriga aloqador bilimlarni fanning maqsad vazifalaridan kelib chiqqan holda berish yo‘llari, uning didaktik ta’minotini shakllantirish va rivojlantirish orqali fanlararo o‘qitish texnologiyalarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunda o‘quvchilarning maktabda o‘qigan bilimlari va uni amaliyotda qo‘llay bilishlari nechog‘li ahamiyatliligi hammamizga ma’lum. Shu nuqtayi nazardan ham barcha fanlar kabi fizika fani va uni o‘qitishdagi materiallar o‘qitish maqsadidan kelib chiqqan holda bog‘lanishlarni amalga oshirish usul va metodlarini rivojlantirish zaruriyatini qo‘yadi.

Fanlararo o‘qitishda o‘quv rejasi soatlariga hech qanday o‘zgartirishlar kiritilmaydi, balki darsda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, mavzu maqsadi nuqtayi nazaridan u yoki bu fanga “tegishli” bilimlarni singdirib borish, shuningdek, sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda, mustaqil ta’limni tashkil etishda va uy vazifalarini berishda e’tibor qaratilishi yaxshi samara beradi. Turli fanlarni o‘zaro bog‘liq holda o‘qitish o‘quvchilarning bilimlarini takrorlash, chuqurlashtirish va vaqtni ma’lum darajada tejashga olib keladi. Umumiy o‘rta ta’limda o‘qitiladigan tabiat haqidagi fanlar – matematika, fizika, kimyo va boshqalarning o‘zaro aloqadorlik masalalarini hal etish asosida o‘quvchilarga tabiat hodisalari haqida chuqur bilim berish, ularda olgan bilimlarini amalda qo‘llay bilish ko‘nikmalarini va malakalarini hosil qilish hozirgi zamon dialektikasining asosiy masalasidir.

Fizika fanining taraqqiyoti, tabiat hodisalarining asl mohiyatini o‘rganish, fizika predmetini tabiiy shaklda boshqa fanlarga bog‘lab o‘qitishni ta’minlaydi, ammo o‘quv jarayonida fanlararo bog‘lanish o‘z-o‘zidan hosil bo‘lmaydi. Bu masala ko‘p qirrali bo‘lib, uni faqat ma’lum maqsadga qaratilgan yo‘nalishlardagina amalga oshirish mumkin [1].

Ta’lim samaradorligini ta’lim tizimini mazmunining maqsadi va vazifalariga moslash uning ilmiy jihati asoslanganligi shu bilan birga o‘quvchilarga mos metodlar va vazifalarning tanlanishi bilan asoslanadi.

Metodlar. Maktab fizika kursi darsligining optikaga doir mavzularini o‘qitishda fizika fani o‘qituvchisiga quyidagi vazifalar yuklanadi:

- o‘quvchilar maktab fizika kursining yorug‘lik hodisalariga oid bo‘limini tamomlagandan so‘ng yorug‘likning to‘g‘ri chiziq bo‘ylab tarqalishi, soya va yarimsoya, yorug‘likning qaytishi va sinish hodisalari, shuningdek, optik asboblarning asosini tashkil etuvchi linzalarga doir nazariy bilimlarga tayanib xulosa chiqarish ko‘nikmasiga;

- o‘quvchilar qo‘llab laboratoriya ishining aniq hisobini amalga oshiradigan bilimga;

- o‘quvchilar yorug‘lik hodisalariga doir masalalar yecha oladigan va amaliyotga qo‘llash malaka hamda ko‘nikmasiga ega bo‘lishi kerak.


Maktab fizika kursi darsligida yorug‘lik hodisalari bo‘limi 7-sinf fizikasidagi yakunlovchi bo‘lim hisoblanadi. O‘quvchilar bu bo‘limni fzikadan o‘rgana boshlaguncha ularda hayotiy tajribalar va shaxsiy kuzatishlari natjasida juda ko‘p faktlar to‘plangan bo‘ladi. Bulardan tashqari ular tabiiy fanlardan yorug‘lik to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘rgangan bo‘ladilar.

2-sinfdayoq o‘quvchilar yorug‘lik nima ekanligini 3-sinfda esa yorug‘likni to‘g‘ri chiziqli tarqalishini va soya hosil bo‘lish protsesslari kun va tunni almashishini o‘rgatila boshlaganda berilgan. Ko‘zaynok, linzalar haqida tabiiy fanlarda ma’lumotga ega bo‘lishadi. Bundan tashqari ularga bu hislarni amaliy o‘rganish maqsadida 3-sinfda “**Soya hosil bo‘lishini o‘rganish”** 6- sinfda “**Shisha prizmada yorug‘likning o‘tishi”** mavzularida amaliy mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Amaliy mashg‘ulotda o‘quvchilar jism yorug‘lik manbasiga yaqin bo‘lsa, uning soyasi kattaroq bo‘ladi. Agar yorug‘lik manbasi jismdan uzoqlashtirilsa, jismning soyasi kichik bo‘lishini ko‘adilar (1-rasm).

Atrofimizdagi jismlarni ko‘ra olishimiz uchun yorug‘lik manbalariga ehtiyoj sezamiz. Yorug‘lik manbalaridan tarqalgan nurlar jismlarga tushadi va qaytadi. Natijada jismlar ko‘rinadi. Oq nur ostidagi jismlarning turli ranglarda ko‘rinishiga oq nurni tashkil etuvchi ranglardan ba’zilarining qaytishi va yutilishi sabab bo‘ladi. Ustiga oq nur tushirilgan jism undan qaytgan yorug‘likning rangida ko‘rinadi. Quyoshdan kelayotgan oq nur yashil barg ustiga tushayotgan bo‘lsin. Oq nur tarkibida yetti xil rang mavjud. Bu nurlar tarkibidagi yashil nur yashil bargdan qaytadi, qolgan rangdagi nurlar bargga yutiladi. Yashil nur bargdan qaytgani uchun bargni yashil rangda ko‘ramiz. Xuddi shuningdek, pomidor ustiga tushgan oq yorug‘lik tarkibidagi faqat qizil rang qaytganligi uchun biz uni qizil rangda ko‘rishimiz sabablarini bilib oladilar(2-rasm)[2].



1-rasm. Soya hosil bo‘lishini o‘rganish.



2-rasm. Quyoshdan kelayotgan oq nurning yutilishi

Fizika kursida nuqta va predmetni tasvirini ko‘zguda hosil qilishda bu bilimlardan foydalaniladi. Ayniqsa, matematikadan o‘rganilgan simmetriya tushunchasi bu temani takrorlashda muhim rol o‘ynaydi.

7-sinf o‘quvchilari birinchi marta fizika kursida yorug‘lik tushunchasiga uchraydi. So‘ngra yorug‘lik manbayi haqida jismlarning issiqlik uzatishini o‘rgangan paytda uchratadi. Yuqorida ko‘rsatilgan bilimlarga tayangan holda o‘quvchilar fizika kursida tabiiy fanlardan olgan bilimlarni takrorlaydilar. O‘qituvchi fizika darsini tabiiy fanlarga fanlararo aloqadorlik asosida tashkil etadi. Fanlararo o‘qitish orqali maktab o‘quvchilarining fizika fanidan bilimlarini shakllantirish va rivojlantirishni hamda innovatsion g‘oyalarini amalda qo‘llaydigan darajada tayyorlash zarur.

Maktab fizika kursining “Yorug‘lik hodisalari” mavzusiga doir materiallarni o‘qitishda “Yorug‘lik nima?” degan savolga javob berish orqali o‘quvchilarda yorug‘lik haqidagi tasavvurlari kengayib uning tarqalishi, sinishi, spektrga ajralishi orqali kamalakning hosil bo‘lishini, kamalak yoy shaklida bo‘lishiga sabab Yer atmosferasining sharsimonligi ekanligi, linzalardan tibbiyotda ko‘z nuqsonlarining oldini olish maqsadida ko‘zoynak va kontakt linzalar yasashda foydalanilishi, ko‘zoynak ko‘zida nuqsoni bo‘lgan insonlarda yaxshi ko‘rish imkonini berishini anglab yetadilar. Yorug‘likning ijobiy ta’sirini tushuntirish orqali o‘quvchilarda yangi takomillashgan ishlab chiqarish texnologiyalariga qiziqishini uyg‘otish lozim, so‘ng ushbu texnologiyalarni yaxshi saqlash uchun fizik olimlarning proyeksion apparatlar, mikroskop, fotoapparat, teleskop, durbin kabi optik asboblarning yaratilishi, fotografiya, televideniye, rentgenografiya, lazerlar fizikasi, tolali optika, geliotexnika kabi sohalarning vujudga kelishi va rivojlanishi optika sohasida olib borilgan tadqiqot ishlarining natijasi hisoblanadi[3].

Natijalar. O‘qituvchi fizika kursidan o‘quvchilarga sifatli bilim berishi maqsadida o‘quv jarayonini tashkil qila olishi uchun faqatgina fizika kursi nazariyasini yaxshi bilishi va amaliyotga qo‘llay olishi, o‘zidagi bilimlarni o‘quvchilar ongiga singdirishi uchun fizika o‘qitish metodikasidan ham yaxshi bilimlarga ega bo‘lishi lozim. O‘qituvchi o‘quvchilarda o‘qitish jarayonini va fizik

bilimlarni o‘zlashtirishning psixologik qonuniyatlarini, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatib innovatsion g‘oyalar yaratishga yo‘naltirishi shart. Shuningdek, fan o‘qituvchisi o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va psixologik rivojlanishidagi individual farqlarni, o‘quvchining yo‘nalishi bo‘yicha qiziqishlarini doimo hisobga olishi kerak.

Maktab o‘quvchilaridan test olib va fizik olimlarning yaratgan yangiliklari asosida savol-javob hamda suhbatlar o‘tkazib o‘quvchilarning fizika kursiga bo‘lgan qiziqishlarini aniqlashtirish, ularda fizika kursini fanlararo, yangi takomillashgan ishlab chiqarish texnologiyalariga bog‘lab o‘qitish va o‘quvchilar ongida yangi texnologiyalar yaratish g‘oyalarini shakllantirish va uni rivojlantirish kerak bo‘ladi[4].

Fizika fanining taraqqiyoti, tabiat hodisalarining asl mohiyatini o‘rganish, fizika predmetini tabiiy yo‘nalishda boshqa fanlarga bog‘lab o‘qitishni ta’minlaydi. Ammo o‘quv jarayonida fanlararo bog‘lanish o‘z-o‘zidan hosil bo‘lmaydi. Bu masala ko‘p qirrali bo‘lib, uni faqat ma’lum maqsadga qaratilgan yo‘nalishlardagina amalga oshirish mumkin. (bu qism tepada takrorlangan, olib tashlanishi kerak)

Misol tariqasida quyidagi fizika kursining [2-3] Optika bo‘limiga oid mavzularining fanlararo bog‘lanishlarini amalga oshirishda tabiiy fanlar oid materiallarni (1-jadvalga qarang) e’tiborga olish lozim:

Maktab 7-sinf fizika fanidagi ayrim mavzularni 6-sinf tabiiy fanlardagi mavzular bilan o‘zaro bog‘lanishlari

№	7-sinf fizika fani mavzulari	6-sinf tabiiy fanlardagi ma’lumotlar
1.	Yorug‘liknıng to‘g‘ri chiziq bo‘ylab tarqalishi	Quyosh – yorug‘lik va issiqlik energiyasi manbayi. Yorug‘lik energiyasining bir qismi atmosferada hamda Yer sirtida yutiladi va uni isitishga yordam beradi. Yorug‘lik – sayyoramizdagi o‘simlik va hayvonlar hayoti uchun asosiy energiyalardan biri. O‘simlik hujayralarida sodir bo‘ladigan fotosintez jarayonida yorug‘lik energiyasi organik modda (glyukoza) ning kimyoviy energiyaga aylanadi.
2.	Quyosh va Oy tutilishi	Quyosh Yerga eng yaqin yulduz ekanligini bilasiz. Quyoshdan Yergacha bo‘lgan masofa taxminan 150 mln km. **Oy** – Yerning yagona tabiiy yo‘ldoshi.
3.	Yorug‘likning qaytishi va sinishi	Yorug‘lik nuri har qanday jismga tushsa, u jismdan qaytadi. Bu hodisa yorug‘likning qaytishi deb ataladi. Yorug‘likning jismlardan qaytishi atrofimizdagi barcha jismlarni ko‘rishga imkon

		beradi. Biz o‘z aksimizni ko‘zgu orqali ko‘ramiz. Ko‘zguda tasvirning hosil bo‘lishi yorug‘likning qaytish hodisasiga asoslangan.Yassi ko‘zguda tasvir simmetrik bo‘ladi.
4.	Linza	Ikki yoki bir tomoni sferik sirt bilan chegaralangan shaffof jismga **linza** deb ataladi. Linzalar shaffof jism – shisha va plastmassadan yasaladi.
5.	**Amaliy mashg‘ulot.** Yorug‘likning yassi ko‘zgudan qaytishini o‘rganish	Atrofimizdagi jismlarni ko‘ra olishimiz uchun yorug‘lik manbalariga ehtiyoj sezamiz. Yorug‘lik manbalaridan tarqalgan nurlar jismlarga tushadi va qaytadi. Natijada jismlar ko‘rinadi. Oq nur ostidagi jismlarning turli ranglarda ko‘rinishiga oq nurni tashkil etuvchi ranglardan ba’zilarining qaytishi va yutilishi sabab bo‘ladi. Ustiga oq nur tushirilgan jism undan qaytgan yorug‘likning rangida ko‘rinadi.

Yorug‘liknıng to‘g‘ri chiziq bo‘ylab tarqalishi: sinfxona yoki katta binoni yaxshi yoritish maqsadida bir nechta yorug‘lik chiqaradigan manbalar o‘rnatiladi. Ular ishlayotganida har biridan yorug‘lik nuri chiqadi va atrofga tarqaladi. Yorug‘lik nurlari o‘zaro kesishganda bir biriga hech qanday ta’sir ko‘rsatmaydi. Nur yer yuzidagi hayot manbalaridan biridir. Nur inson hayotining asosidir. Yorug‘lik – bu inson tashqi dunyoni tushunish vositasi. Yorug‘lik ma’lumot uchun ideal tashuvchi yoki vositadir.

Quyosh va Oy tutilishi : Quyosh, Oy va Yer bir to‘g‘ri chiziqda joylashganda Quyosh tutilishi sodir bo‘ladi. Quyosh, Yer va Oy bir to‘g‘ri chiziqda joylashganda Oy tutilishi sodir bo‘ladi. O‘quvchilar ko‘zlari bilan ko‘rishlari uchun tanga olib quyoshga tutib qora ko‘zoynak taqib qaralsa, quyosh tutilishini ko‘rishlari mumkin.

Yorug‘likning qaytishi va sinishi: yorug‘lik manba (quyosh, lampa va boshqa)laridan chiqayotgan yorug‘lik nuri devor, yer va buyumlarga tushganda ulardan qaytadi. Qaytgan nur ko‘zimizga tushgach, biz ularning shaklini va rangini ko‘ramiz. Bu hodisa *yorug‘likning qaytishi* deb ataladi. Yorug‘likni yaxshi qaytaruvchi jism ko‘zgu hisoblanadi.

Linza: Bir yoki ikki tomoni sferik sirt bilan chegaralangan shaffof jism *linza* deb ataladi. Linzalar qavariq yoki botiq bo‘ladi. O‘rta qismi chetki qismlariga nisbatan qalin bo‘lsa – *qavariq linza*, yupqa bo‘lsa – *botiq linza* deyiladi. Linzalardan tibbiyotda ko‘z nuqsonlarining oldini olish maqsadida ko‘zoynak va kontakt linzalar yasashda foydalaniladi. Ko‘zoynak ko‘zida nuqsoni bo‘lgan insonlarda yaxshi ko‘rish imkonini beradi. O‘quvchilarga amaliy ko‘rsatishda qog‘ozdagi yozuvning ustiga bir tomchi suv tomizsangiz, yozuvni aslidagidan

kattaroq harflarda o‘qishini ko’rsatish mumkin. Buning sababi suv tomchisi ham linza vazifasini bajara olishidadir. O‘quvchilar bajarib ko‘rishlari mumkin.

Muhokama. Fizika kursini fanlararo o‘qitishda innovatsion metodlardan foydalanish va fizika ta’limi jarayoniga tatbiq qilish, o‘quvchilarning fizika fanidan bilimlar dunyoqarashini rivojlantirish yo‘llari va uning didaktik ta’minotini shakllantirish hamda rivojlantirish orqali fanlararo o‘qitish texnologiyalarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Maktab fizika kursining yorug‘lik hodisalariga oid mavzularini fanlararo aloqadorlikda o‘qitishda samarali natijalarga erishish uchun quyidagi taklif va tavsiyalarimiz asosida yondashish mumkin:

- o‘quvchilarni loyiha va o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatiga jalb etishning innovatsion g‘oyalarini yaratish va rivojlantirish;
- ta’lim jarayoniga milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida o‘quvchilarni tarbiyalashning samarali shakl, usul va vositalarini keng joriy etish;
- fizika fanini umumta’lim fanlari bilan o‘zaro aloqadorligi va o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini tashkil etish;
- o‘quvchi-yoshlarni tarbiyalashda fizika fani bo‘yicha sinfdan va maktabdan tashqari ta’limning zamonaviy usullari va yo‘nalishlarini joriy etish;
- fizika bo‘yicha nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish, kundalik hayotiy jarayonlarda duch kelgan muammolarni hal qilishda foydalana olishga yo‘naltirish;
- o‘quv jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish;
- o‘quv-tarbiya jarayoni samaradoriligini va natijaviyligini ta’minlashda fizika ta’limi jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalar vosita va dasturlarini hamda o‘qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish;
- davlat ta’lim standartlarida ko‘zda tutilgan kompetensiyalarga asoslangan baholash mezonlarini joriy etish.
- fanlararo aloqadorlikda optika qonularini o‘rgangan o‘quvchida zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalaridan samarali foydalanish va boshqarish kompetensiyalari shakllanadi va yaratuvchanlik qobiliyatlari rivojlanadi;
- maktab fizika kursida optika qonunlarini o‘qitishning pedagogik-psixologik, ilmiy-fizik va metodik tahlil qilinishi o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib soddadan murakkab yo‘nalishida fanlararo o‘qitilishi shartligi asoslandi [4-5].

Umuman olganda, fanlararo bog‘lanishlar fizik tushunchalarni o‘rganishda o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantiradi, fanlardan olgan bilimlarini solishtirish, turli faktlarni tahlil qilish, xulosa va yakunlar chiqarish kabi qobiliyatlarini

shakllantirishga, mustaqil faoliyatlarida esa muammolarni hal qilishda ijodiy yondashishga yordam beradi.

REFERENCES

1. Мирзахмедов Б. ва бошқалар. Физика ўқитиш методикаси. –Т.: ТДПУ, 2007. 220 б.
2. Sangirova Z. va boshqalar. Tabiiy fanlar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. -T.: Respublika ta’lim markazi, 2022, 192 b
3. Suyarov K. va boshqalar. Fizika. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. -T.: Respublika ta’lim markazi, 2022, 192 b.
4. Alijanov D., Zaxidov I. Таълимда фанлараро боғланишларнинг функциялари //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B7. – С. 1406-1411.
5. Алижанов Д. А. Ў., Захидов И. О. Фанлараро алоқаларнинг тарихий ривожланиш босқичлари //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B4. – С. 22-29.
6. Zakhidov I., Boyturayeva G. Use of Natural Science and Geography materials in Physics teaching //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B3. – С. 483-487.
7. Karimov A. Ecological education and upbringing in teaching of Physics //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B2. – С. 439-442.

O‘QUV DASTURLARI – TA’LIM SIFATINING MUHIM OMILI SIFATIDA

Mallayeva Matluba Abdumalikovna
ToshDO‘TAU 2-kurs mustaqil tadqiqoqtchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.13767931

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada adabiyot fanidan yaratilgan o‘quv dasturlarining taraqqiyot bosqichlari, yutuq va kamchiliklari qiyosiy planda tahlil etilgan. Ta’lim standartiga xos xususiyatlar tasnif qilinib, muayyan xulosalar chiqarilgan.

KALIT SO‘ZLAR

ta’lim sifati, o‘quv dasturlari, o‘quv adabiyotlari, baholash, davlat ta’lim standartlari

АННОТАЦИЯ

В статье в сравнительном плане проанализированы этапы развития, достижения и недостатки образовательных программ, созданных в области литературы. Классифицированы характеристики образовательного стандарта и сделаны определенные выводы.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

качество образования, образовательные программы, учебная литература, оценка, государственные образовательные стандарты

ABSTRACT

In this article, the stages of development, achievements and shortcomings of educational programs created in the field of literature are analyzed in a comparative way. Characteristics of the educational standard were classified and certain conclusions were drawn.

KEY WORDS

quality of education, educational programs, educational literature, assessment, state education standards

Dunyo olimlari o‘rgatish va o‘rganishga oid tadqiqotlarida ta’lim sifati to‘rt muhim komponent (tarkib)dan iborat ekanligini ta’kidlaydilar. Ular: o‘quv dasturlari, o‘quv adabiyotlari, o‘qitish usullari va baholash. Mazkur komponentlar o‘zaro uzviylikda, bir-biri bilan aloqadorlikda harakatlansagina ta’lim sifati kutilgan natijani berishi mumkin.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyoti uchun amalga oshirilayotgan harakatlar asosida ham ta’limni rivojlantirish, uni dunyoning rivojlangan mamlakatlar qatorida taraqqiy ettirish vazifasi turishini davlatimiz rahbari tomonidan ko‘p marotaba ta’kidlab o‘tilgan. Ta’lim dasturlari, o‘quv adabiyotlari va baholash ushbu ta’kidlarning asosiy mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Jumladan, ta’lim sifatini dunyo miqyosida rivojlantirish, “o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish; xalq ta’limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish”ga oid vazifalar “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da ham belgilab qo‘yildi. Davlat rahbarining milliy o‘quv dasturlarini takomillashtirishga qaratilgan qaror farmonlarini qabul qilinishi uning ta’lim sifatini rivojlantirishdagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Masalan, 2019-yil 29- apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son, 2022-yil 11-maydagi PF-134-son “2022–2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari O‘zbekistonda barcha fanlardan, shu jumladan, adabiyot fanidan ham zamonaviy o‘quv dasturlarini yaratish orqali ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish maqsad qilingan.

Ma’lumki, XX asrning 1991-yillariga qadar adabiy ta’limga oid me’yoriy hujjatlar mazmun mohiyatida sovet mafkurasi, uni yoshlarga singdirish vazifasi belgilangan. Lekin O‘zbekiston yangi davrni boshlagan kundan barcha sohalar qatorida ta’limni milliy manfaatlar, umumbashariy qadriyatlar asosida isloh qilish uchun ham harakatlar boshlanganligi ma’lum. Jumladan, davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari hamda adabiyot darsliklari mustaqil O‘zbekiston manfaatlariga xizmat qiladigan yangicha yondashuvlar, tamoyillar bilan boyitildi. Masalan, Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasiga umumiy o‘rta ta’limni tashkil etish to‘g‘risida” 1998-yil 13-maydagi 203-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan, 1998-1999-o‘quv yillarida tajriba sinovdan o‘tkazilgan umum o‘rta ta’limning davlat standartlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori e’lon qilindi. Ushbu qarorda 1999-2000 o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarini umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quv dasturlari bilan birgalikda bosqichma-bosqich joriy etish masalasi ko‘tarilgan edi. Mazkur ta’lim standarti Ona tili, Adabiyot va O‘zbek tili (ta’limi boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun) fanlari uchun O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining “Ta’lim

taraqqiyoti” nomli Axborotnomasi maxsus (1-son, ta’kid bizniki, M.M) sonida e’lon qilingan.[1]

Har qanday o‘quv dasturi davlat ta’lim standartlarida belgilangan o‘quvchilarning egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar asosida shakllantiriladi. Davlat ta’lim standarti (DTS) esa ta’lim tarbiya muassasasi ma’lum bosqichining bitiruvchilari muayyan o‘quv fani (jumladan, Adabiyot) yuzasidan egallashlari shart bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va ma’naviy xislatlarning eng quyi miqdorini ilmiy asoslovchi rasmiy pedagogik hujjat hisoblanadi. Ushbu hujjat o‘quvchilarning adabiyot fandan olgan bilimlarini “nazorat” qiladi, “kuzatadi” va muayyan xulosalar “chiqaradi”. Adabiyot fanining standarti va o‘quv dasturlari boshqa fanlardan farq qiladi. Aytaylik, tabiiy yoki aniq fanlarga doir ta’lim standartlarida bilim, malaka yoki ko‘nikma muhim hisoblansa, adabiyot fanida o‘quvchining emotsional (hissiy) intellekt (birovning dardini his qilish, tuyg‘ularini hurmat qilish kabi insonning hislari va tuyg‘ulari bilan bog‘liq tushunchalar)ini shakllantirishda ahamiyatlidir. Bundan tashqari o‘quvchi Adabiyot fanidan egallashi kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalari o‘quvchilarning umri davomida asqatishi, mash’ala vazifasini bajarishi mumkin.

1999-yilda qabul qilingan Davlat ta’lim standartida adabiyot estetik-ma’naviy yo‘nalishdagi o‘quv fani tarkibiga kiritilgan. Chunki adabiyot tarbiyalanuvchi ma’naviyati, qalbini va tuyg‘ularini shakllantirishga yo‘naltirilgan faoliyat sifatida tavsiflangan. Ushbu davlat ta’lim standarti va dasturining “Umumiy o‘rta ta’lim maktablari adabiy ta’limi mazmuni va ko‘rsatkichlari” bo‘limida umumiy o‘rta maktab bitiruvchisining adabiyot fanidan shakllantirilishi lozim bo‘lgan standart va ko‘nikmalarning o‘ziga xos xususiyatlari aks ettirilgan. Jumladan,

-badiiy matnni to‘g‘ri, tez va ifodali o‘qishi;

-o‘rganilgan badiiy asar qahramoni holatini his etishi va hissiyotini o‘zgalarga muayyan darajada yetkaza olishi;

-o‘rganilgan badiiy asarning qahramonlariga xos eng muhim xarakter xususiyatlarni farqlashi;

- badiiy asar qahramonlari xatti-harakatlari va tuyg’ulariga o‘z munosabatini bildira olishi;

-o‘rganilgan badiiy asardagi eng yorqin badiiy tashbehlarni, ifodalarni payqash;

-o‘rganilgan badiiy asardagi yorqin obrazlar va porloq tashbehlarni payqash va ular haqida fikr bildira olish;

[1] Таълим тараққиёти. 1- махсус сон.Умумий ўрта таълимнинг Давлат таълим стандарти ва ўқув дастури – Тошкент.: ”ШАРҚ” нашриёт - матбаа концерни, 1999.– 153-б.

-har qanday badiiy asarga, avvalo, estetik hodisa sifatida qarash va h.k[2].

Yuqoridagi qaydlardan ma'lum bo'ladiki, Adabiyot fanidan bitiruvchilar egallashi lozim bo'lgan ko'nikmalar, (adabiy ko'rsatkichlar) fan yuzasidan belgilab berilgan eng muhim ko'rsatkichlar imkon darajasida qamrab olingan. Masalan, o'quvchining adabiyot nazariyasi, badiiy asarni tahlil qilish, syujet, obraz, tasvir vositalarni tushunish, anglashga doir hamda badiiy va hayotiy voqelikni qiyoslash, badiiy asar voqealarini o'quvchi hayotida sodir bo'lgan hodisalar bilan solishtirishga doir ko'nikmalar bugungi kun uchun ham juda muhim, o'quvchining hayotiy ehtiyojlari uchun zarur ko'rsatkichlardir, ammo ayni paytda ushbu adabiy ko'rsatkichlar orasida mavhum, aniq baholash mumkin bo'lmagan ko'rsatkichlarni ham uchratish mumkin. Masalan, "sahna asarini tomosha qilish, qo'shiqni tinglash malakasini egallashi va bu san'at turlarining jozibasi manbalarini ko'rsata olish" ko'nikmasida "qo'shiqni tinglash malakasini egallashi" jumlada noaniqlik kuzatiladi. O'quvchi dunyoni idrok qilish yoshidan boshlab musiqaga ham oshno bo'lib ulg'ayadi. Unda o'z-o'zidan musiqa tinglash, musiqa mohiyatini anglash, musiqada aks etgan joziba, mazmun-mohiyatni tushunish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Shu nuqatayi nazardan yuqorida qayd etilgan adabiy ko'nikmalarda aynan nima nazarda tutilayotgani va bu o'quvchiga nima berishi mumkinligi, bizning nazarimizda, ochiqlanmagan yoki yana ushbu adabiy ko'rsatkichlarda bitiruvchi o'quvchi "har qanday ish qog'ozlarini qiynalmay to'ldira olishi lozim" ligi ham qayd etiladi. Mazkur adabiy ko'rsatkichda adabiyotga xos ko'nikma emas, balki boshqa fan, masalan, ona tiliga oid ko'nikmani shakllantirishga xizmat qilayotgandek tasavvur uyg'otadi. Qolaversa, bu adabiyot fani tarkibida sanalayotgan bu ko'rsatkichni ham mavhum, obyektiv, aniq baholanishi mumkin bo'lmagan ko'nikmalar qatoriga kiritish mumkin bo'ladi. Chunki ish qog'ozi deyilganda qanday ish qog'ozlari nazarda tutilayotgani, "to'ldira olish" birikmasida ham noaqniqlik mavjudligi ham aniq ravshan ko'rsatilmagan.

Olimlar Z.Mirzayeva va K.Jalilovlarning "O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi" darsligida 2022-yilda YUNESKO bilan hamkorlikda tayyorlangan Milliy o'quv dasturi yaratilishiga qadar mavjud, amalda bo'lgan adabiyot bo'yicha umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlari[3] tahlil qilingan. Mualliflar ushbu ta'lim standartiga tanqidiy yondashib, adabiyot faniga xos bo'lgan kompetensiyalarga yetarlicha e'tibor berilmagani, oqibatda, adabiyot o'zining mustaqil fan sifatida mavqeyini yo'qotib, boshqa fanlarda (ona tili, chet tili, ijtimoiy fanlar) o'quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalarni rivojlantirishga

[2] Tadqiqotimizning hajmi va maqsadidan kelib chiqib, 1999-yilda Adabiot fanidan talab qilingan barcha ko'nikmalarni berishni lozim topmay ushbu faslga qo'yilgan vazifalar asosida ayrimlarini tahlilga tortish bilan cheklandik- M.M.
[3]Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 187-son qarori bilan tasdiqlangan.

ko‘maklashuvchi fanga aylanib qolgani ta’kidlanadi va fikrlarini aniq misollar bilan dalillashga harakat qiladi. Jumladan, “badiiy asar syujetini qayta hikoyalay oladi”, “tasvirlangan voqea-hodisalar, obrazlar tizimini o‘zgalarga tushuntirib bera oladi” kabi “adabiy-nutqiy kompetensiyalar” sifatida nomlangan kompetensiyalar, aslida, nutqning o‘qib tushunish va gapirish ko‘nikmalariga tegishli kompetensiyalar bo‘lib, ona tili, ikkinchi til va chet tili darslarida rivojlantiriladi va bu kompetensiyalarni rivojlantirishda adabiy tushunchalar va adabiy tahlil usullari hech qanday rol o‘ynamaydi” degan xulosaga keladi. “Adabiy-nutqiy kompetensiya” tushunchasining o‘zi mavjud emas hamda bu tushuncha standart mualliflari tomonidan o‘ylab topilgan sun’iy atamadir deya, o‘ta keskin hukm chiqaradilar va fikrlarini xorijiy manbalarga havola berish bilan dalillaydilar[4]. Yana ushbu darslik mualliflari “adabiy-nutqiy kompetensiyalar” ro‘yxatiga kiritilgan “badiiy asar asosida yaratilgan kichik sahna ko‘rinishlarida qahramonlar rolini ijro eta oladi” kompetensiyasini umuman nutqiy kompetensiya tarkibiga kirmasligini ta’kidlab, aktyorlik mahorati, plastika bilan bog‘liq kompetensiya ekanligini qayd etadi. Sahna nutqi, aktyorlik mahoratini namoyon qilishda nutq, to‘g‘ri va ta’sirchan so‘zlash, so‘z va jumlalarni xatosiz talaffuz qilish namunali nutqqa xos xususiyatlar hisoblanadi. Balki standartni yaratgan ustozlar, metodist olimlar, adabiyotshunoslar kompetensiyaning aynan mana shu jihatlarini e’tiborga olib shunday xulosaga kelgan bo‘lsalar kerak.

Umuman olganda, bugungi kungacha mavjud standartlarda belgilangan kompetensiyalar o‘quvchilarning Adabiyot fanidan bugungi bilim, ko‘nikma va malakalarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etganligini ta’kidlash lozim. Ammo inson tafakkuridagi o‘zgarishlar, globallashuv, integratsiyallashuvga xos jihatlar ta’limga yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. O‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar ham mazmun, mohiyat, obyektivlik, aniqlik jihatidan avvalgilardan farq qiladi. Pedagogikaga yangicha munosabat, ta’limga mutlaqo yangicha maqsadlar qo‘yilayotgani haqida Qozoqboy Yo‘ldoshev ham quyidagilarni yozgan edi: “Ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda, shuningdek, ilg‘or pedagogik fikrlar taraqqiy topgan yurtlarda pedagogika fani va amaliyoti oldiga endilikda mutlaqo o‘zgacha maqsad qo‘yilmoqda. Bugungi ilg‘or pedagogikaning e’tibori mutaxassis tayyorlashdan shaxs shakllantirishga ko‘chgan. Ya’ni pedagogikaning diqqati tarbiyalanuvchi shaxsini har jihatdan kamol topdirishga, uni o‘ziga xos tarzda fikrlaydigan, mustaqil xulosalarga kela oladigan, o‘zganing qarashlariga moslashishni urinmaydigan, ijodkor, tashabbuskor, mas’uliyatni zimmasiga olishdan cho‘chimaydigan faol inson qilib shakllantirishga qaratiladi. ... Yangicha pedagogika o‘z oldiga o‘zi vazifa qo‘ya oladigan, biror qarorga kelishda

[4] Bu haqida qarang. Mirzayeva Z. Jalilov K. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. Fan Ziyo, 2024, 35-36-betlar

birovning og‘ziga qarab turmaydigan, o‘zini o‘zi rivojlantiradigan, o‘z faoliyatini o‘zi nazorat qila biladigan yorqin shaxslik xususiyatlarini shakllantirish masalalari bilan shug‘ullanadi. Hozirgi zamonning muammolarini hal etish uchun bilimning o‘zi yetarli emasligi, hozir tarbiya muassasalarida shakllantirilayotgan shaxslar voqelikka ijodiy nazar bilan qaray bilishi, quyushqonlardan tashqarida fikrlay olishi muhimligi, xullaski, tarbiyalanuvchilarda kuchli shaxslik sifatlarining hosil qilinishi yangi pedagogik fikr uchun birinchi darajali ahamiyatga egadir”[5]

Bulardan xulosa qilish mumkinki, sifatli ta’lim va o‘quvchi uchun manfatli bo‘lgan o‘quv dasturlari har jihatdan pishiq ta’lim standartlariga asoslanishi lozim. Boshqa fanlar qatorida Adabiyot fanidan yaratilajak standartlar ham qanchalik obyektiv, aniq, baholay olishi mumkin bo‘lgan mezonlarga tayanilsa, o‘quv dasturlari ham shu qadar konseptual, tizimli va maqsadli shakllantiriladi.

[5] Yo‘ldoshev Q. Jilovlanmagan tafakkur mahsuli. Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2023-yil, 27-28 betlar

БАДИИЙ МАТНДА ҚАҲРАМОНЛАР НУТҚИ ВА УЛАРНИНГ ЛИНГВОПОЭТИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Маъруфжон Йўлдошев
филология фанлари доктори, профессор.
https://doi.org/10.5281/zenodo.13767797

АННОТАЦИЯ

Инсоннинг ботиний олами суҳбатларда, музокараларда у ёки бу даражада зоҳир топиши шубҳасиздир. Бадиий адабиётда бу жараён диалог ва монологлар орқали намоён бўлади. Асар қаҳрамонларининг суҳбатлари, баҳс-мунозараларининг биз кўниккан суҳбатлардан, шунчаки кайфий мунозаралардан фарқи шундаки, асардаги диалоглар адибнинг бадиий ниятига алоқадор бўлгани боис эстетик ёқимли ва асарнинг яхлитлигини таъминловчи бадиий унсур ҳисобланади. Шу сабабли ёзувчи қаҳрамонларнинг хатти-ҳаракатларинигина эмас, қалби ва қиёфаси, ботини ва зоҳири, маънавий ва моддий мавжудияти ўртасидаги инжа мувофиқликни топа билиши ва бу ҳолатни сўз руҳи билан уйғунлаштира олмоғи лозим. Мақолада қаҳрамон руҳияти уларнинг нутқида қандай ифодаланганлиги ҳақида сўз юритилади.

КАЛИТ СЎЗЛАР

Чўлпон, “Кеча ва кундуз”, бадиий тил, диалог, лингвопоэтика

АННОТАЦИЯ

Несомненно, что внутренний мир человека в той или иной степени проявляется в разговорах и переговорах. В художественной литературе этот процесс показан посредством диалогов и монологов. Диалоги и споры героев произведения отличаются от привычных нам разговоров, просто угрюмых дискуссий тем, что диалоги в произведении эстетически приятны и являются художественным элементом, обеспечивающим

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Чолпон, «День и ночь», художественный язык, диалог, лингвопоэтика

целостность произведения, так как связаны с художественным замыслом писателя. По этой причине писатель должен уметь находить гармонию не только между поведением персонажей, но и между их сердцем и внешностью, внутренним и внешним, духовным и материальным существованием, и уметь гармонизировать эту ситуацию с духом слов. В статье говорится о том, как психика героя выражается в его речи.

ABSTRACT

There is no doubt that the inner world of a person is manifested in conversations and negotiations to one degree or another. In fiction, this process is shown through dialogues and monologues. The dialogues and debates of the heroes of the work are different from the conversations we are used to, just moody discussions, in that the dialogues in the work are aesthetically pleasing and are an artistic element that ensures the integrity of the work, as they are related to the artistic intention of the writer. For this reason, the writer should be able to find the harmony between not only the behavior of the characters, but also between their heart and appearance, inner and outer, spiritual and material existence, and be able to harmonize this situation with the spirit of words. The article talks about how the hero's psyche is expressed in their speech.

KEY WORDS

Cholpon, "Day and Night", artistic language, dialogue, linguopoetics

Абдулҳамид Сулаймон Чўлпоннинг "Кеча ва кундуз" романи ҳеч бир муболағасиз айтиш мумкинки, замонлар суронидан саломат ўтиб келаётган баркамол тилимизнинг бетакрор обидасидир. Асар туркий сўз имконларининг зариф зуҳури сифатида эъзозли, эътиборли, адибнинг миллий истиқлол тушунчасига чироқ тутиши билан эса ғоят ардоқлидир. Гарчи миллат ҳақида унинг эрки ҳақида қайғурган жисму жонида шу дард шу ўй изтиробини ташиган матонатли мардлар шонли тарихимизда беҳисоб бўлса-да асримиз тонгининг ёруғ юлдузи Чўлпоннинг ўрни ўзгачадир.

Қаҳрамоннинг тафаккур тарзи, дунёқараши, ижтимоий савиясига муносиб ҳаёт бичими топиш ўта мураккаб фаолият. Бунинг учун характер ва ҳаёт мантиғини жиддий кузатиш ва моҳиятини равшан ифодалай олиш зарур бўлади. Зеро асар тилининг гўзаллиги унинг равонлиги, аниқ ва ихчамлиги билан белгиланади. “Шу маънода диалог маҳорати ёзувчи талантининг, унинг ҳаётни қай даражада чуқур билиш ва инсон табиатини зукколик билан ҳис қилишини очиб кўрсатувчи заргарлик калитидир” (Ғофуров И. Гўзалликнинг олмос қирралари. Адабий ўйлар. Т., 1964. 141-б).

“Кеча ва кундуз”даги диалоглар силсиласида қаҳрамонларнинг ички дунёси, ақл-заковати, фаҳм-фаросати ва ахлоқий қиёфаси ўзининг барча қирралари билан намоён бўлади. Асардаги Раззоқ сўфи билан Қурвонбиби ўртасидаги диалогни эслайлик: Қурвонбиби сўфига ёқадиган бир сўз топгандай, дадиллик ва бемалоллик билан кулиб туриб гап бошлади:

-Мен Зебини бир жойга жўнатиб ётибман.

Сўфи бу сафар бақирмаса ҳамки, дағал бир овоз билан сўради:

-Қаерга? Нега?

-Ойдинкўлдаги Халфа эшонимизнинг кичик қизлари бир-иккита ўртоғини “баҳорлашиб кетинглар” деб чақиртирган эканлар. Шуларнинг биттаси Зеби, яна биттаси унинг ўртоғи Салтанатхон экан. Салтанатхон аравани қўштириб қўйиб, ўзи Зебини айтгали келибди. Йўқ десак қандай бўлади?

Хотини нима деса “йўқ” дейдиган сўфи бу сафар бирданига “йўқ” демасдан, хаёлга кетди. (...)

Сукут узоққа чўзилгандан кейин Қурвонбиби энди бу сафар жиддий бир чеҳра билан:

-Нимага индамайсиз? Хўп денг! Катта одам, уят бўлади. Бир яхши хотинлари, бир отинча қизлари борки... Ўзларини бўлса ўзингиз биласиз,-деди.

Сўфи негадир:

-Биламан, фитна, биламан!-деб қўйиб, яна жим бўлди.

Энди Қурвонбиби яна ҳам жиддийлашди:

-Бўлмаса “йўқ” денг. Салтанатхонга жавоб берай, кетсин! Азонда келган эди.

Шундан кейин сўфининг тили айланди:

-Шошма, фитна! “Йўқ” дема, майли, бора қолсин...

Қачон келади?

-Индинга эрта билан ё кечқурун.

-Эшонойимнинг раъйларига қарасин.

Сўфи ўрнидан турди. Картдан тушиб, кавшини кияркан:

-Овозим бор деб ашулага зўр бермасин, деди. Номаҳрамга овозини эшитдирса рози эмасман! (18-19)[1]

Ушбу диалог қаҳрамонларнинг ўзаро муносабатларини, ўзига хос руҳий дунёларини ва асарнинг мазмун-моҳиятини очишда муайян вазифани адо этиш билан эътиборга лойиқ. Раззоқ сўфи тунд ва дағал табиатли одам. Шу билан бирга хотини ва қизининг кўнгли билан қизиқмайдики, қизини "қиш ичи сиқилган кўнглини ёзиб келиш учун" қишлоққа юборса. Бироқ, Қурвонбиби сўфидан ижозат олиш "илмини" чуқур эгаллаган. Қурвонбибининг бу маҳоратини ёзувчи қизлар нутқи орқали гоят жонли ва ишонарли қилиб беради:

"-Қурвон холам боплади!-деди Салти.

-Энам гапга уста. Эшондан тушганини кўринг. Эшон десангиз отам ўлганини ҳам билмайди... Худо муни эшонлар учун яратган". (18)

Шу боис ҳам сўфининг бироз аввалги авзои масаланинг қизлар ҳисобига ҳал бўлишига тўсиқ бўла олмади. Қурвонбиби "халфа эшон" сўзига алоҳида урғу бериб айтишдан бошлагач, хотини нима деса "йўқ" дейдиган одам бу гал хаёл суриб кетди. Табиийки, Қурвонбиби қулай фурсатни қўлдан бериб қўймаслик тараддудида оғзидан бол томиб халфа эшонни мақтагани-мақтаган. "*Бир яхши хотинлари, бир отинча қизлари борки... Ўзларини бўлса ўзингиз биласиз...*" Тилимизда *-лар* кўплик шаклининг ҳурмат маъносида ҳам қўлланиши меъёрий ҳолдир. Мазкур вазиятда ҳурмат маъносини тугал ифодалаш учун ёлғиз "*-лар*"нинг ўзи етарли бўлмагани боис "*яхши*" сифатлаши келтирилади. Бироқ, бу билан ҳам қониқиш ҳосил қилмаган ёзувчи "*яхши*"нинг шунчаки "*яхши*"лардан фарқли, алоҳида "*бир яхши*" эканлигини урғулашни лозим кўради. Қурвонбибининг мақсади – қизлари учун эридан рухсат олиб бериш. Шу мақсадда ўзи кўрмаган, билмаган халфа эшонни ва унинг хотин-болаларини тавсифу таърифлаш билан овора. Эшоннинг хотини "*бир яхши*" экан, "*аъло*" бўлганида ҳам сўфи учун заррача аҳамияти бўлмас эди. Қизи-ку "*бир отинча*" экан, фаришта бўлмайдими? Сўфи учун муҳим бўлган нарса ўша отинчанинг отаси, ўша "*бир яхши*" хотиннинг эри халфа эшонлигидадир! Сўфи қизига рухсат беришда айнан шу нарсага алоҳида эътибор берган. Бундан ташқари суҳбат якунида ҳолатни янада ойдинлатувчи бир изоҳ бор:

"Бу сафар одамга ўхшаш гапириб, Қурвонбибини қувонтирган Раззоқ сўфи шу сўзлардан сўнг яна ўз жимлигига қайтди. Бироз сўнгра салласини кийиб, яхтагини қўлига олгандан сўнг:

[1] Романдан келтирилган бу ва бундан кейинги мисоллар ушбу нашрдан олинган: Чўлпон. Асарлар. Уч жилдлик. II жилд. О. Шарафиддинов таҳрири остида. - Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. Қавс ичида китобнинг мисол олинган саҳифаси кўрсатилган.

-Хуржунни бер, фитна! Бўлмаса, иккита қоп бер! - деб қолди. Қурвонбиби қопни узатар экан, эрининг қўлига шу топда бир оз пул тушганини, энди каттароқ харид қилиш учун бозорга кетаётганини ва ҳалиги зўр илтифотнинг ҳам пулнинг кучи билан бўлганини англади...” (19)

Сўфининг ғазабдан тушишига сабаб бўлган омиллардан бири халфа эшоннинг “юз-хотири” бўлса, иккинчиси “пулнинг кучи”дир. Қурвонбибининг эшонойини айланиб-ўргилиб мақташлари-чи? Уларнинг таъсири, кучи асло сезилмадими? Аслида халқда “яхши гап илонни инидан чиқаради” деган нақл бор. “Илонни инидан чиқарадиган” яхши гаплар сўфига кўпам кор қилавермасди. Қурвонбиби буни билади. Лекин ўзи танимаган бир одамни олқар экан, худди кўргандек, кўп қадрдон кишиси ҳақида сўзлаётгандек ҳолатга кириши унинг характери билан ҳам боғлиқ. Қурвонбиби ҳеч кимга ёмонлик соғинмайдиган, ҳаммани ичидан севадиган, бағри кенг, очиқ кўнгил ва айни дамда содда ўзбек онаси.

Эътибор берилса, ушбу суҳбатнинг асар тақдирида муҳим роль ўйнаши аён бўлади. Мазкур диалог пировардида Зебилар қишлоққа боишга изн оладилар. Воқеа-ҳодисаларнинг кейинги такомили шу суҳбат билан бевосита боғлиқ. Диалогнинг асар учун нечоғли қимматли эканлигини назарда тутиб, баъзи ўринларга қайта мурожаат қиламиз. Раззоқ сўфи якка-ю ягона қизнинг отаси. У жоҳил, дағал бўлгани билан барибир ота эмасми? Жавоб беришдан аввал узоқ сукутга чўмади. Отасининг бу ҳолатини ичкаридан кузатиб турган Зеби: “*Отам осонлик билан маъқул гапга кўнадиган одам эмас... Жим туриб қолишини кўринг: ҳали ҳам чурқ этмайди*” дейди. Зеби ва онасининг назарида “маъқул” кўринган нарса ота дунёқарашида қай тарзда таҳлил қилинаётган экан? Раззоқ сўфининг тундлиги боис буни билишимиз қийин. Лекин халқда кенг тарқалган ақидага кўра ота кўнгли баъзи нарсаларни олдиндан сезаркан. Сўфининг узоққа чўзилган сукути замирида қизининг тақдири билан боғлиқ ички сезимлар ётмаганмикан? Шу маънода “сўфи негадир:

- *Биламан, фитна, биламан!-деб қўйиб яна жим бўлди*” ифодаси диққатни тортади. Ёзувчи “*негадир*” сўзига сўфининг ҳадигини, гумонини юклай олган чамаси. “*Биламан*” сўзининг такрорланиши ва яна жим қолиши... Буларнинг бари инсон онгида кечадиган, лекин англаниши қийин бўладиган ҳолатларнинг, сезимларнинг ифодасидир. Сўфи ота сифатида ва инсон сифатида шуур остида рўй берадиган ана шундай жараёнларни бошдан кечираётгани аниқ. Раззоқ сўфи умри давомида шаклланган характеридан ва кўникмаларидан чиқиб кетиши маҳол бўлганидан қизига изн берди. Эшоннинг раъйи ва пулнинг кучи бу борада асосий вазифани бажарган бўлса-да, сўфига далда берган яна бир сир бор. Ўша сирни сўфининг нутқидан қидирамиз:

“*-Овозим бор деб ашулага зўр бермасин,-деди,-Номаҳрамга овозини эшитдирса рози эмасман!*”. Демак, асар сўнгидаги кўргиликлар Зебининг овози орқали келишини Сўфи қайсидир маънода сезган. Фақат масалани ҳамма сингари осонгина ҳал қилган: “Ундай қилмаса, бундай бўлмайди” қабилидаги ечим Раззоқ сўфига далда берган бўлиши мумкин. Яъни: “ашула айтмаса, номаҳрамга овозини эшитдирмаса, паранжини ечмаса ҳаммаси яхши тугайди” каби табиий ишониш тарзи отанинг кўнглидаги ғашликларни қувиб юборган бўлса ажаб эмас.

Ёзувчининг маҳорати қаҳрамонларнинг туйғу-кечинмаларини теран англаши ва ҳар бир қаҳрамоннинг савиясига, дунёқарашига, руҳий оламига ғоят мос келадиган сўз топа билишида ёрқин намоён бўлади. Жумладан, ёзувчининг ардоқли қаҳрамонларидан бири, китобхон меҳрини оҳанграбодек ўзига жалб қилувчи мафтункор Зеби нутқидан унинг онги, маданий савияси ва уни бошқалардан ажратиб турувчи ўзига хос характерини пайқашимиз мумкин: “*Сўфининг бу авзойини кўргандан кейин икки қизнинг борқадар умиди ҳам узилиб бўлди. Зеби бу умидсизликни яшира олмади*:

“- *Ўйнашмай ўлайлик, энди отам ҳеч қаерга чиқармайди...*

Салти ҳам ўз ташвишини англатди:

- Нима қиламиз энди? Сиз бормасангиз, мен ҳам бормайман... Энахон тоза койийди-да.

- Тек ўтирган бўлсак кўнгли юмшармидикан?-деди Зеби.

Салти индамади. Бироздан сўнг яна ўзи илова қилди:

- Кўнгли ўлсин, юмшаган вақтини кўрганим йўқ! Катта-катта харсангтошларни сой бўйига девлар ташлаган, дейди... Энг каттасини отамнинг кўкрагига ташлаб қўйиб, “мана шу сенинг кўнглинг!” деганмикан, яшшамагурлар!”

Халқ тилининг ранг-баранг бўёқларидан уста рассомдек маҳорат билан фойдалана олган ёзувчи Зеби нутқи орқали воқеа бўлиб ўтаётган вазиятни, шароитни жонли ва тугал тасвирлаш билан бирга “ардоқли” қаҳрамоннинг ўша муҳитга муносабати, хусусан оиладаги ўрни ва эркини ғоят ишонарли тарзда акс эттиради. Зеби оиладаги якка-ю ягона қиз. У ҳар қанча эркалик қилса, ҳар қанча шўхлик қилса ярашгулик қиз. Лекин Зеби ундай қила олмайди. Эркалик у ёқда турсин, озиб-ёзиб бир севингани, дугонаси билан бир қувнаб-шодлангани ҳам баджаҳл отанинг тор кўнглига сиғмади. Зеби булар ҳақида ўйлашни ҳам истамайди. Ҳатто бундан бошқача бўлиши мумкинлигини тасаввур ҳам қила олмайдигандек кўринади. Отасининг ўзига ва онасига нисбатан совуқ, бегоналардек муносабатни сингдира олмаса-да, дилидагини тилига чиқаришни эп кўрмайди. Зеби ана шундай шароитда ўсиб-

улғайгани боис барига кўникиб кетган эди. Бироқ шундай вазият юзага келдики, беихтиёр “кўнглини ёришга”, ички исёнини ошкор қилишга жазм этди. Қиз руҳиятидаги дастлабки умидсизлик дарҳол унинг тилига тўкилди:

“- *Ўйнашмай ўлайлик, энди отам ҳеч қаерга чиқармайди*...”. Кўриниб турибдики, Зеби ўзини бўлиб ўтган воқеада асосий айбдор деб ўйлаяпти. Шу сабабли қилган хатосини эмас, “айбига” яраша жазонинг муқаррарлигини фаҳмлаб, жазо турини ҳам ўзича чамалаб бўлди. Бироз вақт ўтиб, юрак дукури босилгандан сўнг: “*Тек ўтирган бўлсак кўнгли юмшармидикан*?”-дея ўзига савол беради. Демак, Зеби юз берган воқеани таҳлил қила бошлади. Энди у отасининг ҳам айби йўқмикан деган мулоҳазага бормоқда. Ўйнашганлиги учун “жавоб бермаслиги” аниқ бўлди, гўё. Лекин тек ўтирганида изн берармиди? Зеби икки ҳолатни қиёс қилиш орқали отасининг ҳам айбсиз эмаслигини фарқлади. Фақат Зебининг бу тарзда ўйлаши унинг наздида отага нисбатан ҳурматсизликдай туюлди чамаси, айбдорни бошқа жойдан қидиришга киришди ва топди ҳам: Айбдор ёвуз кучлар-девлар бўлиб чиқди. Натижада Зеби дугонасининг олдидаги маҳжубликдан ҳам қутулган бўлди. Эсласангиз, ҳовли супуриш эпизодида Зеби қўлига супурги олишни истамаса-да, ўртоғининг “бу қиз энасининг гапига кирмас экан” деган ўйга боришини ўйлаб, индамасдан қўлига супурги олган эди. Худди шунинг сингари Зеби отасини ёмонлайверса ўртоғи “бу қиз отасини ҳурмат қилмас экан” деб ўйлаши мумкин эди-да. Зеби шу тобда отасини эмас, отасининг кўкрагига энг катта тошни ташлаб, “мана шу сенинг кўнглинг!” деб кетган девларни койиётган, уларни айблаётган эди.

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, бадиий асар халқ тили ўзининг барча имкониятларини бор бўйича намоён қила оладиган, ёзувчининг маҳорат даражасига кўра бу имкониятларни тўласича ишга солиш мумкин бўлган ўзига хос майдондир. Бу имкониятлар чексиз-чегарасиз бўлиб, муайян асарда унинг рўёби масалаларини ўрганиш, аввало, ёзувчининг бадиий тил борасидаги маҳоратини, қолаверса, халқ тилидаги ифода воситаларининг бойлигини намойиш этишга асос бўлади.

O‘RXUN-ENASOY BITIKLARIDAGI QO‘SHIN TUZILISHIGA OID ISTILOHLAR XUSUSIDA

Dustmurodov Ma’rufjon Mansur o‘g‘li
TIPI dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.13777369

ANNOTATSIYA

Jahon tamaddunida muhim o‘rin tutgan turkiy xalq va elatlarning o‘tmishi hamda bugunini o‘zida aks ettirgan har qanday moddiy va ma’naviy yodgorliklar nafaqat turkiy xalqlar, qolaversa, butun dunyo ilm egalarini e’tiborini o‘ziga qaratib kelgan. Qadimgi turk bitiktoshlarida qayd etilgan xoqonlikning boshqaruv tizimiga doir istilohlarning salmoqli ulushini harbiy unvon, lavozim va mansablarni ifodalovchi terminlar tashkil etadi. Bulardan bitiklarda eng faol qo‘llanilgan istilohlar qo‘shin tuzilishi va turlarini ifodalovchi terminlardir.

KALIT SO‘ZLAR

Turk xoqonligi, harbiy terminlar, O‘rxun-Yenisey bitigtoshlari, qo‘shin tuzilishi.

АННОТАЦИЯ

Любые материальные и духовные памятники, отражающие прошлое и настоящее тюркского народа и народов, занявшие важное место в мировой цивилизации, привлекают внимание не только тюркских народов, но и народов всего мира. Немалую часть изменений, связанных с системой управления каганатом, зафиксированных в древнетюркских надписях, составляют термины, обозначающие воинские звания, должности и должности. Из них наиболее активно употребляемыми в надписях являются термины, выражающие структуру и виды армии.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Тюркский каганство, военные термины, Орхуно-Енисейские вехи, структура армии.

ABSTRACT

Any material and spiritual monuments reflecting the past and present of the Turkic people and peoples, which have taken an important place in the world civilization, have attracted the attention of not only the Turkic peoples, but also the people of the whole world.

KEY WORDS

Turkic khaganate, military terms, Orkhun-Yenisei inscriptions, army structure.

A considerable part of the changes related to the management system of the Khaganate recorded in the ancient Turkic inscriptions are made up of terms representing military titles, positions and positions. Of these, the most actively used terms in the inscriptions are the terms expressing the structure and types of the army.

Birinchi va Ikkinchi turk xoqonliqlari (=Ko‘kturk xoqonliqlari) davri (552–744 yillar) turkiy xalqlar davlatchiligi tarixidagi muhim bosqich bo‘lib, o‘z davrida mintaqada yetakchi kuch sifatida qo‘shni sulolalar, qolaversa, keyingi turkiy va turkiy bo‘lmagan sulolalar tarixida muhim o‘rin egallaydi. Bu davrda xoqonliqning davlat boshqaruv tizimi va harbiy kuch-qudrati yuqori darajada edi. O‘sha ulug‘ ko‘tarilishlar, yuksalishlar davridan epigrafik yodgorliklar – xoqonlar, davlat arboblari, sarkardalar xotirasiga bag‘ishlangan qabrtosh yozuvlari saqlangan. Ularda milliy qahramonlarning davlat mustaqilligi, el-yurt tinchligi yo‘lida olib borgan janglari, ko‘rsatgan jasorati, butun bir xoqonliqning tarixi bitigli. Bitiglar turk davlatining harbiy tizimi, el erki yo‘lida olib borilgan janglar, tarixning o‘chmas sahifalaridan hikoya qiladi. Yana bir jihati, ushbu bitiglar, tarix kitoblari bo‘lishi bilar bir qatorda, qadimgi turkiy yozma adabiyotining ajoyib asarlari, qadimgi turkiy yozma adabiy tilning bebaho yodgorliklaridir.

Qadimgi turk bitiktoshlarida qayd etilgan xoqonlikning harbiy tizimiga oid istilohlarning salmoqli ulushini qo‘shin tuzilishi va turlarini ifodalovchi terminlar tashkil etadi. Ushbu mavzuiy guruh bitigtoshlar matnida faol ishlatilgan *atlïγ* – “otliq, suvoriy”, *ilki sü* – “avangard, ilg‘or qo‘shin”, *yadaγ* – “yaydoq, yayov, piyoda”, *yolaγčï* – “yo‘l boshlovchi (qism)”, *yaγïčï* – “jangchi, askar”, *är* – “jangchi, oddiy askar”, *sü* – “1. askar, jangchi; 2. qo‘shin, lashkar; 3. safar, yurish; 4. jang, urush”, *ordu* – “o‘rdu: I. qo‘shin; II. harbiy qarorgoh; qal’a; shahar”, *sïŋar* – “qo‘shinning ikki qanotidan biri”, shuningdek, *atlïγ sü* – “otliq qo‘shin yoki askar”, *äkin sü* – “rezerv”, *qaγan süsi* – “xoqon qo‘shini”, *uluγ sü* – “katta qo‘shin”, *yadaγ sü* – “piyoda qo‘shin”, *čärig* – “qo‘shin, askar” kabi termin va termin-birikmalarni o‘z ichiga oladi.

Bitiglardagi semantik-funksional jihatdan juda yaqin terminlar sirasiga *yolaγčï* – “yo‘l boshlovchi (qism)” va *yärči* – “yo‘lchi, yo‘l ko‘rsatuvchi” istilohlari kiradi. Birinchi termin runik matnlardan faqat Bilga xoqon bitigida tilga olingan: *“yolaγčï ... käčänkä tägi* – yo‘lboshlovchi ... Kechengacha” (BX, j). E.Aydin *yolaγčï* so‘zini “yetakchi qism (bo‘linma)” deb ta’riflaydi[1]. “DLTda ushbu so‘zga shakliy

[1] Erhan A. Orhon Yazıtları. – Konya: Kömen Yay, 2012. – S.190.

va semantik jihatdan o‘xshash *yorïγčï* so‘zi borki, Mahmud Koshg‘ariy uni “qayn, qarindoshlar orasida maktub bilan borib keladigan elchi” deb tushuntiradi”[2]. Ushbu so‘z hozirda turkman tilida saqlangan.

Obidalarda eng faol qo‘llangan terminlardan biri *sü* – “askar, jangchi; qo‘shin, lashkar”dir. *sü* termini O‘rxun-Yenisey bitiglaridan bir qancha o‘rinlarda uchraydi: “*Tabγač süsi bar ärmiš* – Tabg‘ach(ning) qo‘shini bor ekan” (To‘n, 30); *“Oγuz tapa sülädim, ilki sü tašïqmïš ärti* – O‘g‘uz tomonga lashkar tortdim, birinchi lashkar – ilg‘or qism yo‘lga chiqqan edi” (BX, 32). “*sü* xuncha va runik matnlarda cho‘ziqroq unli tovush bilan” (ДТС, 547-548), ba’zi “uyg‘ur matnlarida *suu* va *so* shakllarda ham uchraydi”[3]. Qadimgi matnlardagi *sü* istilohining o‘rnini o‘rta asrlarga kelib *čärig* egalladi. “*Yüräksiz kišilär čärig artatur* – Qo‘rqoq kishilar lashkarni buzadilar” (QBK, 121_{13}). Runik matnlarda “askar, jangchi” ma’nosida *sü, är, äräп* istilohlari uchraydi. *sü* va *čärig* istilohlari hozirgi o‘zbek harbiy terminologiyasida keng qo‘llanuvchi *qo‘shin, armiya* terminlari anglatadigan ma’noni ifodalagan. DLTda istiloh bilan bog‘liq quyidagi leksemalar mavjud: “*Otaγqa öpkäläb sügä sözlämädük* – chodirdagi hamrohlaridan xafa bo‘lib, so‘ng askarlari bilan so‘zlashmadi”; *“Sü käldi yär yapa* – yer yuzini bosib qo‘shin[4] keldi” (DLT, III, 226). *sülä-* – “qo‘shin tortmoq” derivati ham o‘z faolligini saqlab qolgan: *“Oγrap qalï kälsä saŋa qaršu sülä* – dushman sen tomon kelsa, yurishga chiq” (DLT, III, 271). Ushbu istiloh qoraxoniylar davrida ham faol qo‘llanib, hozirgi kunda faqat Turkiya turkchasida harbiy termin sifatida qo‘llanadi. S.Eker *sü* termini turkiy manbalarda to‘rt ma’noni ifodalaganini ta’kidlaydi: “1. *askar;* 2. *qo‘shin;* 3. *birlik, bo‘linma; 4. harbiy safar*”[5]. Bizningcha, *sü* polisemik istilohi anglatgan ma’nolarni guruhga ajratishda yanada aniqlik kiritish lozim. Ya’ni, 1. *askar;* 2. *qo‘shin;* 3. *safar, yurish (harbiy);* 4. *jang, urush.* Zotan, bitiglarda *“qan sükä barmïš”, “är sükä barmïš”* shaklidagi jumlalar borki, bu parchalarda *sü*ning ikki tushunchani anglatgani ko‘rinib turibdi.

sü istilohi ifodalagan semalarning bitiglarda namoyon bo‘lishi:

1. *askar, jangchi* ma’nosi: “*yïraya Oγuzda äki üč biŋ sümüz, kältäčimiz bar-mu-nä!?* – shimolda O‘g‘uzdan (himoyalanish uchun) ikki-uch ming askarimiz (bor)” (To‘n, 14); *“bir tumän artuq yäti biŋ süg ilki kun kün ölürtüm* – o‘n yetti ming askari[6]ni birinchi kun o‘ldirdim” (BX_{Xa}, 1), *“üč tümän süg ölürtüm* – o‘ttiz ming askarni o‘ldirdim” (BX_{Xa}, 8). Shuningdek,*“ol sü anta ölti* – u askar u yerda halok

[2] *Ercilasun A. Askerlikte Onlu Sisteme Türklerin Katkıları // Second International Congress on Turkic civilization. – Bishkek, 2005. – S. 151-158.*

[3] *Clauson G. An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish. – Oxford, 1972 – P. 781.*

[4] Asarda *askar*.

[5] *Süer E. Sü ve Süile yapılan tarihi askeri terimler üzerine disiplinlerarası bir inceleme. Türkbilig, 2006. – S. 109.*

[6] *Bu parchada sü leksemasi G‘.Abdurahmonov , A.Rustamovlar tomonidan lashkar – qo‘shin deb tabdil qilingan. Suer Eker bu o‘rinda ushbu leksemani jangchi deb tabdil qilgan (Süer Eker. Sü ve Süile yapılan... – S. 112, 109). Bizningcha ham bu yerda ushbu so‘zni askar, jangchi deb tabdil qilish maqbulroq.*

bo‘ldi” parchasida ham *sü* istilohi *askar* ma’nosidadir. Termin DLTda ham bir o‘rinda “askar”, boshqa o‘rinda “qo‘shin” ma’nodasida kelgan. “*Otaγqa öpkäläb sügä sözlämädük* – chodirdagi hamrohlaridan xafa bo‘lib, so‘ng askarlari bilan so‘zlashmadi”; *“Sü käldi yär yapa* – yer yuzini bosib qo‘shin keldi” (DLT, III, 226).

2. *qo‘shin, lashkar* ma’nosi: “*Tabγač süsi bar ärmiš* – Tabg‘ach lashkari (ham) bor ekan*”* (To‘n, 30)*; “Oγuz tapa sülädim, ilki sü tašïqmïš ärti, äkin sü äbdä ärti. Üč oγuz süsi basa kälti* – O‘g‘uz tomonga lashkar tortdim, birinchi lashkar yo‘lga chiqqan edi, ikkinchi lashkar qarorgohda edi, uch o‘g‘uz lashkarib bosib keldi” (BX, 32). Ushbu ma’nodagi istiloh “Qutadg‘u bilig”da ham aksini topgan:*“On iki miŋ är sü üküš sü tämiš”* – O‘n ikki ming (kishilik) qo‘shin (keragidan) ko‘p qo‘shin demish”[7].

3. *safar, yurish* ma’nosi: *“qan sükä barmiš, yayïγï säńčmiš, özi süsi ögirü säbinü ordusïnäru kälir*[8] – Xon safar (jang)ga otlandi, dushmanni yengdi. O‘zi, qo‘shini sevinib, xursandchilik bilan o‘rdusi – qarorgohiga keldi*”. “är sükä barmiš, yolta atï ärmiš* – askar safarga chiqdi, yo‘lda oti horidi, charchadi*”* (IB, 55).

4. *jang, urush* ma’nosi: “Irq bitigi” (“Ta’birnoma”)dagi bir parchada *sü* istilohi *yer* leksemasi bilan birikib, “janggoh, jang maydoni” ma’nosini ifodalagan: *“sü yirintä ärklig sabčï törütmiš* – jang maydonida kuchli bir xabarchi o‘rtaga chiqar*”* (IB, 55). Manbalardan faqatgina “Ibn Muhanna” lug‘atida qayd etilgan “jangdosh, jangdagi yelkadosh jangchilar” ma’nosidagi *südäš*[9] istilohining asosini tashkil etgan *sü* aynan “jang, urush” ma’nosidadir.

Manbalarga ko‘ra “*sü* dastavval turkiylarning faqatgina piyoda jangchilariga nisbatan qo‘llanilgan”[10]. Bitiglarda *sü* istilohining faol qo‘llanishda bo‘lganini uning ishtirokida yasalgan derivatlar tasdiqlaydi. “Qo‘shinli, qo‘shinga ega, qo‘shini bor” ma’noli *sülüg* esa qadimgi turkiy so‘zlikda izohlanadi: “*kalïn sülüg ulug küčlüglär* – gavjum qo‘shinli, ulkan kuchlilar” (ДТС, 548). Shuningdek, *sü* istilohi Qutbda ham to‘rt o‘rinda “qo‘shin” ma’nosida tilga olinadi: “*Torildi ersa andin jahl susi, Anga bilgurdi sirlar yaysusi”*[11]. Ushbu istiloh hozirgi davrda asosan turk tilida ishlatilib, ushbu tilda *sü*dan yasalgan *sübäy* – “askarlar boshlig‘i”, *astsübäy* – “kursant”, *üstsübay* – “katta ofitser” kabi harbiy unvonlar mavjud. Xullas, qadimgi turkiy tilda asosan “qo‘shin, askar” ma’nolarida *sü* istilohidan foydalanilgan bo‘lib, ushbu so‘z keyingi yuzyilliklarda bir qancha leksemalarning shakllanishiga asos bo‘lgan. Istiloh eski o‘zbek adabiy tili davrigacha qo‘llangan.

---

[7] *Rahmeti A.R.* Yusuf Has Hacip – Kutadgu Bilig I... – *S. 2334.*

[8] *Tekin T. Makaleler LI (Yayıma Hazırlayanlar: E. Yılmaz, N. Demir). – Ankara: Öncü Kitap, – 2004.*

[9] *Battal A. İbni-Mühenna Lûgati (Istanbul nüshasının Türkçe bölüğünün endeksidir). – Ankara: TDK Yayınları, 1938. – S. 64.*

[10] *Кызласов И.Л. Материалы к ранней истории тюрков. I. Древнейшие свидетельства об армии. Российская археология. – М.: 1996. – С. 77.*

[11] *Қутб. Хусрав ва Ширин. Ўзбек муттоз адабиёти намуналари. 11-жилд. Тузувчи Н.Раҳмонов. – Т.: Фан, 2007. – Б. 14, 30.*

“Jangchi, askar” ma’nosini ifodalagan *är* tub leksemasi asosida voqelangan *ärän* derivatining manbalarda “askarlar, qo‘shin” ma’nosini ifodalashi Ko‘k turk, Uyg‘ur va Yenisey yozuvlarida aks etgan: *“maŋa Lisuŋ Tay säŋün bašadu bäš yüz ärin kälti* – Menga Lisun Tay sangun boshlab besh yuz er bilan keldi*”* (BX, 10). H.Dadaboyevga ko‘ra *är* leksemasi ilk bor Kul Tegin bitigtoshi, Turfon va Yenisey yodnomalari matnida qo‘llangan[12]. Ko‘k turk bitiglarda *är* leksemasidan ko‘plik yasovchi *-t* affiksi bilan hosil qilingan *ärät* istilohi “askarlar, jangchilar” ma’nosida qo‘llanilgan. Bitigtoshlarda *är* leksemasi “er, er kishi, askar, bahodir” ma’nolarida qo‘llangan. “Devonu lug‘otit-turk”da *är* asosida shakllangan va harbiy ma’no ifodalagan quyidagi yasalmalar qayd etiladi: *ärän* [13] – I. erlar, erkaklar; bahodirlar (DLT, I, 71; 249; 105) II. askar (DLT, I, 165); *ärläš-* – mardlikda bahslashmoq (DLT, I, 242, 16); *ärlik* – erlik, mard (DLT, I, 129); *ärkäkländi* – 3. botirlandi (DLT, I, 306). Bitiglarda, shuningdek, “jangchi” ma’nosi *uruŋu* so‘zi orqali ham anglashilgan.

“Trest 12” aksiyadorlik jamiyati, qurilish-montaj tashkiloti, yuridik va jismoniy shaxslarga qurilish xizmatlari, qurilish va muhandislik faoliyati, jamiyatning iqtisodiy ko‘rsatkichlari, sof foyda dinamikasi

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена подробная информация об акционерном обществе «ТРЕСТ 12», одной из крупнейших строительных отраслей Узбекистана. В

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

"Трест 12" акционерное общество, троительно-монтажная рганизация, строительные услуги для

статье рассматривается история создания общества, его правовое и финансовое положение, деятельность и реализуемые меры по повышению его конкурентоспособности. АО «ТРЕСТ 12» было основано в 1979 году и преобразовано в акционерное общество в 1993 году. В настоящее время компания оказывает все виды строительных услуг и располагает высококвалифицированным инженерным персоналом. Основной целью общества является получение прибыли за счет обеспечения интересов акционеров. В строительстве особое внимание уделяется снижению качества, сроков и затрат. Проанализированы графики, показывающие постоянный рост чистой прибыли общества в период с 2016 по 2023 годы.

юридических и физических лиц, строительная и инжиниринговая деятельность,экономические показатели общества, динамика чистой прибыли

ABSTRACT

This article provides detailed information about TREST 12 joint stock company, one of the largest construction industries of Uzbekistan. The article examines the history of the society's establishment, its legal and financial status, activities and measures being implemented to increase its competitiveness. "TREST 12" JSC was founded in 1979 and was transformed into a joint-stock company in 1993. Currently, the company provides all types of construction services and has a highly qualified engineering staff. The main purpose of the company is to make a profit by ensuring the interests of the shareholders. In construction, special attention is paid to reducing quality, time and cost. The graphs showing the constant growth of the society's net profit between 2016 and 2023 have been analyzed.

KEY WORDS

"Trest 12" joint-stock company, construction and assembly organization, construction services for legal entities and individuals, construction and engineering activities, economic indicators of society, net profit dynamics

Hozirgi kunda mamlakatimizning qurilish tarmoqlari orasida eng katta aksiyadorlik jamiyatlaridan biri bo‘lgan, “TREST 12” aksiyadorlik jamiyati, ilk bor 1979-yilda “Стройтрест 12” nomi bilan “Boshtoshkentqurilish” tizimida davlat korxonasi sifatida tashkil etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yildagi 15-fevraldagi 83-sonli qarori asosida va O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasining 1994-yil 30-maydagi 301k-PO-sonli buyrug‘iga binoan “Стройтрест 12” “Trest 12” aktsiyadorlik jamiyatiga aylantirildi va 470-sonli davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma bilan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004-yil 7-dekabrda ro‘yxatga olindi[1]. Shundan so‘ng “Trest 12” aksiyadorlik jamiyati faoliyati davomida ustav kapitalidagi davlat ulushini sotib oldi.

“TREST 12” AJ – mamlakatimizda yuridik va jismoniy shaxslarga qurilish xizmatlarining barcha turlarini taqdim etuvchi qurilish-montaj tashkiloti hisoblanadi. Kompaniya Toshkent shahrida eng murakkab va xilma-xil muhandislik-texnik vazifalarni bajarishga qodir bo‘lgan, yuqori malakali muhandislik tarkibini shakllantirgan ishlab chiqarish texnik bazasiga egadir. “TREST 12” aksiyadorlik jamiyatining tashkiliy tuzilmasi amalda o‘zining salohiyatini isbotladi, “TREST 12” aksiyadorlik jamiyati ishlar majmuasi bajarilishini ta’minlaydi, qisqa vaqt ichida bitta shartnomaga binoan ishlaydigan kuchlar tomonidan katta miqdordagi ishlarni bajarish uchun zarur moddiy, inson va texnik resurslarni jalb etish imkoniyatini yaratadi. Ushbu jamiyat aksiyadorlik jamiyati yoki ma’suliyati cheklangan jamiyat shaklidagi filiallarini tuzishi, vakolatxonalarini ochishi, sho‘ba va tobe xo‘jalik jamiyatlarini tashkil etishi, amaldagi qonun talablariga muvofiq xorij kapitali ishtirokidagi korxonalarni tuzishi mumkin. Jamiyat konsorsium va boshqa birlashmalarning, shu jumladan, xorij kapitali ishtirokidagi birlashmalarning ishtirokchisi bo‘lishi mumkin. Jamiyat O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida ustav faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi, filiallar tuzadi, vakolatxonalar ochadi, xorij davlatidagi tegishli organda doimiy muassasa sifatida hisobga turib o‘z nomidan faoliyat olib boradi. Aksiyadorlik jamiyati faoliyatining predmeti, ya’ni asosiy yo‘nalishlari va maqsadi, jamiyat faoliyatining maqsadi aktsiyadorlarning manfaatlarini ta’minlash uchun foyda olish hisoblanadi.


Jamiyatning raqobatbardoshligini oshirish, inson va moddiy-texnika salohiyatidan maksimal darajada foydalanish maqsadida obyektlar, shuningdek, tarmoqlar qurilishida talab va taklifni aniqlash bo‘yicha doimiy bozor tadqiqotlari olib borilmoqda. Qurilish turlari, ularning maqsadi, mahalliy sharoitda zamonaviy texnologiyalar va yangi materiallardan foydalanish o‘rganiladi. Sifat, me’yoriy muddat va qurilish tannarxini qisqartirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mahalliy

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15 fevral 1993 yildagi 83-sonli qarori.

yetkazib beruvchilar va ishlab chiqaruvchilarni izlash ham olib boriladi. Beton va maxsus ishlarni bajarish yetakchi xorijiy firmalarning asbob-uskunalari mavjud. Ko‘pikli beton issiqlik izolyatsiyasini o‘rnatish, hovuz vannalarini bo‘yoq purkash orqali gidroizolyatsiya qilish, hovuz suvini tozalash tizimlarini o‘rnatishning yangi usullari amaliyotga joriy etiladi. Binolarni bezashda zamonaviy materiallardan, shu jumladan, o‘zimizda ishlab chiqarilgan mahalliy mahsulotlardan foydalaniladi. Ayrim turdagi ishlar va ishlab chiqarilgan materiallar sifatini tekshirish uchun laboratoriya tashkil etilgan. Payvandlash elementlarining laboratoriya sinovlariga ko‘ra, beton ishlari, qurilish, montaj ishlari va ishlab chiqarilgan materiallarning sifati aniqlanadi. Arsenalda tahlil qilish uchun zarur jihozlar mavjud. Qurilish boshqaruvning ilg‘or usullarini joriy etish bo‘yicha rejalashtirilgan ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, qurilishda, bozor ehtiyojlarini ta’minlashga muvofiq o‘zlashtirilmagan hudud yoki rekonstruksiya qilinishi rejalashtirilagn hudud “TREST 12” aksiyadorlik jamiyati bozori hisoblanadi.


Korxonaning barcha faoliyati shartnoma asosida amalga oshiriladi. Shartnomalar tuzilgunga qadar qonuniy ekspertizadan o‘tkaziladi. Yuridik xizmat jamiyat manfaatlarini himoya qilish, jumladan, qarzdorlikni undirish, sarflangan xarajatlarni qoplash bo‘yicha doimiy ishlar olib borilmoqda. Qurilish-montaj ishlari asosan mustaqil ravishda amalga oshiriladi (umumiy ish hajmining 90% gacha). Qurilishda subpudratchilar jalb qilingan. Korxona boshqa pudratchilar, ishlab chiqaruvchilar va yetkazib beruvchilar bilan hamkorlikda ko‘p yillik tajribaga ega. Pudratchilarni, yetkazib beruvchilarni tanlash mijozlar talablari asosida sifat, narx va muddatlarni baholash bilan amalga oshiriladi. Byudjet mablag‘lari hisobidan qurilish vaqtida ishlab chiqaruvchilarning narxlari majburiy ekspertizadan o‘tkaziladi. Aksiyadorlik jamiyatning ustav kapitalidagi davlat ulushi 50 foizdan ortiq ekanligini hisobga olib, xarid qilish tartib-tamoyillari “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil aprel oyidagi O‘RQ-472-son Qonuniga muvofiq amalga oshiriladi. Ish sifati, qurilish muddati, narxi, shuningdek, kafolatlar bo‘yicha korxona takliflari, qoida bo‘yicha, mijozlar talablariga javob beradi. Pudrat ishlari darturi doimiy ravishda buyurtmachilar bilan tuzligan shartnomalar asosida shakllantiriladi.

Ushbu (1-rasm)da “Trest 12” AJning 2016-2023-yillarda erishgan sof foydasi tasvirlangan bo‘lib, 2020-yilgi narxlarga nisbatan hisoblangan. Grafikdan mazkur ko‘rsatkich dinamik xususiyatga ega ekanligi va muntazam o‘sish suratiga ega ekanligini ko‘rish mumkin. Jumladan, korxona erishgan sof foyda 2016-yilda 16 milliard 900 million so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2023-yilda kelib bu summa 26 milliard 560 million so‘mni tashkil qilgan.



1-rasm. “Trest 12” AJning 2016-2023 yillardagi sof foydasi (mln. so‘m)[2]

Quyidagi (2-rasm)da ekonometrik tadqiqot uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, 2016-2023-yillarda “Trest 12” AJda faoliyat ko‘rsatgan xodimlar tasvirlanadi. Mazkur grafikda ishchi va xodimlar o‘rtasida sug‘urtalanganlar soni yildan yilga ortib borgan, 2016-yilda bunday xodimlar soni 293 tani tashkil qilgan bo‘lsa, 2023-yilga borib 689 tani tashkil qilgan.



2-rasm. “Trest 12” AJda 2016-2023 yillarda ishlagan o‘rta maxsus, oliy ma’lumotli hamda sug‘urtalangan xodimlar soni (nafar)[3]

Maqsadga erishish uchun ma’lumotlar xarakteristikasidan kelib chiqqan holda, bir vaqtning o‘zida ikki xil modelda ishlashga to‘g‘ri keldi. Tanlangan birinchi model eng kichik kvadratlar (OLS, Ordinary Least Squares) bo‘ldi. Chiziqli eng kichik kvadratlar modeli chiziqli regressiya modelining parametrlarini baholash uchun ishlatiladigan usul bo‘lib, chiziqli regressiya kuzatilgan ma’lumotlarga

[2] Korxona taqdim etgan ma’lumotlar asosida mualliflar tomonidan ishlandi.
[3] Korxona taqdim etgan ma’lumotlar asosida mualliflar tomonidan ishlandi.

chiziqli tenglamani o‘rnatish orqali erksiz o‘zgaruvchi va bir yoki bir nechta mustaqil o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi munosabatni modellashtirishga qaratilgan[4].

Mazkur modelni quyidagi umumiy formula orqali ifodalash mumkin:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \ldots + \beta_k X_k + \varepsilon$$

bu yerda: Y – erksiz o‘zgaruvchi; X1, X2, Xk – erkli o‘zgaruvchilar; β – modelni baholash uchun kerak bo‘lgan parametrlarni o‘z ichiga olgan vektor; ε – tasodifiy xatolik

Korxonaning natijaviy omili deb olingan – sof foydaning va mustaqil o‘zgaruvchilar – ishchi va xodimlar orasida sug‘urtalanganlar soni hamda korxonada faoliyat yurituvchi o‘rta ma’lumotlilar va oliy ma’lumotlilar soni orasidagi chiziqli bog‘liqlik bor.

Buni quyidagi (1-jadval) da keltirilgan koeffitsiyentlar orqali formula yordamida tasvirlab berish mumkin. Ko‘p omilli ekonometrik model tuzish bo‘yicha olib borilgan hisob-kitoblardan shuni ko‘rish mumkinki, ozod had va ko‘p omilli ekonometrik modelga kiritilgan barcha omillar bo‘yicha t-mezonning hisoblangan qiymatlari aniqlikda jadval qiymatidan katta ekanligini ko‘rish mumkin. Bu esa barcha omillarni ishonchli ekanligini bildiradi va ko‘p omilli ekonometrik modelda ishtirok etishiga imkon beradi[5]. Ko‘rib turganimizdek, barcha koeffitsiyentlar va ozod hadning (t-student) p-qiymatlari 0.05 dan kichik. Bu esa erkli o‘zgaruvchilar hamda konstantaning statistik ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Fisher testining p-qiymati ham 0.05 dan kichik, bo‘lib, ma’lumki, F-testi modelning samaradorligi to‘g‘risidagi qisqa natijalarni tahlil qilishga yordam beradi va modelning maqbullik darajasini baholashda yordam beradi[6]. Bundan tashqari modelning R-kvadrat qiymati 0.74 ni tashkil qilgan. Bu esa modelning sifatidan, hayotiyligidan dalolar beradi. R-kvadrat 0 va 1 orasida bo‘lgan bir qiymatdir. Agar R-kvadrat 1 ga yaqin bo‘lsa, bu modelning o‘zgaruvchilar tomonidan ko‘rsatilgan yuklamalardagi o‘zgarishlarni aniq shakllantirishda juda yaxshi ekanligini anglatadi. Bunday holatda, model ma’lum bir o‘zgaruvchi tomonidan ma’lum qisqa o‘zgarishlarni aniq shakllantiradi[7]. Bu modelning 74 foiz hayotiy ekanligiga dalolat qiladi.

Quyidagi jadval (3-jadval) da VAR modelining parametrlari va test natijalari keltirilgan bo‘lib, “Trest 12” aksiyadorlik jamiyatining 1997-2023-yillardagi erishgan sof foydasi (mln. so‘mda, 2020 yil bazis yili hisobida) natijaviy omil sifatida olingan.

[4] Yu Miao, Ke Wang, Fangfang Zhao. Some limit behaviors for the LS estimator in simple linear EV regression models, Statistics & Probability Letters, Volume 81, Issue 1, 2011, Pages 92-102, ISSN 0167-7152

[5] Rousseau J., & Fraser D.A. (2008). Studentization and deriving accurate p-values.

[6] Imbens G., & Rubin D.B. (2015). Fisher’s Exact P-Values for Completely Randomized Experiments.

[7] Ricci L. (2010). Adjusted R-squared type measure for exponential dispersion models. Statistics & Probability Letters, 80, 1365-1368.

1-jadval

Chiziqli tenglama (OLS modeli) koeffitsentlar va testlar jadvali[8]

Natijaviy omilga nisbatan	Koeffitsiyentlar	Standart xatolik	*t*-qiymat	*p*-qiymat	[95% ishonch	Oralig‘i]	daraja
Birinchi o‘zgaruvchi	11.991	3.035	3.95	0.001	5.74	18.241	***
Ikkinchi o‘zgaruvchi	17.226	3.014	5.72	0.000	11.02	23.433	***
Uchinchi o‘zgaruvchi	-175.406	38.413	-4.57	0.000	-254.519	-96.293	***
Konstanta	14399.171	3159.695	4.56	0.000	7891.658	20906.68	***
R-kvadrat		0.74		Kuzatuvlar soni		29	
F-test		11.244		F-testning *p*-qiymati		0.000	
*** $p<.01$, ** $p<.05$, * $p<.1$							

Jadval tuzatildi

Yuqoridagi jadval ma’lumotlari asosida quyidagi tenglama tuzib olindi:

$$Y = 11.99\,X_1 + 17.2\,X_2 - 175.4\,X_3 + 14\,399$$

bu yerda: Y – sof foyda; X_1 – ishchi va xodimlar orasida sug‘urtalanganlar soni; X_2 – o‘rta ma’lumotlilar soni; X_3 – oliy ma’lumotlilar soni.

Yuqoridagi modelni interpritatsiya qilishdan oldin model sifatiga baho beruvchi ba’zi testlar natijalari bilan tanishib chiqilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Avvalo, modelni sifatli tahlil qilish uchun kuzatuvlar soni omillar sonidan besh barobar ko‘pligi qoidasiga tekshirilsa, tadqiqotda kuzatuvlar soni 29 ta omillar soni 4 ta, demak, bu shartdan model muvaffaqiyatli o‘tganligini ko‘rish mumkin. Bu shartlarni ekonometrikaning taniqli nomayondasi G.Markov ishlab chiqqan bo‘lib, modelning sifatini belgilashda asosiy ko‘rsatkichlar inobatga olingan (2-jadval)[9].

Vektorli avtoregressiya modeli kontekstida quyi va yuqori chegara atamalari, odatda, ma’lum bir o‘zgaruvchi uchun prognoz oralig‘ining quyi va yuqori chegaralariga ishora qiladi. Bu chegaralar prognozlashdagi noaniqlik va tasodifiylik bilan bog‘liq bo‘lib, o‘zgaruvchining haqiqiy kelajak qiymatlari ma’lum darajadagi ishonch bilan mos kelishi kutilayotgan diapazonni ifodalaydi.

[8] STATA dasturi yordamida mualliflar tomonidan ishlab chiqildi.

[9] Logan B.R., Tamhane A.C. (2004). On O’Brien’s OLS and GLS tests for multiple endpoints.

2-jadval

Emperik va nazariy qiymatlarning ayrim ko‘rsatkichlarining solishtirma jadvali[10]

O‘zgaruvchilar	Kuzatuvlar soni	O‘rtacha qiymat	Standart chetlanish	Minimum qiymat	Maksimum qiymat
Emperik qiymat	29	22.03897	3295.112	15675	27900
Nazariy qiymat	29	22.03897	2497.223	14776.59	27626.1

Modelning ikkinchi tekshiriladigan tarafi ishlab chiqilgan model va emperik qiymatlar o‘rtasidagi tafovutni aniqlashdan iborat. Yuqoridagi jadvalda ishlab chiqilgan model qiymatlari hamda emperik qiymatlar solishtirilgan bo‘lib, ikkalasining o‘rtacha qiymatlari aynan teng va bir xil. Standart chetlanishlar o‘rtasida biroz tavofut bor, chunki kuzatilgan vaziyat sof foydaning o‘rtacha qiymatidan standart chetlanishi va model qiymatlari o‘rtachasidan standart chetlanishi orasida farq bo‘lishi tabiiy holat hisoblanadi. Minimum qiymatlar va maksimum qiymatlar o‘rtasida tafovut katta emas va bu holat navbatdagi shartdan ham model muvaffaqiyatli o‘tganini bildiradi[11].

Yuqoridagi barcha testlardan ijobiy baho olinganidan so‘ng erishilgan chiziqli tenglamani interpretatsiya qilish mumkin bo‘ladi, bunga ko‘ra:

$$Y = 11.99\,X_1 + 17.2\,X_2 - 175.4\,X_3 + 14\,399$$

bu yerda: Y – sof foyda; X_1 – ishchi va xodimlar orasida sug‘urtalanganlar soni; X_2 – o‘rta ma’lumotlilar soni; X_3 – oliy ma’lumotlilar soni.

Sug‘urta qilingan xodimlar sonining bittaga ortishi, boshqa omillar ta’sir etmaganda “Trest 12” aksiyadorlik jamiyati sof foydasining yiliga 11 million 990 ming so‘mga ortishiga olib keladi. Bu holatni korxonada faoliyat olib borayotgan xodimlarning sug‘urtalanganligi, ish unumdorligining ortishi, natijada korxonaning sof foydasiga ijobiy ta’sir eta oladi, deb ifodalash mumkin bo‘ladi.

“Trest 12” aksiyadorlik jamiyatida o‘rta maxsus ma’lumotga ega xodimlar sonining bittaga ortishi, boshqa omillar ta’sir etmaganda “Trest 12” aksiyadorlik jamiyati sof foydasining yiliga 17 million 200 ming so‘mga ortishiga olib keladi. Bu holatni korxonada faoliyat olib borayotgan xodimlarning ma’lumoti, korxonaning sof foydasiga ijobiy ta’sir eta oladi, deb ifodalash mumkin bo‘ladi. Shuningdek, quyida korxonada faoliyat olib borayotgan oliy ma’lumotli xodimlarning korxona sof foydasiga teskari proporsional ekanligi izohlanadi.

[10] STATA dasturi yordamida mualliflar tomonidan ishlab chiqildi.

[11] Kleiber C. (2001). Finite sample efficiency of OLS in linear regression models with long-memory disturbances. Economics Letters, 72, 131-136.

“Trest 12” aksiyadorlik jamiyatida oliy ma’lumotga ega xodimlar sonining bittaga ortishi, boshqa omillar ta’sir etmaganda “Trest 12” aksiyadorlik jamiyati sof foydasining yiliga 175 million 400 ming so‘mga kamayishiga olib keladi. Bu holatni korxonada faoliyat olib borayotgan oliy ma’lumotli xodimlarning maoshi o‘rta ma’lumotli yoki texnik xodimlarnikiddan ancha baland ekanligi, bunday xodimlar sonining ortishi, boshqa omillarni hisobga olmaganda korxonaning sof foydasiga salbiy ta’sir etishi mumkin, deb ifodalash mumkin bo‘ladi.

3-jadval

VAR modeli koeffitsiyentlar va testlar jadvali[12]

Kuzatuv davri: 1997-2023 Kuzatuvlar soni = 27

Log likelihood = -393.2608 AIC = 30.68599

O‘zgaruvchilar	RMSE	R-sq	chi2	P>chi^2
Y	791.835	0.9524	539.7905	0.0000
X_1	60.8728	0.9984	16705.32	0.0000
X_3	3.74378	0.9992	33749.07	0.0000

	Koef.	Standart xatolik	z	P>z	95% ishonch oralig‘i	
Y						
L1.	2.003	0.214	9.350	0.000	1.583	2.423
L2.	-1.232	0.244	-5.040	0.000	-1.711	-0.753
X_1						
L1.	-18.354	7.932	-2.310	0.021	-33.901	-2.808
L2.	17.484	7.347	2.380	0.017	3.084	31.883
X_3						
L1.	249.320	124.159	2.010	0.045	5.972	492.667
L2.	-237.290	118.212	-2.010	0.045	-468.981	-5.599
konstanta	2668.174	1553.961	1.720	0.086	-377.534	5713.883

Jadval tuzatildi

Tadqiqot natijasiga ko‘ra, birinchi va uchinchi omillar (sug‘urtalangan xodimlar soni va oliy ma’lumotli xodimlar soni)ning birgalikdagi ta’siri orqali natijaviy omil (sof foyda) qiymatlarining kelajakdagi prognozi 10.9 foiz tasodifiylikka ega bo‘ldi. Bu ham zarur normadan 0.9 foiz yuqoriroq, degani bo‘lib, quyidagi jadvalda, mazkur qonuniyat asosida “Trest 12” aksiyadorlik jamiyatining 2024-2028-yillar uchun sof foydasi prognozi keltirilgan (4-jadval).

[12] STATA dasturi yordamida mualliflar tomonidan ishlab chiqildi.

4-jadval

“Trest 12” aksiyadorlik jamiyatining 2024-2028 yillar uchun sof foydasi prognozi (mlrd. so‘mda, 2020-yilgi narxlar hisobida)[13]

Yillar	Prognoz	Quyi chegara	Yuqori chegara
2024	27338.63	25839.727	28837.533
2025	27800.181	24739.625	30860.738
2026	28082.899	23596.425	32569.373
2027	28279.32	22995.008	33563.633
2028	28431.894	23165.377	33698.41

Olingan natijalarga ko‘ra, Trest 12” aksiyadorlik jamiyatining 2024-yildagi sof foydasi prognozi quyi chegara olinganda – 25 mlrd. 839 mln. so‘mni, yuqori chegara olinganda 28 mlrd. 837 million so‘mni hamda normal holatda, tasodifiylik va xatolarni hisobga olmaganda, 27 mlrd. 338 mln. so‘mni tashkil qilishi mumkin. 2025-yilda esa bu ko‘rsatkich mos ravishda 24 mlrd. 739 mln. so‘m, 30 mlrd. 860 mln. so‘m hamda 27 mlrd. 800 mln. so‘mni tashkil qilishi mumkin. 2028-yilga borib, Trest 12” aksiyadorlik jamiyatining yillik sof foydasi, tasofiy xatoliklar hisobga olinmaganda, 28 mlrd. 432 mln. so‘mni tashkil etishi mumkin hamda uning yuqori chegarasi 33 mlrd. 698 mln. so‘m, quyi chegarasi esa 28 mrld. 432 mln. so‘mni tashkil etishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Assaad, R. H., & El-Adaway, I. H. (2021). Stock prices of architectural, engineering, and construction firms as leading economic indicator: A computational deep-learning econometrics model to complement the architecture billings index. Journal of Architectural Engineering, 27(4), 04021043.
2. Xie, H., Xin, M., Lu, C., & Xu, J. (2023). Knowledge map and forecast of digital twin in the construction industry: State-of-the-art review using scientometric analysis. Journal of Cleaner Production, 383, 135231.
3. Manfren, M., Nastasi, B., Tronchin, L., Groppi, D., & Garcia, D. A. (2021). Techno-economic analysis and energy modelling as a key enablers for smart energy services and technologies in buildings. renewable and sustainable energy reviews, 150, 111490.

[13] STATA dasturi yordamida mualliflar tomonidan ishlab chiqildi.

4. Lin, C., Gao, Y., Huang, J., Shi, D., Feng, W., Liu, Q., & Du, X. (2020). A novel numerical model for investigating macro factors influencing building energy consumption intensity. Sustainable Production and Consumption, 24, 308-323.
5. Kedir, F., & Hall, D. M. (2021). Resource efficiency in industrialized housing construction–A systematic review of current performance and future opportunities. Journal of Cleaner Production, 286, 125443.
6. Momade, M. H., Shahid, S., Hainin, M. R. B., Nashwan, M. S., & Tahir Umar, A. (2022). Modelling labour productivity using SVM and RF: a comparative study on classifiers performance. International Journal of Construction Management, 22(10), 1924-1934.
7. Zhang, Z., Hu, B., Shi, K., Su, K., & Yang, Q. (2020). Exploring the dynamic, forecast and decoupling effect of land natural capital utilization in the hinterland of the Three Gorges Reservoir area, China. Science of the total environment, 718, 134832.
8. Gong, X., Wong, W. K., Peng, Y., Khamdamov, S. J., Albasher, G., Hoa, V. T., & Nhan, N. T. T. (2023). Exploring an interdisciplinary approach to sustainable economic development in resource-rich regions: An investigation of resource productivity, technological innovation, and ecosystem resilience. Resources Policy, 87, 104294.

KORXONA ISHLAB CHIQARISH XARAJATINI TARKIBIY TUZILISHI

Turabekov.A.A
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti i.f.n. dotsenti

https://doi.org/10.5281/zenodo.13767808

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada milliy iqtisodiyotni barqaror va samarali rivojlantirish maqsadiga korxonaning ishlab chiqarish xarajatlari tarkibini diversifikatsiyalashtirish, ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiya va optimallashtirish natijasida erishish yo'llari o'rganildi.

KALIT SO'ZLAR

diversifikatsiyalashtirish, iste'mol bozori, ishlab chiqarish quvvati, doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar, aylanma xarajat mablag'lari.

АННОТАЦИЯ

В данной статье исследованы пути достижения цели устойчивого и эффективного развития национальной экономики в результате диверсификации структуры производственных затрат предприятия, модернизации и оптимизации производственного процесса.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

диверсификация, потребительский рынок, производственные мощности, постоянные и переменные затраты, оборотные фонды затрат.

ABSTRACT

This article investigates ways to achieve the goal of sustainable and effective development of the national economy as a result of diversification of the enterprise production cost structure, modernisation and optimisation of the production process.

KEY WORDS

diversification, consumer market, production capacity, fixed and variable costs, revolving cost funds.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2022-yil 22-yanvarda tasdiqlangan qarorida "Taraqqiyot strategiyasini asosiy maqsadlari xalq faravonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash, tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqi va manfaatlarini so'zsiz himoya qilish, faol fuqorolik jamiyatini shakllantirish zaruriyati belgilangan.

Milliy iqtisodiyotni barqaror va samarali rivojlantirish ishlab chiqarish, jarayonini modernizatsiya va diversifikatsiyalashtirish asosida ishlab chiqarish korxonalari ishlab chiqarish xarajatlarini tejamkorlik asosida olib borish muhim iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega. Bu o‘rinda korxona ishlab chiqarish xarajatlarini tartibga solish iqtisodiy rivojlantirishni tejamkorlik asosida olib borishning asosiy omili hisoblanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibini ko‘rib chiqishda uni aniq va noaniq xarajatlarga bo‘lib o‘rganish yoki ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni o‘rganish uslubidan ham foydalanish mumkin. Korxonaning ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish uchun, avvalambor, bozor iste’mol talablarini o‘rganish asosida ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish zarur. Agarda korxona tomonidan iste’mol bozorida chiqarilgan mahsulot tovarlariga talab o‘sib borsa, uning ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun qo‘shimcha xarajatlar talab etiladi.

Korxonaning ishlab chiqarishni qo‘shimcha ravishda ko‘paytirish bilan bog‘liq xarajatlarga bo‘lgan talablarini zarur bo‘lgan xarajatlar bilan ta’minlovchi korxona har doim ham tezlik bilan uni tartibga sola olmaydi.

Korxonaning ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, qay hajmda va qanday yo‘nalishlarda iste’mol bozoriga mahsulot ishlab chiqarish hajmi, sifati va mahsulot birligining qiymati ishlab chiqaruvchi korxonaning ishlab chiqarish quvvatini, tarkibini va uni qanchalik ishlab chiqarishini ta’minlovchi texnika parklari quvvatini takomillashtirib borishiga bog‘liq.

Agarda korxonaning ishlab chiqarish xarajatining asosiy qismini asosiy ishlab chiqarish fondlari tariqasida ifodalanuvchi ishlab chiqarish vositalari, texnika va texnologiyalar hisoblansa, bu xarajatning ikkinchi qismi aylanma xarajat mablag‘laridan tashkil topadi.

To‘g‘ri, uning ishlab chiqarish jarayoni yo‘nalishini o‘zgartirishda o‘zgaruvchan xarajatlarni shu firma darajasida mahsulot turini ishlab chiqarishni tashkil etishda ularni, ya’ni o‘zgaruvchan xarajatlarni o‘zgartirish mumkin. Bu ishlab chiqarish jarayonida ma’lum bir mahsulot ishlab chiqarish yo‘nalishini o‘zgartirish bilan bog‘liq o‘zgaruvchan xarajatlar turlari bo‘lgan xomashyo, yoqilg‘i va moylash mahsulotlari, elektrenergiyadan foydalanish ishlab chiqarishda band bo‘lgan xodimlarga ish haqini soatbay asosida to‘lashni qayta ko‘rib chiqishni talab etadi.

Korxona ishlab chiqarishini tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlarni doimiy yoki o‘zgaruvchan ekanligini aniq ishlab chiqarish holatidan kelib chiqqan holda aniqlash mumkin.

Korxonalarda o‘zgaruvchi xarajatlar asosida ishlab chiqarish jarayonini kengaytirish maqsadida qurilish ishlarini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan vaqtincha qo‘shimcha ishchi kuchlarini jalb etish bilan bog‘liq xarajatlar ham o‘zgaruvchi xarajatlari hisoblanadi. Demak, korxonada vaqtincha o‘zgaruvchi xarajatlarni tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar o‘zgaruvchan xarajatlarni tashkil etadi. Ishlab chiqarish xarajatlaridan foydalanishni ikki yo‘nalishga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu xarajatlar doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlar tariqasida ishlab chiqarish jarayonida foydalanish vaqtini ham qisqa muddatli vaqtda foydalaniladigan, o‘zgaruvchan xarajatlar va uzoq muddatli foydalaniladigan, o‘zgarmaydigan doimiy xarajatlar tariqasida ulardan foydalanish vaqti ham qisqa va uzoq muddatli foydalanish vaqtiga ega ekanligini ko‘rish mumkin.

Xarajatlarning bu ikkala o‘zgaruvchi, doimiy xarajatlar va ishlab chiqarish tovarlarga sarflangan barcha xarajatlar, shu jumladan, iste’mol bozorlariga yetkazish bilan bog‘liq barcha xarajatlar ijtimoiy xarajatlarni tashkil etadi. Ijtimoiy xarajatlar ikki qismdan: ishlab chiqarish va muomala xarajatlari yig‘indisidan tashkil topadi.

Ishlab chiqarish xarajatlari ma’lum bir yo‘nalishda iste’mol bozori uchun ishlab chiqariladigan mahsulotlarning bir turini ishlab chiqarish bilan bog‘liq barcha xarajat turlarini tashkil etsa, muomala xarajatlari ishlab chiqarilgan yangi tovar qiymatida firma tomonidan o‘zlashtiriladigan foyda muomala xarajatlarini qoplangandan so‘ng qoladigan foyda korxonaning foydasini ifoda etadi va uning ma’lum foizi qismida iste’mol bozorlariga iste’mol tovarlarini yetkazib bergani bo‘ladigan muomala xarajatlari belgilangan ulushini o‘zlashtiradilar.

Ishlab chiqarish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar iste’mol bozoriga asosan muomala sohasida iste’mol bozoriga xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar iste’molchilarga yetkazib berish ishlab chiqarilgan tovarlarni asosida ishlab chiqaruvchi korxonani doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlarini qoplash va foyda olishni ta’minlashi bilan birga tovarlarni iste’mol bozoriga yetkazib berish bilan bog‘liq muomala xarajatlarini va ularga ishlab chiqarish firmasi kechib bergan foydasini o‘zlashtirishni ta’minlaydi. Ularda ishlab chiqarish bilan bog‘liq xarajatlari muomala sohalarida qo‘shimcha xarajatlar tariqasida tovarlarning ma’lum bir kamchiliklarni oldini olish, ularni maxsus holda joylashtirish, saqlash va boshqa qo‘shimcha xarajatlar bilan bog‘liq bo‘lib bu xarajatlar ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan qoplanishi yoki tovarlar qiymatiga qo‘shimcha xarajatlar tariqasida tovarlarni sotuvi asosida qoplanadi.

Ishlab chiqarish xarajati asosiy iqtisodiy ko‘rsatkich bo‘lib, uning ishlab jarayonini yakuniy holatini uni samarali foyda olib ishlayotganini yoki samarasi ziyoniga ishlayotgani belgilab beradi.

Korxona ishlab chiqarish jarayoni uning moliyaviy yakuniy holatida uning ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash yoki qoplamayotganini samarali foyda olish asosida yoki foyda olmasdan ziyonga zarar ko‘rib ishlayotganini ko‘rsatadi.

ATROF-MUHIT VA TABIIY RESURSLAR IQTISODIYOTI FANINING ATROF-MUHIT MUHOFAZASI VA TABIIY RESURSLARDAN OQILONA FOYDALANISHDAGI ILMIY VA AMALIY AHAMIYATI

B.R.Ramazonov
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti iqtisodiyot kafedrasi dotsenti

“Agar mendan sizni nima qiynaydi deb so‘rasangiz, farzandlarimning ta’lim va tarbiyasi deb javob beraman”.

Sh.M.Mirziyoyev

https://doi.org/10.5281/zenodo.13767821

ANNOTATSIYA

Maqolada bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, tabiiy resurslardan samarali, oqilona foydalanish, kelajak avlod uchun resurslarni asrab-avaylash, global iqlim o‘zgarishlari, iqtisodiy va ekologik komponentlarning o‘zaro chambarchas bog‘liqligi, Orol dengizi qurishining salbiy oqibatlari va hokazolar to‘g‘risida fikr yuritiladi.

KALIT SO‘ZLAR

Orol dengizi, iqtisodiyotini rivojlantirish, bioxilma-xillik, global iqlim o‘zgarishlari, suv resurslari, barqaror taraqqiyot, barqaror rivojlanish, tabiiy resurslar, tabiatni muhofaza qilish.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются развитие экономики страны сегодня, эффективное и рациональное использование природных ресурсов, сохранение ресурсов для будущих поколений, глобальные изменения климата, тесная взаимозависимость экономической и экологической составляющих, негативные последствия строительства Аральское море и т.д. будут рассматриваться.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Аральское море, экономическое развитие, биоразнообразие, глобальные изменения климата, водные ресурсы, устойчивое развитие, устойчивое развитие, природные ресурсы, охрана природы.

ABSTRACT

The article deals with the development of the country's economy today, the effective and rational use of natural resources, the preservation of resources for future generations, global climate changes, the close interdependence of economic and ecological components, the negative consequences of the drying up of the Aral Sea, etc. will be considered

KEY WORDS

Aral Sea, economic development, biodiversity, global climate changes, water resources, sustainable development, sustainable development, natural resources, nature protection.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, tabiiy resurslardan samarali, oqilona foydalanish, kelajak avlod uchun resurslarni asrab-avaylash, resurslar bitmas-tuganmas ekanligini o‘sib kelayotgan yosh avlodga to‘g‘ri tushuntirish, ularga ekologik ta’lim va tarbiya berish, atrof-muhitni muhofaza qilish, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda resurs tejamkor texnologiyalar yaratish, yer, suv, o‘simlik resurslarini, shu bilan birga, bioxilma-xillikni asrab-avaylash, tabiiy resurslar – gaz, neft, ko‘mir va hokazo tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq.

Bugungi kunda global iqlim o‘zgarishlari butun jahon hamjamiyati oldida turgan olamshumul muammolardan biridir. Global iqlim o‘zgarishlarining asosiy sabablaridan biri tabiatda antropogen ta’sirning kuchayishi hamda yuz berayotgan anomal hodisalar va bosimning kuchayishidir. Yer yuzida ro‘y berayotgan global iqlim o‘zgarishlari natijasida sodir bo‘layotgan salbiy o‘zgarishlar ko‘plab mamlakatlarni qamrab olgan. Ayniqsa, suv resurslari taqchil bo‘lgan, chuchuk suv muammosi kuchli bo‘lgan hududlarda iqlim o‘zgarishlari natijasida cho‘llanish va sahrolanish jarayonlari tez rivojlanmoqda. O‘zbekistonda 2030-yilgacha barqaror rivojlanish strategiyasining qabul qilinganligi, respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ta’minlashda, mamlakat aholisining turmush tarzini yaxshilashda, xalqning farovonligini oshirishda, barqaror rivojlanishga erishish vositalari hisoblangan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni o‘zaro muvofiqlashtirish hamda ularning mutanosibligini ta’minlash murakkab vazifa hisoblanadi. Iqtisodiy va ekologik komponentlar o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, insonlarning atrof-muhitga tashqi ta’sirini baholashning zarurligi bilan bog‘liq yangi g‘oyalarning shakllanishiga olib keladi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasida “Tabiat – bu ajdodlardan qolgan meros emas, balki avlodlardan qarzga olingan boylikdir” ,– deyiladi. Barqaror rivojlanish

g‘oyasining maqsadi – kelajak avlod ehtiyojlarini inobatga olgan holda hozirgi zamon kishilik jamiyatining uzviy bog‘langan ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini bir me’yorda ta’minlashdir.

Ma’lumki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yilning sentyabrida Barqaror rivojlanish bo‘yicha o‘tkazilgan sammitida 2030-yilgacha bo‘lgan davrda davlat va hukumat rahbarlari tomonidan qabul qilingan hujjat prinsipial jihatdan yangi global majburiyat hisoblanadi. Barqaror rivojlanishining 17-maqsadi va tegishli vazifalar keng miqyosli masalalarni, ya’ni sog‘liq va farovonlikdan tortib to iqlim o‘zgarishlarigacha, gender tengligidan tortib iste’mol va ishlab chiqarish modellari o‘zgarishlarigacha bo‘lgan jarayonni qamrab olgan. Barqaror rivojlanish maqsadlarida nafaqat turli sohalarda ustuvor yo‘nalishlar, yangi keng ko‘lamli vazifalar belgilab olinyapti, balki ularda yangi ufqlar ham o‘z ifodasini topmoqda. Birinchi marta xalqaro shartnomada rivojlanish jarayonida umumiy manfaatlarni hisobga olgan holda faoliyat yuritadigan, samarali va hisobdor muassasalar hal qiluvchi rol o‘ynashi belgilab berilgan.

Ta’kidlash joizki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlariga to‘la hamohang bo‘lgan Harakatlar strategiyasiga muvofiq qabul qilinayotgan Davlat dasturlariga binoan ishlab chiqilib, hayotga tatbiq qilinayotgan qonunlar mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qonun ijodkorligi va parlament nazorati faoliyati doirasida tegishli ishlar belgilab olingan bo‘lib, xususan, parlament O‘zbekistonning “Barqaror rivojlanish maqsadlari”ga erishish bo‘yicha Hukumat tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar yuzasidan muntazam ravishda parlament va qo‘mita eshituvlarini amalga oshirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktyabridagi qarori 2030-yilgacha bo‘lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida Milliy indikatorlarni ishlab chiqaradi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi birinchi yig‘ilishidagi nutqida “Bundan buyon Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlarini bajarish bo‘yicha vazirlar hisobotlarini eshitishni yo‘lga qo‘yishi lozim” deb ta’kidlagan edi. Shu nuqtayi nazardan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati Kengashlarining 2020-yil 27-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini barqaror rivojlantirish sohasidagi Milliy maqsadlar va vazifalarning 2030-yilgacha bo‘lgan davrda amalga oshirilishini nazorat qilish bo‘yicha Parlament komissiyasini tuzish to‘g‘risida”gi qo‘shma qarori mamlakatimizda 2030-yilga qadar yuqorida keltirilgan keng ko‘lamli maqsadlarga hamohang ekanini tasdiqlovchi muhim qadamdir.

XXI asrda yuzaga kelgan og‘ir ekologik vaziyatdan chiqish yo‘llarini va ularning yechimini izlab topish uchun bugungi kunda ro‘y berayotgan zamonaviy muammolarni hal qilish va kelgusida ularning oldini olish hamda salbiy oqibatlarini yumshatishga yo‘naltirilgan barqaror taraqqiyot konsepsiyasi ishlab chiqildi. “Barqaror taraqqiyot” atamasi ingliz tilidan kelib chiqqan bo‘lib, uni turg‘un, qo‘llab-quvvatlanayotgan, avaylanayotgan, davomli, uzluksiz rivojlanish deb tarjima qilish mumkin. Iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlari global miqyosga ega bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi hududlarida ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Buni Orol dengizining qurishi natijasida Markaziy Osiyodagi global iqlim o‘zgarishlari dunyo ko‘rsatkichlaridan ikki barobar jadalroq kechayotganida ham ko‘rish mumkin. Daryolar suvini shakllantiruvchi muzliklarning juda katta sur’atlarda erib ketayotganligi, chang va qum bo‘ronlarining uzoq davom etayotganligi, davriyligi, chang bo‘ronlari sonining ortib borayotganligi, sahrolanish jarayonlarining kuchayib borayotganligi hamda yerlarning degradatsiyasi, suv resurslarining taqchilligi va noto‘g‘ri taqsimlanishi kabi salbiy ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmoqda.

Butun dunyoda kuzatilayotganidek, global iqlim o‘zgarishlari muammosi O‘zbekistonga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmayapti. Iqlim o‘zgarishlari natijasida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarni quyidagi misollar yordamida ko‘rsatish mumkin: suv resurslari taqchilligining kuchayishi va noto‘g‘ri taqsimlanishi; o‘rtacha havo haroratning oshishi; yog‘ingarchiliklarning kam yog‘ishi; yog‘ingarchiliksiz kunlarning, ya’ni qurg‘oqchilikning uzoq davom etishi va bir martada yog‘inlarning yog‘ib o‘tishi; qishloq xo‘jaligida yetishtirish uchun maqbul ekinlar tarkibining butunlay o‘zgarishi; harorat oshishi natijasida aholi salomatligi bilan bog‘liq muammolarning ko‘payishi kabi salbiy ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.

Abadiy muzliklarning erishi natijasida dunyo okeani suvining harorati va fizik xossalari, okeanlardagi oqimlar, ushbu oqimlarga tutash bo‘lgan mamlakatlarda iqlim, global gidrologik sikl va iqlimni yaratuvchi global jarayonlar o‘zgaradi, natijada yog‘ingarchiliklar amplitudasida katta o‘zgarishlar yuz berib, u o‘ta ko‘p yog‘in yog‘ishi yoki umuman yog‘masligiga olib kelishi mumkin. Natijada qurg‘oqchilik va toshqinlar soni keskin ko‘payadi, tabiiy ofatlar – tayfunlar, sellar, tornadolar, ko‘chkilar yuz beradi. Bu holat bir tomondan uncha qo‘rqinchli bo‘lib tuyulmasligi mumkin. Agar sayyoramizda harorat yana besh darajaga ko‘tarilsa, barcha jarayonlar orqaga qaytarib bo‘lmaydigan tus oladi va sayyoramizda hayotga, tiriklikka jiddiy xavf tug‘ilib, Yerda hayotning mavjudligi so‘roq ostida qoladi. Bugungi kunda biz yashab turgan, doimiy munosabatda bo‘lib kelayotgan ona zamin, yerda hayotning paydo bo‘lishi, tabiiy muhitning uzoq geologik davrlar –

4,5-4,7 milliard yillar mobaynida bir qancha omillarning birgalikda ta’sirida, ya’ni quyosh nuri, yerning gravitatsiya kuchi, ko‘lami, aylanma va tektonik harakatlar, havo va suv qobiqlarining vujudga kelishi va o‘zgarishi, ekzogen jarayonlar ta’siri, organik dunyoning paydo bo‘lishi va taraqqiyoti ta’sirida tarkib topgan.

Tabiiy muhitning holati o‘zaro ta’sir etib turuvchi bir qancha omillarning murakkab majmuyida tarkib topgan tabiiy muvozanatga bog‘liq bo‘lib, bir joyning iqlimi quyosh nurining tushish burchagiga, ya’ni geografik kenglik, yer yuzasining tuzilishi, shamollar, okeanlarning uzoq yoki yaqinligi hamda oqimlari va boshqalarga uzviy va chambarchas holda bog‘liq bo‘ladi. O‘simliklar qoplami esa iqlim, yer yuzidagi tog‘ jinslari, relyef, tuproqlar bilan chambarchas bog‘liq hamda bu tabiiy omillarning bittasida o‘zgarish ro‘y bersa, tabiiy muvozanat buziladi, bu esa tabiiy muhitning o‘zgarishiga olib keladi. Ba’zan tabiatning biror komponentiga ko‘rsatilgan ma’lum bir ta’sir hech kutilmagan katta o‘zgarishlarga, xususan, xavfli o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin. O‘zbekistonda 10 dan ortiq o‘rmon xo‘jaligi, 9 ta qo‘riqxona, 2 milliy bog‘, bir qancha buyurtma qo‘riqxona mavjud bo‘lib, ularda tabiat yodgorliklari, kamayib ketgan o‘simlik va hayvonlar qo‘riqlanadi, o‘rganiladi va ko‘paytiriladi. O‘zbekistonda tabiatni muhofaza qilish Respublika jamiyati, 12 ta viloyat va Qoraqalpog‘iston jamiyati, O‘zbekiston geografiya jamiyati, EKOSAN, bir qancha ilmiy-ommabop va ilmiy jurnallar, radio va televideniye vaqtli matbuot tabiatni muhofaza qilish haqidagi bilimlarni targ‘ib qilmoqda. Aholi o‘rtasida tabiat, undan oqilona foydalanish va muhofaza qilish haqidagi bilimlarni targ‘ib qilish, aholining geografik, ekologik madaniyatini ko‘tarish tabiatni muhofaza qilishda katta ahamiyatga ega. Tabiatni, uning boyliklarini muhofaza qilish, geografik ekologiya o‘quv kurslari o‘rta maxsus va oliy yurtlarining tabiatshunoslik mutaxassisliklari talabalariga maxsus kurslar sifatida o‘qitilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda atrof-muhit va tabiiy resurslar iqtisodiyoti fanining atrof-muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishdagi ilmiy va amaliy ahamiyati talabalar bilimini oshirishdagi o‘rni nihoyatda katta bo‘lib, sohada yetuk kadrlar tayyorlashda katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ramazonovich, R. B., & Ramazon, K. (2018). Evolution of soils of the Aral Sea area under the influence of anthropogenic desertification. European science review, (1-2), 24-28.
2. Ramazonov, B. R., & Kuziev, R. K. (2020). Soils of the dried part of the aral sea and problems of desertification. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(6), 565-577.

3. Рамазонов, Б. Р. (2021). Сельскохозяйственные культуры и их продуктивность в нижне амударьинском регионе. Academic research in educational sciences, 2(1), 1001-1006.
4. Рамазонов, Б. Р. (2021). Процессы эрозии, опустынивание в природе и их основные характеристики. Academic research in educational sciences, 2(5), 386-396.
5. Рамазонов, Б. Р., & Муталов, К. А. (2021). Взаимосвязь между экологией и экологические науки мониторинг загрязнения почвы. Academic research in educational sciences, 2(9), 946-954.
6. Қурбонов, Ш. Ш., & Рамазонов, Б. Р. (2021). Қишлоқ хўжалик фанларини ўқитиш методикасининг педагогика ва бошқа фанлар билан боғлиқлигининг илмий-амалий аҳамияти. Academic research in educational sciences, 2(9), 51-59.
7. Баракаевич, Қ. С., Рамазонов, Б. Р., & Журакулович, Х. Р. (2020). Сув ресурсларининг танқислиги–глобал экологик муаммо. Биология ва экология электрон журнали, 4(2).
8. Рамазонов, Б. Р., & Курбонов, Ш. Ш. (2021). Формирование компетенции у студентов биологического направления вузов в обучении предмета почвоведение и биологические основы сельского хозяйство. Academic research in educational sciences, 2(4), 319-325.
9. Ramazonov, B., & Khujanazarov, U. (2024) Conservation of biodiversity in our country and their significance in economic development.Science and innovation, 3(Special Iss. 36),621-625.
10. Ramazonov, B. (2024). Global iqlim o‘zgarishlari sharoitida atrof-muhit muammolari. Science and innovation, 3 (Special Issue 36), 616-620.
11. Ramazonov, B., & Mutalov, A. (2024). Genesis and evolution of the soil and regionalized crop plants in the lower reaches of amu darya region, Uzbekistan. Sabrao Journal of Breeding & Genetics, 56(2).
12. Ramazonov, B., Jabborov, E., Khalikov, B., & Koshbokov, D. (2024). The importance of using modern innovative pedagogical technologies in teaching the subject economics of natural resources and environmental protection. Science and innovation, 3(A6), 107-110.
13. Mutalov, K. A., Ramazonov, B. R., Abduraimova, K. I., & Nematova, O. R. (2023). The Community of Mixed Skin Plants (Calligoneta CaputMedusa, C.

MUNDARIJA

KIRISH…… **3**

Pedagogika fanlari

B.X.DANIYAROV
Jozibali dars – ham qarz, ham farz (Zamonaviy dars o‘tishning ayrim tutum va uslublari xususida)……..... **6**

SAPAROVA GULNAZ KALBAYEVNA, AXMEDOVA SANOBAR IKROM QIZI
Ekologik ta’lim va tarbiyaning ahamiyati…… **18**

ISKANDAROVA GULNARA GURBAN
Quality and skill-based assessment in higher education…… **22**

URAZIMBETOVA MARDJINA
Suzish bilan shug‘ullanuvchi 5-7-yoshdagi bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish vositasida sinxron suzish mashqlari…… **32**

KALEKEEVA SARBINAZ TURKMENBAEVNA
Fikrlash madaniyatining rivojlanishida psixologiya va fiziologiya fanlarining tutgan o‘rni……. **38**

BOYTURAYEVA GULBAXOR KAMOLIDDIN QIZI
Fanlararo aloqalar va uni maktab fizika kursida yorug‘lik hodisalariga doir mavzularni o‘qitishda qo‘llash…….. **43**

MALLAYEVA MATLUBA ABDUMALIKOVNA
O‘quv dasturlari ta’lim sifatining muhim omili sifatida…… **51**

Filologiya fanlari

MA’RUFJON YO‘LDOSHEV
Badiiy matnda qahramonlar nutqi va ularning lingvopoetik xususiyatlari….. **57**

DUSTMURODOV MA’RUFJON MANSUR O‘G‘LI
O‘rxun-Enasoy bitiklaridagi qo‘shin tuzilishiga oid islohotlar xususida……. **64**

ELÇIN İBRAHIMOV, NIYALƏ ƏBILOVA
YOX OLMA TƏHLÜKƏSİ İLƏ ÜZ-ÜZƏ OLAN TÜRKCƏ: XƏLƏC TÜRKCƏSİ……... **73**

SADAGAT ABBASOVA
Basic aspects of voice substitutions in different languages……... **85**

AYGUL CHOBANOVA
Poetic figures in the work of zalimkhan yagub…….. **94**
MAMEDOVA NARGIZA ZIRADDINOVNA
Russian language teaching methodology and its relationship with other subjects……. **108**

Iqtisodiyot fanlari

GAIBNAZAROVA ZUMRAT TALATOVNA, AXMEDOVA SANOBAR IKROM QIZI
Ishlab chiqarish korxonasi samaradorlik ko‘rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish va 2024-2028 yillarga variantli prognozlashtirish yo‘llari….. **112**
A.A.TURABEKOV
Korxona ishlab chiqarish xarajatini tarkibiy tuzilishi…… **123**
B.R.RAMAZONOV
Atrof-muhit va tabiiy resurslar iqtisodiyoti fanining atrof-muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishdagi ilmiy va amaliy ahamiyati…… **127**

TOSHKENT IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY-METODIK JURNALI

№1 (2024)

Bosmaxonaga berildi: 12.09.2024. Bosishga ruxsat etildi: 25.09.2024.

Bichimi 60x84 1/8. Times New Roman garniturasi. Ofset bosma.

Shartli bosma taboq: 9.77. Adadi 100 nusxa.

Manzil: Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti

Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Feruza ko‘chasi,

https://tipi-journal.uz e-mail: TIPI_info@mail.ru